

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**  
**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI**

**SANOAT TEXNOLOGIYA FAKULTETI  
KIMYOVIY TEXNOLOGIYA KAFEDRASI**

Polimer kompozitsiyalar yaratishning asoslari  
fanidan

# **ELEKTRON MODULLI MAJMUA**



**Qarshi-2022**

# **“POLIMER KOMPOZITSION MATERIALLAR YARATISHNING ASOSLARI”**

**FANI BO‘YICHA**

## **ANNOTATSIYA**

“Polimer kompozitsion materiallar yaratishning asoslari” fanining asosiy vazifasi polimerlar kimyosi asoslari, yangi polimerlar yaratish muammolari, polimerlar uchun xom ashyoni tanlashni chuqurroq yoritishdan iborat.

Ma’ruzalar matni qo‘yidagi bo‘limlarni o‘z ichiga oladi:

- Turmushda va sanoatda polimer kompozitsion materiallarning tutgan o‘rni, polimer kompozitsion materiallar tuzilishi va tarkibi, polimer kompozitsion materiallarning afzallik va kamchiliklari, yangi polimer materiallar yaratish muammolari;
- Polimer kompozitsion materiallarda fazalararo xodisalarning fizik-kimyoviy nazariyasi, polimer kompozitsion materiallar shakllanishida adsorbsiyaning roli;
- Polimerlar adgeziyasining nazariy asoslari;
- Polimer kompozitsion materiallar shakllanishida fazalararo hodisalar;
- Polimer kompozitsion materiallarning xossalari;
- Polimer kompozitsion materiallarning reologik xossalari;
- Polimer kompozitsion materiallarni qo‘llanilishi.

Ushbu fanni o‘zlashtirgan talaba polimer kompozitsion materiallardagi fazalararo fizik-kimyoviy hodisalar, ularni polimer kompozitsion materiallardagi xossalariiga qanday ta’sir ko‘rsatishini, polimer kompozitsion materiallardagi reologik xossalarni aynan polimerlar reologik xossalardan farqlay olish kabi bilimlarga ega bo‘ladi.

# M U N D A R I J A

<b>Kirish .....</b>	<b>5</b>
<b>1.“Polimer kompozitsiyalar yaratishning asoslari” fanini o‘qitishdagi innovatsiyalar va ilg‘or xorijiy tajribalar.....</b>	<b>7</b>
<b>2.“Polimer kompozitsiyalar yaratishning asoslari” modulidan elektron o‘quv moduli ishlanmasi.....</b>	<b>15</b>
<b>2.1. O‘quv moduli dasturining qisqacha tavsifi .....</b>	<b>15</b>
<b>2.2. Ma’ruza matni.....</b>	<b>26</b>
<b>2.3. Laboratoriya mashg’ulotlari.....</b>	<b>73</b>
<b>2.4. Modul bo‘yicha keyslar to‘plami, amaliy topshiriqlar, ishlanmalar, nazorat topshiriqlari va mustaqil ta’lim yuzasidan ko‘rsatmalar.....</b>	<b>100</b>
<b>Testlar.....</b>	<b>102</b>
<b>Nazorat savollari.....</b>	<b>111</b>
<b>Referat mavzulari.....</b>	<b>112</b>
<b>Foydali maslahatlar va tavsiyalar.....</b>	<b>103</b>
<b>Foydalilanigan adabiyotlar ro’yhati.....</b>	<b>114</b>
<b>Glossariy.....</b>	<b>115</b>

## KIRISH

Respublikamizda yuz berayotgan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlar yangi o‘quv fanlarini kiritishda yangi ta’lim standartlarini ishlab chiqish ehtiyojinigina emas, balki o‘qitish metodikasini o‘zgartirishni ham talab qiladi. Shuningdek, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida qo‘yilgan barkamol avlod tarbiyasi vazifalarini amalgga oshirish jarayonida tayyorlanayotgan kadrlarning mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish ta’lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri sifatida qaralmoqda [1].

Ta’lim jarayonida dars mashg‘ulotlari o‘qitishning interfaol usullaridan foydalanib tashkil etilsa, o‘quvchi-talabalarning mashg‘ulot davomida faolligi oshadi, mustaqil fikrlash qibiliyatları rivojlanadi, ijodiy tafakkuri kuchayadi, muammolarni yechimini eng maqbulligini tanlash faoliyati mustahkamlanadi, ayniqsa ilm olishga bo‘lgan intilish yanada oshadi.

O‘quv mashg‘ulotlarini pedagogik va axborot texnologiyalar asosida tashkil etishda fan, texnika, texnologiyaning yutuqlari, respublikada joriy etilgan uzlusiz ta’lim tizimining ta’lim turlari o‘rtasidagi uzviylik va uzlusizlikni ta’minlashi, oliy ta’limda uzlusiz o‘qitiladigan fanlarda mavzularning mantiqiy ketma-ketligi, oddiydan murakkablikka, xususiydan umumiylikka o‘tib borish tamoyillariga amal qilinishi shart. Mustaqillik tufayli O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurishni amalgga oshirilmoqda. Bunda ta’lim-tarbiya tizimi ham tubdan isloh etilmoqda.

“Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo‘lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi” – deb ta’kidalanadi I.Karimovnnng “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch asarida”. “Shuni unutmaslik kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo‘lishi farzandlarimizning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog‘liq”. Demokratik jamiyat qurilishni va uning taraqqiyotini ta’lim va tarbiya sohasisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu ta’lim-tarbiya sohasini milliy madaniy meros va umumiy e’trof etilgan demokratik prinsiplarga asoslanishi bilan bog‘liq. Shu ma’noda bu sohada chuqur islohatlar amalgga oshirildi.

“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” mamlakatimizda ta’limni rivojlantirish va yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash borasidagi islohotlarni amalgga oshirishning nazariy-amaliy asosini tashkil qilib, kelgusida ta’limni yanada rivojlantirishning istiqbollarini belgilovchi tarixiy ahamiyatga molik hujjatdir. Bu hujjatlarda vatanimizning kelajagi bo‘lgan yoshlarni voyaga yetkazish, ulardagi mavjud iste’dod va iqtidorni namoyon etishlariga alohida e’tibor berilgan, mamlakatimiz ta’lim tizimini isloh qilishning asoslari, tamoyillari va bosqichlarini belgilangan.

**O‘qitishda modulli yondashuvning dolzarbliyi.** O‘quv jarayonini to‘g‘ri tashkil etish o‘qitish samaradorligini ta’minlovchi eng asosiy manba hisoblanadi. O‘qitish jarayonida, pedagogik texnologiyalar talablari asosida ifoda etilgan, o‘quv maqsadlariga erishiladi. O‘quv jarayoninig maqsadi uning zaruriy samaradorligini ta’minlash va talabalar tomonidan o‘qishning ko‘zlangan natijalariga erishishdir. O‘quv jarayonida dars mashg‘ulotlari o‘qitishning interfaol usullaridan foydalanib tashkil etilsa, o‘quvchi-talabalarning mashg‘ulot davomida faolligi oshadi, mustaqil fikrlash qibiliyatları rivojlanadi, ijodiy tafakkuri kuchayadi, muammolarni yechimini eng maqbulligini tanlash faoliyati mustahkamlanadi, ayniqsa ilm olishga bo‘lgan intilish yanada oshadi.

Modul - mazmuniy va mantiqiy yakunga ega bo‘lgan, didaktik jihatdan ishlab chiqilgan, natijaga qaratilgan, kirish va chiqish nazoratlaridan iborat bo‘lgan birlikdir. Modulni o‘rganish natijasida qanday bilimlarni egallashi, qanaday ko‘nikma va malakalar shakllantirilishi sanab o‘tiladi. O‘zlashtirish jarayoni tugagandan so‘ng talaba qanday faoliyatni qanday sharoitlarda bajara olishi ko‘rsatiladi. Natijalar uzviy birlikka ega bo‘lib, o‘qitish maqsadlaridan chetga chiqmagan holda shakllantirilishi lozim.

Modulli texnologiyalar mustaqil faoliyat asosida talabalarda bilim, ko‘nikmalarni shakllantirish, ularda rejalashtirish, o‘z-o‘zini boshqarish va nazorat qilish, o‘zlashtirish bo‘yicha samarali natijani ta’minlashga qaratilgan eng samarali yondashuvlardan biri bo‘lib qolmoqda. Modul bu shunday maqsadgsha yo‘naltirilgan bog‘lamki, u o‘zida o‘rganiladigan mazmunni va uni o‘zlashtirish texnologiyasini aks ettiradi.

## **1. "Polimer kompozitsiyalar yaratishning asoslari"fanini o'qitishdagi innovatsiyalar va ilg'or xorijiy tajribalar**

Oliy o'quv yurtlari o'qituvchilari o'quv fanlari bo'yicha yaxlit ta'lim texnologiyalarini loyihalashtirish va amalga oshirish ishlarni keng qamrovli olib bormoqdalar. O'qish jarayonida taqdim etiladigan ta'lim texnologiyalarida yangi o'qitish modeli qo'yidagilarga asoslangan [11]:

- ta'limning har bir shaxsga yo'naltirilganlik va tizimli yondashuv, ta'lim subektlari munosabatlarini demokratlashtirilishi va insonparvarlashtirilishiga;
- ta'limda talabalar roli o'zgarishiga: o'quv faoliyatini mustaqil olib boruvchi ta'lim jarayonining teng huquqli subekti;
- ta'limda o'qituvchining roli o'zgarishiga: mustaqil o'quv faoliyatining tashkilotchisi, talabalarining savodli maslahatchisi va yordamchisi. Talabalar bilimi, ko'nikmalari, mahoratlarining nazoratini hamda ehtimolli og'ishlarni o'z vaqtida to'g'rilash maqsadida ularning bilim darajasi diagnostikasini ta'minlaydi;
- ta'limning uslublari va vositalarining o'zgarishiga: (1) muammoli holatlar, faol ijodiy-tadqiqiy faoliyatni yaratishga asoslangan, muammolarni qidirish va yechish, bilimlarni amalda qo'llashga yo'naltirilgan faol va interfaol usullar an'analı bo'lib qolmoqda; (2) jamoa va guruh ishlari keng qamrovli ta'lim shakliga nisbatan ko'paymoqda; (3) axborot texnologiyalari ta'limning an'anaviy vositalari bilan bir qatorda keng qo'llanmoqda; o'quv materiallari ta'lim olayotganlar tomonidan bilimlarni mustaqil qidirish uchun foydalanimoqda;
- pedagogik boshqarish uslublari va vositalarining o'zgarishiga: o'qituvchi muammolarni aniqlashga, g'oyalarni regeneratsiya qilishga, qarorlarni qabul qilishga qodir va ularning amalga oshishiga mas'uldar menejerga aylanmoqda. U nafaqat pedagogik balki talabalarning o'quv faoliyatini ham bashoratlaydi, loyihalashtiradi va rejalashtiradi, ya'ni qo'yilgan ta'lim maqsadini amalga oshirish va o'quv faoliyatining rejalashtirilgan natijalariga erishish bo'yicha qo'shma faoliyat tizimi va mazmunini ishlab chiqadi, bashoratlash, loyihalashtirish va rejalashtirishda va o'quv faoliyatini tashkillashtirishda talabalarini qo'llab-quvvatlaydi, ta'lim jarayonini o'quv dialogi va polilogi sifatini tuzadi.

Shu bilan birga, o'qituvchilar – loyihalashtiruvchilar talabalarning yangi ta'lim modellari bo'yicha qurilgan ta'lim jarayoniga tayyor emasligiga duch kelashadi. Bu talabalarning ta'lim subekti sifatida ta'sir etmasligida va o'qituvchilar tomonidan taklif etiladigan o'quv faoliyatining uslub va vositalarini amaliy qo'llash qo'nikmalarining yo'qligida namoyon bo'ladi.

Shu munosabat bilan zamonaviy pedagogika texnologiyalarini amalga oshirish sharoitlarida talabalar quyidagi qo'nikma va mahoratlarni egallab olishlari zarur:

- leksiya, seminar va amaliy mashg'ulotlarda mustaqil faoliyat ko'nikmalari;
- taqdimot ko'nikmalari;
- kommunikativ ko'nikmalar;
- hamkorlikdagi ishlar ko'nikmalari;
- muammoli holatlar tahlil qilish ko'nikmalari, o'quv vazifasini yechish, g'oyalarni generatsiya qilish va qarorlarni qabul qilishning nostandard usullarini topish, bu o'z navbatida o'qituvchinig muammoli leksiya, tahlilda va o'quv holatlarini (Keys stadi) hal etish faol ishtirok etishini ta'minlaydi;
- ma'lumotlarni qidirish, yig'ish, ishlov berish va saqlash uchun zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalardan foydalana olishning amaliy ko'nikmalari.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida, 30 yillarda AQSH da dunyoga kelgan, XX asrning 80 yillariga kelib deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarni qamrab olgan va YUNESKO tomonidan tasdiqlangan texnologiyalashtirish bosqichi faollik bilan amalga oshirilmoqda. Ta'limni texnologiyalashtirish – bu keng ko'lamdag'i mutaxassislarning nazariy va amaliy to'plamlarini tadqiqot qiluvchi va ta'minlovchi pedagogika fanining yangi yo'nalishi xisoblanadi. Uning ilmiy imkoniyatlari mamlakatimiz olimlarining ilmiy ishlarida kundan-kunga ortib bormoqda [12].

Pedagogik amaliyotda ta'limning yangi yo'llari va vositalarini tez suratlarda yo'lga qoyish kuzatilmoqda. Shubxasiz bunda faol ta'limning ayrim shakl va usullari o'rniiga bir butun o'qitish texnologiyalari kelishi lozim. Ta'lim jarayonini texnologik loyixalashtirish va rejalashtirishni faqatgina texnologik bilim, malaka va ko'nikmaga ega bo'lgan pedagoggina qilishi mumkin. Texnologik

bilimlarning asosi bu qonun-qoidalarni bilish xisoblanadi: texnologiyalashtirish qonuniyatları va yo'l-yo'riqlari, qoyilgan ta'lim maqsadini amalga oshirish uchun va rejalashtirilgan samarali natijani olish uchun optimal yo'l va vositalarni tanlash.

Ta'limni texnologiyalashtirish fikri bu yangilik emas. Yan Amos Komenskiy ta'limning shunday umumiy tartibini topishga xarakat qilgan-ki, u inson tabiatining umumiy qonuniyatları boyicha amalga oshiriladi. Shunda Komenskiy «o‘g‘irligi tenglashgan soatning yurishidek hamma narsa aniq va ravshan rivojlanib boradi va bu shu turdag'i avtomat moslamasiga yoqimli va quvonch bilan qaragandek yoqimli va quvonchlidir» deb taxmin qiladi [6].

Didaktik mashina uchun 1) aniq qoyilgan maqsad; 2) bu maqsadni amalga oshirish uchun kerak bo‘ladigan vositalar, 3) va albatta, maqsadga erishish uchun bu vositalardan qanday foydalanishning aniq qonun-qoidalari»ni topish zarur deb yozgan edi Komenskiy. Ya’ni 300 yil oldin **ta'limni texnologiyalashtirishning asosiy yondashuvlari** shakllangan edi:

1.ta'lim maqsadini aniqlashtirish;

2.bu maqsadlarga erishishning optimal (oson) yo'l va vositalarini tanlash;

3.qo'yilgan maqsadga erishishni kafolatlaydigan ta'lim modelini loyihalashtirishni belgilovchi qonun-qoidalalar hajmi

**Hozirgi kunda ta'lim va tarbiya ishlarini pedagogik texnologiyalar doirasiga o'tkazish** degani bu maktab amaliyotida pedagogik jarayonni ixtiyoriy tuzishni va uni amalga oshirishni xal qiluvchi o'zgartirishlarga olib kelinishini bildiradi.

An'anaviy o'qitish quyidagi xususiyatlarga ega: zo'ravonlik pedagogikasi, o'qitishning tushuntiruv-ko'rgazmali usuli, ommaviy o'qitish. An'anaviy o'qitishda avtoritarlik quyidagi shaklda namoyon bo'ladi: o'quvchi bu hali to'la shakllanmagan shaxs, u faqat bajarishi zarur, pedagog esa - bu sardor hakam, yagona tashabbuskor shaxs.

**Zamonaviy an'anaviy o'qitish** esa, o'qitishning texnik vositalarini qo'llab, didaxografiyadan foydalanishdan iborat bo'ladi. Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarda, o'quvchi shaxsi pedagogik jarayon markaziga qo'yiladi, uning rivojlanishiga va tabiiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga qulay shart-sharoitlar yaratiladi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida O'zbekiston Respublikasidagi ta'lim tizimining **milliy modeliga** alohida e'tibor qaratilgan. Bu model 5 tarkibiy qismdan iborat: **shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarish** [3]. Bu yerda ta'lim milliy modelining asosiy tarkibiy qismi - «shaxs» birinchi o'rinda turadi. Boshqacha aytganda, butun ta'lim tizimi, shu jumladan, o'qitish shaxsga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Shuning uchun **zamonaviy texnologiyalarda pedagogik jarayon, o'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalari assosida amalga oshirilishi lozim**.

Hayot dialektikasi shundan iboratki, doimo yangi avlod, oldingi avloddan ko'ra rivojlanganroq bo'ladi. Ilmiy texnik taraqqiyotning keskin yuksalish davrigacha, fan, texnika va texnologiyalar rivoji evolyusion, past sur'atlarda amalga oshar edi.

Ilmiy texnik taraqqiyotning keskin yuksalish davrida fan, texnika, texnologiyalar yuqori sur'atlarda rivojlanayotgan davrda, bir avlod hayoti davomida fanning rivoji insoniyatning butun tarixidagidan ko'ra ko'proq bo'lgan bu davrda, o'qitishning an'anaviy tizimi (shu jumladan zamonaviy an'anaviy o'qitish) o'z umrini oxiriga yetdi.

Hozirgi zamon avlodining rivojlanish sur'ati oldingillardan ko'ra ancha yuqori bo'lganligi sababli, o'qitishning an'anaviy tizimi, rivojlanishga to'sqinlik qila boshladi. Bunday sharoitlarda taraqqiyot, faqat har bir shaxsning mayjud imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarish assosida amalga oshirilishi mumkin. Axborotning hajmi, xilma-xilligi, egallahsga moyilliigi va vositalarining yetarliligi samarali individual va mustaqil o'qitishni tashkil etish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratadi. **O'qitishni jadallashtirish maqsadida, pedagogning o'quvchiga bo'lgan munosabati «sardor»likdan, uning «sherigiga aylanishi zarur** [7].

O'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalariga quyidagi asosiy tamoyillar xos bo'ladi:

- **insonparvarlik**, ya’ni insonga har tomonlama hurmat va muhabbat ko‘rsatish, unga yordamlashish, uning ijodiy qobiliyatiga ishonch bilan qarash, zo‘rlashdan to‘la voz kechish;

- **hamkorlik**, ya’ni pedagog va o‘quvchilar munosabatidagi demokratizm, tenglik, sheriklik;

- **erkin tarbiyalash**, ya’ni shaxsga uning hayot faoliyatini keng yoki tor doirasida tanlab olish erkinligi va mustaqillikni berish, natijalarni tashqi ta’sirdan emas, ichki hissiyotlardan keltirib chiqarish. Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarning kommunikativ asosi - pedagogik jarayonda o‘quvchiga insoniy-shaxsiy yondashuv hisoblanadi.

### **Shaxsga yangicha qarash quyidagilardan iborat bo‘ladi:**

- pedagogik jarayonda shaxs obekt emas, subekt hisoblanadi;
- har bir o‘quvchi qobiliyat egasi, ko‘pchiligi esa iste’dod egasi hisoblanadi;
- yuqori etik qadriyatlar (saxiylik, muhabbat, mehnatsevarlik, vijdon va boshqalar) shaxsning ustivor xislatlari hisoblanadi.

### **Munosabatlarni demokratlashtirish** quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- o‘quvchi va pedagog huquqlarini tenglashtirish,
- o‘quvchining erkin tanlab olish huquqi;
- xatoga yo‘l qo‘yish huquqi;
- o‘z nuqtai nazariga ega bo‘lish huquqi
- pedagog va o‘quvchilar munosabati zayli: taqiplamaslik; boshqarish emas, birqalikda boshqarish; majburlash emas, ishontirish; buyurish emas, tashkil etish; chegaralash emas, erkin tanlab olishga imkon berish.

### **Muammoli o‘qitish texnologiyasi**

Muammoli o‘qitish amerikalik faylasuf, psixolog va pedagog Dj.Dyunning nazariy qoidalariga asoslanadi va XX asrning 20-30-yillarida tarqala boshladi. Dj.Dyun o‘qitish uchun quyidagilarni asos qilib belgiladi: ijtimoiy, konstruksiyalash, badiiy ifodalash, ilmiy-tadqiqiy. Bu asoslarni amalga oshirish uchun quyidagilar tavsiya etiladi: so‘z, san’at asarlari, texnik qurilmalar, o‘yinlar va mehnat [8,9].

Muammoli o‘qitish, o‘qitishning shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarga taalluqli, chunki bu yerda shaxs subekt sifatida qaraladi, muammoli vaziyatlarning maqsadi - pedagogik jarayonda o‘ziga xos qiziqish uyg‘otishdir.

Muammoli vaziyatlar kiritilib, an’anaviy, bayon etish o‘quv materialining eng optimal tarkibi hisoblanadi. Pedagog muammoli vaziyat yaratadi, o‘quvchini uni yechishga yo‘naltiradi, yechimni izlashni tashkil etadi. Muammoli o‘qitishni boshqarish, pedagogik mahoratni talab etadi, chunki muammoli vaziyatning paydo bo‘lishi individual holat bo‘lib, tabaqlashtirilgan va individuallashtirilgan yondashuvni talab etadi.

O‘quvchi noma’lum yechimni topish uchun mustaqil yoki o‘qituvchi yordamida izlanadi. Muammoni jamoaviy hal etishda paydo bo‘luvchi, subekt-obekt-subekt munosabatlari ijodiy fikrlashni faollashtirishga olib keladi.

Ush bu modulni o‘qitish jarayonida ishlab chiqarish korxonalarimizdagi real muammoli vaziyatlarni aniqlab, ularning yechimini talabalar yordamida muhokama qilish va topish amaliy yordam beradi.

### **Tabaqlashtirilgan o‘qitish texnologiyasi**

Tabaqlashtirilgan o‘qitish o‘quv jarayonining tashkil etishni bu shakli umumiylididaktika tizimiga asoslangan bo‘lib, maxsus tashkil ettirilgan talabalarning gomogen guruhalarda, o‘quv jarayonini maxsuslashtirishni ta’minlaydi [9].

O‘qitishni tabaqlash (bu tushuncha o‘qitish jarayonini o‘zi bilan bog‘liq) – uslubiy, psixologik-pedagogik va tashkiliy-boshqaruv tadbirlar majmuasi asosida tuzilgan turli xildagi gomogen guruhlarda o‘qitish uchun turli xil shart-sharoitlarni yaratish demakdir.

Oliy, o‘rtalik maxsus va kasb-hunar ta’lim tizimida gomogen guruhal, talabalarning individual-psixologik xususiyatlari, avvalo aqliy rivojlanish darajasi asosida tuziladi. Hozirgi paytda oliy o‘quv yurtlariga kiruvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish darajasi 100 % dan 25 % gacha tashkil etadi. Bunday sharoitda davlat ta’lim standartlari talabiga mos oliy malakali kadrlar tayyorlash maqsadida o‘qitishni tabaqlashtirish davr taqozosidir. Ayniqsa mutaxassislik fanlarni o‘qitishda bunday usuldan foydalanish maqsadga muvofaqdir.

## **Individuallashtirilgan o‘qitish texnologiyasi**

Talabaning mavjud shaxsiy imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarishini ta’minlash, zamonaviy o‘quv jarayoniga qo‘yiladigan jadallahsgan ilmiy-texnikaviy taraqqiyotining talabidir. Bunga individual va individuallashtirilgan o‘qitish orqali erishish mumkin.

Individual o‘qitish – bu o‘quv jarayonining tashkil etishning shakli bo‘lib, bunda pedagog talabalar bilan yakkama-yakka shug‘ullanadi, talaba o‘quv vositalari (kitoblar, kompyuter va h.k.) yordamida uzlusiz mustaqil ta’lim oladi.

**Individual o‘qitishning afzalliliklari:** pedagogik jarayonning talaba qobiliyatlariga moslashuvchanligi imkoniyatidir. Bunda talabaning bilim olish darajasi doimiy monitoringini amalga oshirish va zaruriy tuzatishlar kiritish natijasida optimal pedagogik jarayonni tashkil etiladi [9].

**Individual yondashish** – bu pedagogik tamoyilga ko‘ra, pedagogik jarayonda pedagogning talabalar bilan o‘zaro munosabati, ularning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda quriladi va butun guruh hamda har bir alohida talabaning rivoji uchun psixologik-pedagogik muhit yaratiladi.

Individuallashtirilgan o‘qitish bunday o‘quv jarayonini tashkil etishda individual yondashish asosida o‘qitish yo‘llari, usullari, sur’ati tanlanadi va turli o‘quv-uslubiy psixologik-pedagogik hamda tashkiliy boshqaruv tadbirlari orqali ta’minlanadi.

Individuallashtirilgan o‘qitishning asosi, talabaning individual-pedagogik xususiyatlarini o‘rnatish hisoblanadi. Olingan natijalar asosida, o‘qitish usuli tanlanadi.

## **Kompyuterli o‘qitish texnologiyasi**

Kompyuterlashtirilgan o‘qitish texnologiyasi – bu kompyuterdan foydalanishga asoslangan o‘qitishdir. O‘qitishning kompyuter texnologiyasi yangi axborot texnologiyalarning bir turidir. Axborot texnologiyalarda bundan tashqari boshqa axborot vositalari (televideeniye, video va boshqalar) ishlatalishi mumkin. Kompyuter texnologiyalari dasturlashtirilgan o‘qitish g‘oyalarini rivojlantiradi, zamonaviy kompyuterlar va telekommunikatsiyalarning yirik imkoniyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan o‘qitishning mutlaqo yangi hali tadqiq qilinmagan texnologik variantlarini ochib beradi. Telekommunikatsion tizimlar, shu jumladan kompyuterlar hozirgi zamon ilmiy-texnik taraqqiyotning mahsuli hisoblanadi.

Kompyuterli o‘qitish texnologiyasida quydagilar zarur hisoblanadi: individual o‘qitish; muntazam ravishda kompyuter yordamida diagnostik testlar o‘tkazish; o‘quv maqsadlariga erishilganligini baholash.

Bu o‘qitish texnologiyasida pedagogning funksiyasi quydagilardan iborat bo‘ladi: dasturiy vositalarni tayyorlash; o‘quv jarayonining (o‘quv jarayoni grafigi, diagnostika, nazorat) guruh, fan miqyosida tashkil etish; ishchi o‘rinlarini tashkil etish, yo‘l-yo‘riqlar berish, tarmoqni boshqarish; talabalar bilan muloqotda bo‘lish, individual o‘qitishni ta’minlash.

Kompyuter texnologiyalari yordamida o‘quv mashg‘ulotlarda animatsiyalarni, videomateriallarni namoyish qilish mumkin.

## **Ishbilarmonlik o‘yinlari texnologiyasi**

Ta’lim jarayonidagi o‘quvchining faolligi, didaktikaning asosiy tamoyillaridagi biri bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib koladi. O‘quvchining faolligi, maqsadli yo‘naltirilgan boshqaruvchi pedagogik ta’sirlar va pedagogik muhitning tashkil etilishi natijasidir. O‘quvchilarning faolligini ta’minlovchi, o‘qitish texnologiyalaridan biri - pedagogik ishbilarmonlik o‘yini hisoblanadi. O‘yin faoliyatiga qiziqish, o‘quvchilarning o‘z-o‘zini ifoda etish, ro‘yobga chiqarish kabi ehtiyojlarini qondiruvchi, musobaqalashish elementlari orqali ta’minlanadi. O‘yining ajoyib xususiyati shundaki, u bir vaqtning o‘zida ham rivojlanish ham o‘rganish hisoblanadi.

Pedagogik o‘yinlar o‘yin uslubiga ko‘ra quydagicha tavsiflanadi: fanlar bo‘yicha; syujetli; ishbilarmonlik, imitatcion, dramalashtirilgan o‘yinlar [22].

## **Modulli o‘qitish texnologiyasi**

“Modulli o‘qitish” termini xalqaro tushuncha - modul bilan bog‘liq bo‘lib («modul», lat. modulus), uning bitta ma’nosи faoliyat ko‘rsata oladigan o‘zaro chambarchas bog‘liq elementlardan iborat bo‘lgan tugunni bildiradi. Bu ma’noda u modulli o‘qitishning asosiy vositasi sifatida, tugallangan axborot bloki sifatida tushuniladi.

Modulli o‘qitish – o‘qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki u odam bosh miyasining o‘zlashtirish tizimga eng yaxshi moslashgandir. Modulli o‘qitish asosan inson bosh miyasi to‘qimalarining modulli tashkil etilganligiga tayanadi.

O‘qitishning modul tizimi haqida rasmiy ravishda birinchi marta, 1972 yil, YUNESKOning Tokiodagi Butunjahon Konferensiyasida so‘z yuritilgan edi. Modulli o‘qitish texnologiyasi funksional tizimlar, fikrlashning neyrofiziologiyasi, pedagogika va psixologiyalarping umumiylari nazariyasidan kelib chiqadi [8,9].

Modulli o‘qitish, kasbiy ta’limning quyidagi zamonaviy masalalarini har tomonlama yechish imkoniyatlarini yaratadi:

- modul - faoliyatlik asosida o‘qitish mazmunini optimallash va tizimlash dasturlarni o‘zgaruvchanligi, moslashuvchanligini ta’minlash;
- o‘qitishni individuallashtirish;
- amaliy faoliyatga o‘rgatish va kuzatiladigan harakatlarni baholash darajasida o‘qitish samaradorligini nazorat qilish;
- kasbiy motivatsiya asosida, o‘qitish jarayonini faollashtirish, mustaqillik va o‘qitish imkoniyatlarini to‘la ro‘yobga chiqarish.

Turli konsepsiyalar doirasida, modulli ta’lim dasturlari, turli xil tarkib va tarkibiy tuzilmalardan iborat bo‘ladi, turli shakldagi hujjatlarda taqdim etiladi, ammo ularning barchasi quyidagi uchta asosiy tarkibiy qismni majburiy ravishda o‘z ichiga oladi: maqsadli mazmuniy dastur; turli ko‘rinishlarga taqdim etilgan axborotlar banki; o‘quvchilar uchun uslubiy ko‘rsatmalar.

### **Modul turlari:**

- 1.Nazariy modullar (nazariy bilimlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan modullar).
- 2.Amaliy modullar (amaliy ko‘nikmalarni va malakalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan modullar).
- 3.Texnologik yoki aralash modullar (nazariy bilim, amaliy kunikma va malakalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan modullar).

Modul dasturlarning maqsadi albatta malakali mutaxassisni yetishtirishga xizmat qiladi. Modul dasturning maqsadini tuzishda ana shu mutaxassisga qanday talabalar tizimi qo‘yilayotgan ekanini aniqlab olishdan boshlanadi. Bugungi kunda Rossiyada mutaxassisga qo‘yiladigan umumiy talabalar tizimi o‘rganilib ularni uch asosiy guruhga ajratilmoqda. Mutaxassisni komponententligini aniqlovchi kriteriyalarni quyidagi kategoriyalarga bo‘lish mumkin:

- instrumental komponentensiyalar;
- komunikativ komponententlik;
- tizimli komponententlik.

Modullarni ishlab chiqishda uchta asosiy komponentga e’tibor qaratish lozim:

1. Modul spetsifikatsiyasi.
2. Modulning nazorat blokini ishlab chiqish.
3. Modulning o‘quv materialini ishlab chiqish.

“Kaliyli o‘g’itlar ishlab chiqarish nazariyasi va texnologik hisoblari” fani o‘quv materialining o‘zlashtirilishiga mashg‘ulotlar paytida modulning amaliy ahamiyati qay darajada ochib ko‘rsatilganligi, modul mazmunini boshqa modullar bilan bog‘liqligi, shu modulni o‘rganishdagi o‘quvchilarning bir xil xatoliklari tahlili muhim ahamiyatga ega. O‘quv materialining o‘zlashtirilishiga mashg‘ulotlar paytida modulning amaliy ahamiyati qay darajada ochib ko‘rsatilganligi, modul mazmunini boshqa modullar bilan bog‘liqligi, shu modulni o‘rganishdagi talabalarning bir xil xatoliklari tahlili muhim ahamiyatga ega.

**Masofaviy o‘qitish.** Ilmiy texnik taraqqiyotning xususiyatlari mustaqil ishslash kunikma va malakalarini shakllantirish va uzlucksiz, ijodiy bilimlarni egallashni talab qiladi. Bunday ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish istiqbolli, zamonaviy o‘quv tizimlariga quyiladigan talablardan biridir. Masofaviy o‘qitish – bu masofadan turib o‘qitish, qaysiki o‘quv mashg‘ulotlarining barchasi yoki ko‘p qismi telekommunikatsion va zamonaviy axborotlashtirish texnologiyalar asosida olib boriladi [23-26].

Masofaviy o‘qitish, ayniqsa:

- o‘qitishning an’anaviy usullaridan foydalanish imkoniyatiga ega bulmagan, bu jarayon imkoniyatlarining chegaralanganligi tufayli o‘qish va ishlashni birgalikda amalga oshira olmaydiganlar uchun;
- turg‘un sharoitda o‘qish imkoniyatlari ega bulmagan, imkoniyatlari tibbiy shart- sharoitlar tufayli chegaralanganlar uchun;
- o‘qituvchilar va boshka soha mutaxassislarining qayta tayyorlash va malakasini oshirishda;
- chet el o‘quv muassasalarida ta’lim olishni istaydiganlar uchun;
- ikkinchi mutaxassislikni egallahshi istaydiganlar uchun juda dolzARB bo‘lishi mumkin.

Istiqbolli zamonaviy o‘qitish tizimlari har bir shaxsning o‘zi istagan ta’lim olish huqiqidan foydalana olish imkoniyatini berishi kerak. Masofaviy o‘qitish aynan shunday o‘qitish shakli bo‘la oladi.

Masofaviy o‘qitish texnologiyasi bo‘yicha barcha topshiriqlar masofadan turib bajariladi, imtihonlar esa oliy o‘quv yurtida topshiriladi. Masofaviy o‘qitish Yaponiya, Turkiya, Xitoy, Hindiston, Iroq, Koreya, Finlyandiya, Avstraliya va Rossiyada rivojlanmoqda.

Masofaviy o‘qitish tizimida, xuddi an’anaviy o‘qitish tizimidagidek, o‘qitishning besh metodi qo‘llaniladi: axborot – retseptiv, reproduktiv, muammoli bayon, evristik va tadqiqot.

O‘qitish vositalari quyidagilardan iborat: kitoblar (qog‘oz va elektron shaklda); tizimdagи o‘quv materiallar; kopyuter o‘quv tizimlari oddiy va multimedia variantda; audio o‘quv axborotlari; video o‘quv axborotlari; masofaviy laboratoriya amaliyotlar va virtual stendlar; trenajyorlar; uzoqdagi bilim bazalari; ekspert o‘quv tizimdagи va geoaxborot tizimdagи didaktik materiallar. O‘qitish vositalari - o‘qitishning texnik vositalari: videomagnitofon, kinoproyektor, diaproyektor, kodoskop, videoproyektor, kompyuterlar orqali amalga oshiriladi.

Masofaviy o‘qitishning o‘ziga xos tamoyillari quyidagilardan iborat:

- interfaoliik tamoyili
- boshlang‘ich bilimlar tamoyili
- individuallik tamoyili
- identifikatsion tamoyil
- o‘qitish reglamenti tamoyili.
- yangi axborot texnologiya vositalarini qo‘llashning pedagogik maqsadliligi tamoyili
- ta’limning oshkoraliq va o‘zgaruvchanligini ta’minalash tamoyili.

Masofaviy o‘qitish tizimida kuyidagi ta’lim texnologiyalarini ishlatish mumkin:

- video-ma’ruzalar; multimedia-ma’ruzalar va laboratoriya amaliyotlari; elektron va multimedia-darsliklari; kompyuter test tizimlar; imitatsiya modellari va kompyuter trenajyorlar; telekommunikatsiya vositalaridan foydalanuvchi konsultatsiya va testlar; videokonferensiyalar.

Ma’lumki, fan va texnika jadal sur’atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda ko‘plab ilmiy bilimlar, tushuncha va tasavvurlar hajmi keskin ortib bormoqda. Bu, bir tomonidan, fan-texnikaning yangi soha va bo‘limlarining taraqqiy etishi tufayli uning differensiallashuvini ta’minalayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomonidan, fanlar orasida integratsiya jarayonini vujudga keltirmoqda. Hozirgi vaqtida ta’lim-tarbiya jarayonida pedagogik innovatsiyalarni keng ko‘lamda qo‘llash jahon taraqqiyotining global tendensiyasi hisoblanadi. Pedagogik innovatsiyalar ko‘laming ortib borishi, mamlakatda modernizatsiya jarayoni tez sur’atlar bilan rivojlanayotganayni davrda ta’lim sohasiga yangiliklarni tizimli ravishda kiritishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bugun masafaviy ta’limning yana bir turi «webinar» (1998 yilda bu termin muloqatga kiritildi) texnologiya vujudga keldi. Vebinar texnologiya o‘qitishni web –texnologiya asosida interaktiv holda tashkil etishni nazarda tutadi. Bu texnologiya nafaqat tinglovchilarga axborotni yetkazadi balki, ular bilan muloqatga kirishish (og‘zaki, yozma) imkonini yaratadi, ya’ni seminar ko‘rinishida fikrlarni almashish, o‘z fikrini bayon etish mumkin. Boshqacha qilib aytganda internet tarmog‘i asosida tashkil etiluvchi ta’lim ham subekt-subekt paradigmasiga o‘tmoxda.

## **2.2. Ma’ruza matni**

### **MA’RUZA – 1**

#### **Kirish. Turmushda va sanoatda polimer kompozitsion materiallarning tutgan o‘rni**

Reja

1. Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlanishida kimyo sanoatining o‘rni.
2. Polimer kompozitsion materiallarning afzalliklari va kamchiliklari.
3. Oldindan xossalari belgilangan polimer kompozitsion materiallar yaratish muammolari.

Xozirgi kunda kimyo sanoatining, xususan polimerlar kimyosining mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishdagi ahamiyati toboro ortib bormoqda. Polimerlar kimyosi sanoatining rivojlanishini muhim vazifalaridan biri sanoatning barcha tarmoqlarida va turmushda zamonaviy kimyo yutuklaridan to‘la foydalanishdir, yangi, mukammalroq va arzon ishlab chiqarish vositalari va halq iste’mol mollari ishlab chiqarishdir. Hozirgi kunda fan va texnikaning rivojini sanoatni deyarli barcha tarmoqlarida keng qo’llaniladigan polimer kompozitsion materiallarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Yuqori molekulali birikmalar asosida olingan polimer kompozitsion materiallarning unikal xossalari sintetik va sun’iy tolalarda, kauchuk va rezinalarda, qoplama va plynokalarda, sun’iy charmada namoyon bo‘ladi.

Sanab o‘tilgan materiallarni faqat yuqori molekulali birikmalar asosida olingan polimer kompozitsion materiallardan tayyorlash mumkin. Polimer kompozitsion materiallarni rangli va qora metallarni o‘rniga qo’llaganda buyumlarni tannarxi va og‘irligi kamayadi. Polimer kompozitsion materiallar avtomobilsozlik, suv, havo va yer transportida, radioelektronika va elektronika sanoatida, qurilishda, qishloq xo‘jaligida, tibbiyotda, oziq-ovqat va yengil sanoatda keng qo’llanilmoqda. Ammo sanoat tarmoqlarining polimer kompozitsion materiallarga bo‘lgan talabi, ularni ishlab chiqarish sur’atlaridan ilgarilab ketmoqda.

Iqtisodiyotni ximiyalashtirishning dolzarb muammolaridan biri tabiiy va sintetik yuqori molekulali birikmalarni ishlab chiqarishni rivojlantirish va ular asosida polimer kompozitsion materiallar yaratish masalasidir.

Oxirgi yillarda sintetik polimerlarni ishlab chiqarishni va ular asosida polimer kompozitsion materiallar yaratishning tezkorlik bilan rivojlanishi bir qancha sabablarga bog‘lik.

1. Polimer kompozitsion materiallar yaratishda tabiiy materiallarni qayta ishslashga nisbatan mehnat sarfini kamayishi va mahsulot tannarxini kamayishi. Sintetik polimerlarni qurilish materiallari ishlab chiqarishda qo’llash katta iqtisodiy samaradorlik beradi. Masalan, yog‘och-qipik plitalar yuqori sifatli materiallar sifatida maishiy va sanoat kurilishida, mebel ishlab chiqarishda keng qo’llaniladi. Bu plitalar yog‘och chiqindilarini fenol-formaldegid yoki mochevino-formaldegid qatronlari bilan yelimlab olinadi. 1 t qatrondan 16,7 m<sup>3</sup> plita olish mumkin.

Polimer kompozitsion materiallarni konstruksion materialida mashinasozlikda qo’llash yuqori samara beradi. Yengil avtomobillar ishlab chiqarishda 300 ta yirik, 900 o‘rtacha va 2000 mayda ehtiyoj qismlar polimer kompozitsion materiallardan yasaladi. Agar polimer kompozitsion materiallardan murakkab qismlar tayyorlansa, po‘latdan tayyorlashga nisbatan 2-3 marta kam vaqt, oddiyroq ehtiyoj qismlarga 8-10 marta kam vaqt talab qilinadi.

2. Polimer kompozitsion materiallar bilan kamyob va qimmat tabiiy materiallarni to‘laqonli almashtirish imkonini va ularni o‘zini kamyob xossalari konstruksion materiallar sifatida ishlatalish imkoniyati.

3. Xossalari oldindan belgilangan va rostlangan sintetik materiallarni yaratish imkoniyati.

Avtomobil transportini, aviatsiyani, elektrotexnikani, mashinasozlikni, radiotexnikani va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini rivojlanishi doimo yangi materiallarga ehtiyoj tug‘diradi. Bu materiallarning xossalari alohida talablarga javob berishi kerak. Ehtiyoj paydo bo‘lganligi sababli yangi, oldindan belgilangan xossalari polimer kompozitsion materiallar yaratilib, keng tadbiq etilmoqda. Bularga misol qilib yuqori mustahkamli yengil sintetik materiallar, yengil va o‘rtacha yengil polimer materiallar, antikorrozion materiallar, yuqori dielektrik ko‘rsatkichlarga ega, issiqbardosh radio va elektr materiallar, yengil va mustahkam organik shishalar, maxsus maqsadli sintetik kauchuklarni keltirish mumkin.

4. Polimer kompozitsion materiallarni ishlab chiqarishda bitmas tunganmas xom-ashyoni, yangi, arzon va taqchil bo‘lmagan turlarini qo‘llash imkon, birinchi navbatda neft va tabiiy gazlarni, koksokimyoviy ishlab chiqarish mahsulotlari, o‘rmon va o‘rmonga ishlov berish sanoati va qishloq ho‘jalik ishlab chiqarish chiqindilarini qo‘llanilishi imkon. Yangi turdag'i xom-ashyoda polimer materiallarni ishlab chiqarishni rivojlanishi kimyo sanoati uchun va xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish uchun dastlabki mahsulotlarning qo‘sishma resurslarini yaratish imkonini beradi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlarning zamonaviy rivojlanish darajasida sintetik materiallar kelajakdagi texnik progressning, ishlab chiqarish unumdorligini keskin oshirishning muhim omilidir. Masalan, kauchuk asosida tayyorlanadigan rezina buyumlarisiz sanoatning birorta tarmog‘i normal ishlay olmaydi. Polimer kompozitsion materiallarsiz zamonaviy avtomobilni yaratishni tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Polimer kompozitsion materiallar aviasozlikda va raketasozlikda juda muhim o‘rin tutadi. Bu tarmoqlarni rivojlanishini umuman yangi progressiv materiallarsiz, bu materiallarni aksariyat qismi polimer kompozitsion materiallarsiz, tasavvur qilib bo‘lmaydi.

#### Tayanch so‘z va iboralar

Kimyo sanoati, polimer kompozitsion materiallarni ishlab chiqarish, polimerlar ishlab chiqarish sur’atlari, tabiiy materiallarni ishlab chiqarishda va qayta ishlashda mehnat sarfining iqtisodi, sintetik polimer materiallar almashtiruvchi, sintetik polimer materiallar, polimer kompozitsion materiallar, konstruksiey materiallar xossalari, oldindan xossalari belgilangan va rostlangan polimer kompozitsion materiallar, yuqori mustahkamlik, yengil polimer kompozitsion materiallar, korroziyaga turg‘unlik, yuqori dielektriklik xossalari, maqsadli polimer kompozitsion materiallar.

#### Qaytarish uchun savollar

1. Mamlakatimiz iqtisodiyotida kimyo sanoatining o‘rnini bayon qiling.
2. Polimer kompozitsion materiallar ishlab chiqarishni va ular asosida buyum olishni tezkorlik bilan rivojlanishni iqtisodiy omillarini aytib bering.
3. An‘anaviy materiallarning polimer kompozitsion materiallar bilan almashtirish imkoniyatlarini bayon qiling.
4. Xossalari oldindan belgilangan polimer kompozitsion materiallarni yaratish imkoniyatlari qanday?

#### Foydalilanigan adabiyotlar

1. Lipatov Yu.S. Kompozitsionnye polimernye materialy. Kiev, "Naukova dumka", 1976, 192s.
2. Lipatov Yu.S. Fizicheskaya ximiya napolnennix polimerov. M, "Ximiya" 1977g. 305s.
3. Lipatov Yu.S. Budushee polimernix kompozitsiy. Kiev. "Naukova dumka", 1984g. 135s.
4. Lipatov Yu.S. Mejfaznye yavleniya v polimerax. Kiev, "Naukova dumka", 1980g. 260s.

### **MA’RUZA – 2**

#### ***Polimer kompozitsion materiallarni tuzilishi va tarkibi.***

Reja

1. PKMlар haqida tushuncha, ularni sanoatda va texnikada tutgan o‘rnini.
2. Polimer kompozitsion materiallarni afzallikkari va kamchiliklari.
3. Polimer kompozitsion materiallar tasnifi.

Hozirgi kunda sanoatning turli tarmoqlari, qishlok ho‘jaligi, meditsinani rivojlantirishni plastmassalarsiz tasavvur qilish qiyin, Plastmassalarni bunday keng ko‘lamda ishlatilishi, ularni o‘ziga xos xossalari, qayta ishslashning samarali uslublari va katta xom ashyo resurslari mavjudligi tufayli mumkin bo‘ladi. Plastmassalar nafaqat an‘anaviy materiallarni o‘rnini bosibgina qolmay, balki konstruksion kimyoviy barqaror, tovushdan, issiqlikdan himoya qiluvchi materiallar sifatida ham katta ahamiyatga ega.

Plastmassalar, asosini sintetik yoki tabiiy yuqori molekulali birikmalar tashkil qiluvchi kompozitsion materiallardir. Ayrim plastmassalar asosan polimerlardan va qisman qo'shimcha moddalardan barqarorlovchilar, buyovchi moddalar, moylovchi moddalardan tashkil topgan (PE, PS, PP va x.k.). Boshqa tur plastmassalar yuqori molekulyar birikmalardan tashqari to'ldiruvchi, plastifikatorlardan tashkil topgan (fenoplastlar, aminoplastlar).

Shunday qilib, polimerlar sof holda juda kam qo'llaniladi, ular asosan polimer kompozitsion materiallar sifatida ishlataladi.

Demak, YUMBlar tarkibiga turli qo'shimcha moddalar qo'shish yordamida oldindan bizga kerakli bo'lgan texnologik va ekspluatatsion xususiyatlarga ega bo'lgan polimer materiallar, plastmassa, rezina, lok-buyok, sintetik yelim kabilar olish mumkin. Bularning hammasi bitta umumiy nom bilan polimer kompozitsion materiallar deb yuritiladi.

PKM afzalliklari va kamchiliklari. PKM ko'p xossalari bo'yicha boshqa konstruksion materiallardan ustun turadilar (yog'och, metall va h.k.). Ularga quyidagilar kiradi:

1. Fizik-mexanik xossalari. PKM turlicha fizik-mexanik xossalarni namoyon qiluvchi materiallardir. Ular chinni va yog'ochni eslatuvchi bikr (qattiq) materiallardan to rezinasifat, qayishqoq, elastik materialargacha bo'lgan xossalarni namoyon qiladilar. Ular alyuminiyidan 2 marta, po'lat, mis, qo'rg'oshin, bronzadan 5-7 marta yengildirlar.

Ko'pgina PKM mustahkamlilik xossalari metallarnikidan past, ammo ularni shartli mustahkamlilik ko'rsatkichi (shartli mustaxkamlilik ko'rsatkichi, ya'ni mustahkamlilikni zichlikka nisbati) eng yuqori markali po'latnikidan ham yuqori. (jadval №1):

Jadval. An'anaviy materiallar va polimer kompozitsion materialarni mustaxkamlilik ko'rsatkichlari

Kompozitsion materiallar	R, Kg/sm	T, MPa	Shattli mustahkamlilik
Yuqori sifatli po'latlar	7800	1280	160
Shishaplastiklar	1800	300 - 700	170-400
Yog'och qatlam plastiklar	1400	350	250

2. Korroziyaga chidamlilik. Asosiy turdag'i kompozitsion materiallar, metallardan farqli PKM atmosfera korroziyasiga, turli kislotalar, ishqorlar, eritmalar ta'siriga chidamlidir.

3. Friksion xususiyatlari va eskirishga mustahkamlilik (emirilishiga chidamlilik). Ko'pgina PKM kichik ishqalanish koeffitsienti va yemirilishga mustahkamligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun tekstolit, yog'och qatlam plastiklar va kapron kabi PKMlar podshipniklar sifatida va ishqalanishga chidamlilik talab qilinadigan tarmoqlarda ishlataladi. Polivinilxloriddan tyyorlangan linoleum tashqi ta'sirga juda yaxshi qarshilik ko'rsatadi. Ba'zi PKM katta ishqalanish koeffitsientiga ega bo'lganligi uchun tormoz qurilmalarida ishlataladi. Kapronni yemirilishga chidamliligi bronza va babbittdan moylanganda 10-20 marta, quruq holda 100-160 martaga katta.

4. Dielektrik xususiyatlari., Ko'pgina PKM yaxshi dielektriklar hisoblanib, ular zamonaviy texnikada yaxshi dielektriklar sifatida ishlatalib kelinayotgani ma'lum. PKMlar radioaloqa, televidenie, yuqori chastotali tok generatorlari kabi yuqori chastotali qurilmalarda noyob materiallar hisoblanadi.

5. Optik xususiyatlari. Ba'zi PKMlarni (PMMA, PS, PK) organik shisha deb yuritsa ham bo'ladi. Ular rangsiz, shaffof (tiniq) bo'lib, keng diapazonli to'lqinlar, jumladan UB nurlarini yaxshi utkazish xususiyatiga ega bo'lib, bu borada silikat shishalardan ustun turadi. Bunday PKMlar optika sanoati, mashinasozlik kabi shaffof detallar ishlatalishi talab qilinadigan tarmoqlarda ishlataladi.

6. PKMdan mahsulot olishning osonligi. PKMlarning eng asosiy afzalliklaridan biri ulardan turli usullar - presslash, ekstruziya, kalandrlash kabilar yordamida mahsulotlar olish mumkinligi.

PKMlardan juda qiyin detallar tayyorlashga sarflangan mehnat boshqa materialarni qayta ishlashga

sarflangan mehnatdan anchagina kam. PKMlarni qayta ishlashda materiallardan foydalanish koeffitsienti 0,95-0,98 bo‘lsa, metallarni qayta ishlashda 0,2-0,6, quyishda bo‘lsa 0,6-0,8 ga teng.

Lekin shu bilan bir qatorda PKM ham kamchiliklardan xoli emas. Issiqqa bardoshliligin pastligi. Eng ko‘p ishlatiladigan PKMlar faqat ma’lum harorat oralig‘ida qoniqarli ishlashi mumkin.

Termoplastlar 60-80°C, reaktoplastlar 120°Cgacha. Kremneorganik polimerlar va ftoroplastlar bir muncha yukqori 200°C va yuqori haroratda qoniqarli ishlaydi.

Issiqlik o‘tkazuvchanligini pastligi. PKMlarni issiqlik o‘tkazuvchanligi metallarga qaraganda 500-600 marta past bo‘lganligi uchun, ularni tez issiqlik o‘tkazish kerak bo‘lgan mashina detallari sifatida, ba’zi tarmoqlarda ishlatishga qiyinchalik tug‘diradi. PKMlarni issiqlik o‘tkazuvchanligini oshirish uchun ularga issiqlikni yaxshi o‘tkazuvchi to‘ldiruvchilar (grafit, metall kukunlari) qo‘shiladi. Oquvchanlik. PKM oquvchanligi metallarnikiga qaraganda bir muncha kattaligi detallarni konstruksiyalashda qiyinchilik tug‘diradi. Emirilish. (eskirish-starenie) PKMlar issiqlik, nam, tashqi yuk ta’sirida atmosferada o‘zoq muddatda bo‘lganda o‘zini fizik-mexanik xususiyatlarini yuqotadi.

#### Polimer kompozitsion materiallarni tasniflash.

Hozirgi kungacha "Polimerlar ensiklopediyasi"da ham, "Qiska kimyo ensiklopediyasi"da ham, Britaniya standartlar lug‘atida ham qanday materiallar polimer kompozitsion materiallar deb ataladi degan tushuncha kiritilmagan.

Shuningdek, PKMlarni yagona xalqaro tasnifi yaratilmagan, PKMlarga asosan:

1. Dispers yoki tolasimon mineral va organik to‘ldiruvchilar (mel, talk, ko‘mir, aerosil (SiO) dispers metallar, bo‘laklangan shisha tolalar, sintetik tolalar) bilan to‘ldirilgan polimerlar;
2. Armirlangan polimerlar, ya’ni organik yoki noorganik tolalar bilan to‘ldirilgan polimerlar;
3. Bir-birida erimaydigan polimer aralashmalari kiradi. (bu gruppaga 2ta chiziqsimon polimerlar aralashmasi yoki 2 xil to‘rsimon polimerlar aralashmasi (bir-biriga to‘rlar o‘tuvchi polimerlar aralashmasi, chiziqsimon va to‘rsimon polimerlar aralashmasi kiradi).

PKM asosini tashkil qilgan polimerni kimyoviy tabiatiga qarab 4 sinfga bo‘linadi.

1. A-sinfi. Zanjirli polimerlanish asosida olinadigan YUMBlar asosida olingan PKM. Ularga PEYUB, PEPB, PP, viniplastlar, poliizobutilen, ftoroplastlar, PS va uning sopolimerlari, akriloplastlar va boshqalar.

2. B-sinfi. Bosqichli polimerlanish va polikondensatsiya usuli yordamida olingan YUMBlar asosida olingan PKMlar. Bularga fenolaldegid asosida olingan plastmassalar, aminoplastlar, efiroplastlar, poliamidlar, uretanoplastlar, kremniyorganik smolalar asosida olingan kompozitsiyalar, epoksid smolalari asosida olingan kompozitsiyalar va boshqalar.

V-sinfi. Tabiiy polimerlar kimyoviy modifikatsiyalash asosida olingan PKMlar. Ularga selluloza hosilalari asosida olingan PKMlar kiradi (selluloid, turli markadagi etrollar, gallit kiradi).

G-sinfi. Tabiiy va neftdan olingan asfalt asosida va smola asosida olingan PKM (turli to‘ldiruvchi bitumoplastlar).

PKM tasnifini texnik sxemasini amerikalik ximik L. Sperling taklif qilgan (rasm 1). Bu sxemaning o‘ng tomonida turli to‘ldiruvchilar qo‘sish natijasida kuchaytirilgan polimerlar, chap tomonidan esa to‘ldirilgan g‘ovakli sistemalar keltirilgan. Chap tomonda keltirilgan makroskopik kompozitsiyalar polimerga to‘ldiruvchi qanday kiritilganiga qarab, turli xususiyatlarga ega bo‘lgan g‘ovakli sistemalar bo‘lib, ularga lok-buyoq qoplamlari, penoplastlar va polimerlar shimdirlilgan keramika, yog‘och va betonlar kiradi. Shuningdek polimer kompozitsion materiallar qanday to‘ldiruvchilar bilan to‘ldirilganligiga qarab 4 xil turga bo‘linadi:

Dispersiyalar: asos-polimerlar mineral yoki metall kukunlari bilan, qisqa tolalar bilan, polimerlar bilan to‘ldirilgan bo‘ladi;

Emulsiyalar: asos-polimer suv, yog‘ yoki boshqa diskret faza hosil qiluvchi suyuqliklar bilan to‘ldirilgan bo‘ladi.

Ko‘piklar - ko‘pikplastlar, g‘ovakplastlar, ochiq va yopiq g‘ovakli rezinalar, ko‘pikrezinalar.

Armirlangan sistemalar-orientirlangan uzun yoki qisqa tolalar bilan to‘ldirilgan polimerlar.

Demak, PKMlar asosini polimer tashkil qilgan, ikki va undan ortiq komponentli geterofazali sistema bo‘lib, bu sistemani tashkil qilgan komponentlar fazalararo chegarada bir-biri bilan ta’sirda bo‘ladi. Fazalararo chegaradagi ta’sir PKMlar xossalarni shakllanishida asosiy o‘rin tutadi.

Shunday qilib, PKMlar olinish tamoili polimer asos va to‘ldiruvchi orasidagi fazalararo chegarada ketayotgan hodisalarni o‘rganish natijasida turli texnologik usullar yordamida oldindan belgilangan kompozitsiyani yaratishga asoslangan. Agar biz fazalar orasida ketayotgan hodisalarni boshqara olsak, o‘zimizga kerak xossalarga ega bo‘lgan turli xil kompozitsion materiallarni yaratishimiz mumkin.

Ma’lumki sanoatni muhim tarmoqlarini polimerlar asosida olingen kompozitsion materiallarsiz tasavvur qilish qiyin. Bu tarmoqlar taraqqiyoti yangi PKMlar yaratish bilan bevosita bog‘liq. Tabiiyki, bu sohalar rivojlanib borar ekan, yangi kompleks xususiyatlarga ega bo‘lgan PKMlarga ehtiyoj sezilaveradi.

Buning uchun har doim yangi kompleks xossalarga ega bo‘lgan yangi polimer sintez qilib, uni ishlab chiqarishni yo‘lga quyish mumkin emas. Shuning uchun hozirgi kungacha bizga ma’lum bo‘lgan polimerlarni modifikatsiya qilish, ularga turli to‘ldiruvchilar qo‘sish hisobiga yangi polimer kompozitsion material yaratiladi. Hozirgi kunda PKMlar yaratilishini 3 yunalishi mavjud:

1. Yangi fizik-mexanik xususiyatlari ega bo‘lgan polimer kompozitsion materiallar yaratish;
2. Xom ashyo ba’zasi yoki PKMlar assortimentini kengaytirish uchun PKMlar yaratish;
3. Sanoat va turmushda chiqqan plastmassa chiqindilarini qayta ishlatish uchun PKM yaratish.

Biz bu fanni o‘rganishda yangi fizik-mexanik xususiyatlarga ega bo‘lgan polimer kompozitsion materiallar yaratish haqida to‘xtalib o‘tmochimiz.

Biror bir polimer asosida turli xil to‘ldiruvchilar yordamida olingen har xil kompozitsiyalarni xossalari ikkinchi faza to‘ldiruvchining kimyoviy tabiatiga, uning zarrachalarini katta-kichikligiga, shakliga va tolalar orientatsiyasiga bog‘lik. Ayni vaqtida turli xil polimer kompozitsiyalarni xususiyatlari birinchi o‘rinda polimer matritsaga bog‘lik. Polimer asos-matritsa qanday to‘ldiruvchi bilan to‘ldirilishidan qatiy nazar, polimer va to‘ldiruvchi bo‘linish chegaralarida fazalar orasida turli xil fizik va kimyoviy jarayonlar sodir bo‘lib, bu jarayonlar komponentlarni yozaro ta’sirlashuviga olib keladi. Ana shu fazalar orasidagi o‘zaro ta’sir, olinayotgan mahsulotlarni asosiy xossalarni belgilaydi. Agar biz ana shu jarayonlarni mohiyatini tushunib, bu jarayonlarni boshqara olsak, oldindan xususiyatlari ma’lum bo‘lgan turli xil polimer kompozitsion materiallar yarata olishimiz mumkin.

Demak, bu fanning oldiga qo‘ygan vazifasi yangi zamonaviy talabalarga javob bera oladigan polimer kompozitsion materiallar yaratish uchun fazalar orasida ketadigan fizik, kimyoviy-mexanik jarayonlarni, polimerlar sirtida boradigan adsorbsiya va adgeziya nazariyalari, polimerlarni fazalar chegarasida qatlamlar hosil qilish va bir-biriga o‘tish nazariyasi va polimerlarni to‘ldiruvchilar yordamida kuchaytirish nazariyalarini o‘rganishdan iborat.

Tayanch so‘zlar va iboralar.

PKMlar, fizik-mexanik xususiyatlari, korroziyaga chidamliligi, dielektrik xususiyatlari, issiqbardoshliligi, issiqlik o‘tkazuvchanligi, oquvchanlik, yemirilish, to‘ldiruvchilar, dispers to‘ldiruvchi, armirlangan to‘ldiruvchilar, polimerlar, dispersiyalar, emulsiyalar, ko‘piklar, armirlangan sistemalar.

Qaytarish uchun savollar.

1. PKMlarga ta’rif bering?
2. PKMlarni sanoatda, texnikada tutgan o‘rnini bayon qiling.
3. PKMlarni an’anaviy birikmalardan qanday afzallikkleri bor?
4. PKMlarni xossalari bo‘yicha qanday kamchiliklarga ega?
5. Qanday materiallar PKMga kiradi?
6. PKMlarni klassifikatsiyalab bering.
7. Sperling klassifikatsiyasi haqida gapirib bering?
8. YUMBLar PKMlar asosini tashkil qilishi haqida.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lipatov Yu.S. Kompozitsionnye polimernye materialy. Kiev, "Naukova dumka", 1976, 192s.
2. Lipatov Yu.S. Fizicheskaya ximiya napolnennnykh polimerov. M, "Ximiya" 1977g. 305s.
3. Lipatov Yu.S. Budushee polimernykh kompozitsiy. Kiev. "Naukova dumka", 1984g. 135s.
4. Lipatov Yu.S. Mejfaznye yavleniya v polimerax. Kiev, "Naukova dumka", 1980g. 260s.

### MA'RUZA- 3

#### ***PKM lar tarkibiga kiruvchi ingradientlar. Ularni PKMlar xossalariga ta'siri. Bog'lovchilar yaratish muammolari.***

Reja

1. PKMlar asosini tashkil qiluvchi yuqori molekulalni birikmalar, ularni turlari.
2. Bog'lovchilar (polimerlar) yaratish muammolari.
3. To'ldiruvchilar turlari. PKMlar xossalariga to'ldiruvchi tuzilishi, miqdori, o'lchamining bog'liqligi.
4. PKMlarni tashkil qiluvchi ingradientlar.

PKMlar asosini YUMBlar hosil qiladi. Yuqorida aytib o'tganimizdek ayni bir polimer asosida olingan PKMlarni xususiyatlari birinchi navbatda shu polimerlarni tuzilishi va xossalariga bog'liq. Polimerlarni har xil turlariga turli qo'shimchalar qo'shish bilan tola, qoplamalar, rezina mahsulotlari yelim, lok-buyoq materiallari, plastmassalar olish mumkin. Shuning uchun polimerlarni xususiyatlarini o'rghanishdan avval ularni turlari haqida to'xtalib o'tmoqchimiz. Chunki polimerlarni fizik xossalari (mustahkamlik, issiq va kimyoviy bardoshlik, gaz o'tkazuvchanlik, elektr o'tkazuvchanlik, kattiqlik, egiluvchanlik va h.k.), makromolekula elementar xalqasining kimyoviy tarkibi, molekulalararo ta'sir kuchlari va makromolekulalar katta-kichikligiga bog'liq.

Polimerlar tabiatda uchrashi, kelib chiqishi va olinishiga qarab:

- tabiiy (tabiatda uchraydigan, o'simlik va hayvonot dunyosini asosini tashkil qiluvchi polimerlar);
- sun'iy (tabiiyni modifikatsiyalanib olinadigan polimerlar);
- sintetik (bevosita sintez qilib olinadigan) polimerlarga bo'linadi.

Sintetik polimerlar kimyoviy yul bilan hosil qilinadi. Polimerlar molekulyar massasini shakli jihatidan chiziqsimon, tarmoqlangan va to'rsimon polimerlarga bo'linadi. Chiziqsimon polimerlar makromolekulasi uzunligi juda katta bo'lib, eni bo'yiga nisbatan juda kichik bo'ladi. Ular bir qancha kovalent bog'lar bilan bog'langan elementlar halqalar yig'indisidan tashkil topgan (PE, PP va x.k.)

M - elementar halqa.

Tarmoqlangan polimerlar makromolekulasi albatta yon zanjiriga ega bo'ladi:

To'rsimon polimerlar bir-biri bilan ko'ndalang kimyoviy bog'lar orqali birikkan makromolekulyar zanjirlardan tuzilgan bo'ladi. V – choklovchi agent.

Hosil bo'lgan ko'ndalang bog'lar eruvchanlikni yo'qolishiga olib keladi. To'rsimon polimerlar erimaydi (vulkanlangan kauchuk).

Qizdirish ta'sirida o'zini tutishiga qarab polimerlar termoreaktiv va termoplastlar kabi sinflarga bo'linadi.

Polimerlarning asosiy fizik xossalari (mustahkamlik, issiq va kimyoviy bardoshlilik, gaz o'tkazuvchanlik, kattalik, egiluvchanlik va x.k.) makromolekulalarning elementar halqasining kimyoviy tarkibi, molekulalararo ta'sir kuchlari va makrolekula shakli va katta-kichikligiga bog'liq.

Polimerlarni xususiyatlarini yana ularni qutblanganligi ham belgilaydi. Qutbsiz polimerlar yuqori darajada egiluvchanlikka ega, sovuqqa bardoshli bo'ladi, chunki ularda makromolekula egiluvchan bo'ladi. Agar qutbsiz polimerlarga uglevodorod yon zanjirlar kiritilsa, ularni sovuqqa bardoshliligi va egiluvchanligi yanada oshadi, bunda qattiqligi va mo'rtligi kamayadi. Masalan, (poliizobutilen,

izobutilen). Qutbli polimerlar yuqori mustahkamlikka ega, ularni issiqbardoshliligi, dielektriklik ko'rsatkichlari va sovuqqa chidamliligi past. YUMBarning fizik-mexanik xususiyatlariga molekulyar massa, molekulyar massaviy taqsimlanish, polidisperslik kabilar ham ta'sir ko'rsatadi. Molekulyar massaning ortishi YUMB mustahkamlik ko'rsatkichlarini, issiqbardoshlilikni oshiradi. Makromolekulalar joylashish harakteri ham polimerlar strukturasiga ta'sir ko'rsatadi. Krisstallanish darajasini oshirish bilan mustahkamlik, zichlik, qattiqlik oshib, elastiklik kamayadi.

Polimerlar yaratish muammolari.

Ma'lumki, PKMda polimer-matriitsa ya'ni asos vazifasini bajarib, qolgan komponent alohidaligini saqlaydi, ular o'z hajmiga ega, ya'ni alohida fazada turadi.

Polimer tanlashda yaxshi namlanadigan, ma'lum darajada qovushqoqlikka ega bo'lgan, qayta ishslash jarayonida, ya'ni mahsulot olishda issiqqa bardoshli, to'ldiruvchi bilan yaxshi aralasha oladigan bo'lishiga ahamiyat berishimiz kerak. Polimerni tanlashimizda, umumiylar kimyo va polimerlar fizik-kimyosi muammolaridan kelib chiqqan holda; kinetika va termodinamika bilan bog'liq masalalar, to'rsimon polimerlarda polimer bog'lovchini qotirish jarayonini mexanizmlarini, krisstallanish kinetikasini yoki struktura shakllanishidagi termodinamika masalalarini o'rganishimiz kerak bo'ladi. Bu muammolar biz ishlatilayotgan bog'lovchi turiga qarab bir-biridan farq qiladi. Bog'lovchilar yuqorida atyib o'tganimizdek chiziqsimon, tarmoqlangan yoki to'rsimon tuzilishga ega bo'ladi.

CHiziqsimon polimerlar kristall yoki amorf strukturaga ega bo'lib, ular asosan dispers to'ldiruvchilar bilan to'ldiriladi. Hozirgi kunda sanoatda ko'plab ishlatilayotgan termoplastlar - polimer uchun xom-ashyoning arzonligi va ko'pligi uchun ulardan PKMlar yaratish ravnqli. Polivinilxlorid, polistirol va ularning xossalari, polikarbonatlar, ko'pgina amorf polimerlar, kristall polimerlardan poliolefinlar, ayniqsa ko'p miqdorda ishlab chiqariladigan polietilenden turli to'ldiruvchilar bilan har xil kombinatsiyalarda tayyorlanib, juda keng miqyosda ishlatilib kelyapti. To'rsimon polimerlar hozirgi kunda turli xil maqsadlarda ayniqsa turli qurilmalarda ishlatiladigan PKMlar tayyorlashda keng ishlatiladi. To'rsimon polimerlar yaratilishiga oligomerlar kimyosini rivojlanishi, oligomerlar sintezi katta hissa qo'shdi. Oligomerlar to'rsimon polimer sintezi uchun ishlatiladigan xossalari jihatidan quyi molekulyar birikmalar bilan YUMB orasidagi birikmalar bo'lib, ular kimyoviy reaksiya natijasida to'rsimon polimerlar (uch o'lchovli turlar) hosil qila olish xususiyatlariga ega. Oligomerni qovushqoqligi kichik bo'lganligi uchun, texnologik tomonidan ularni to'ldiruvchilar bilan aralashtirish jarayonlari qulay.

Oligomerlarni yana bir texnologik tomonidan afzalligi shundaki, ularni ishlatilganda qotirish jarayoni bilan mahsulot tayyorlash jarayonlarini birlashtirishda olib borib, texnologik tomonidan mahsulot shakllanishida, ayniqsa yirik gabaritli mahsulot tayyorlashda ancha qulaylik tug'diradi. Turlarni shakllanish jarayoni gel hosil bo'lish jarayoni orqali boradi. To'rlanish (choklanish) jarayoni polimerlarni bir agregat holatidan (suyuq) ikkinchi agregat holatiga (qattiq) o'tishiga asoslangan. Bu jarayon molekulalararo ta'sirni kuchaytirish va molekulalar ustqurtma strukturasini shakllanishi orqali boradi.

Shuning uchun bog'lovchilar xususiyatlarini belgilovchi fizik-kimyoviy muammolarni bilish, ularni analiz qilish bog'lovchilar yaratishda optimal hususiyatlarga ega bo'lgan PKMlar olish uchun juda muhim.

To'ldiruvchilar turlari. PKM yaratishda to'ldiruvchi tuzilishi, miqdori, o'lchamini PKM xossalariiga ta'siri. PKMlarni fizik-mexanik xossalari yaxshilash uchun (ya'ni kuchaytirish uchun) ularga polimer bog'lovchi turiga qarab dispers yoki armirlangan to'ldiruvchilar qo'shiladi. Armirlangan to'ldiruvchilar bilan to'ldirilgan PKMlarni fizik-mexanik xossalari asosan to'ldiruvchining fizik-mexanik xossalariyuqori bo'lishiga asoslangan. Armirlangan to'ldiruvchilarga asosan shisha tolalar, organik tolalar, uglerodli tolalar, borli iplar kiradi. Shuningdek PKM lar xossalari mayda zarrachali to'ldiruvchilar (kvarts, kokenlari, mayda zarrachali minerallar (mel, talk, kaolin, slyuda), maydalangan shisha tola, aerosillar qo'shib ham kuchaytirish mumkin. PKMlar fizik-mexanik xossalari yaxshilash uchun qo'shiladigan to'ldiruvchilar aktiv to'ldiruvchilar deyiladi. Ba'zi to'ldiruvchilar PKMlarda polimer materialni qisman almashtirib, uni narxini arzonlashtiradi. Bunday to'ldiruvchilar noaktiv (inert) to'ldiruvchilar deyiladi.

Dispers to'ldiruvchilar bilan to'ldirilgan PKMlar fazoviy strukturasini PKMlar tarkibida to'ldiruvchilarning miqdori, to'ldiruvchi zarrachalarini katta kichikligi va formasi va fazalararo ta'sir belgilaydi.

PKMlar tarkibida to‘ldiruvchi miqdorini ortib borishi bilan kompozitsiyaning xossalari ham ma’lum qonuniyat asosida o‘zgarib boradi. Polimer kompozitsiya tarkibida to‘ldiruvchi miqdorini o‘zgarib borishi uning qayishqoqlik moduliga (modul uprugosti), qovushqoqligiga, hamda mustahkamligiga ta’sir ko‘rsatadi.

Dispers to‘ldiruvchi zarrachalari turli katta-kichiklikda bo‘lib, ular ham PKMlar xossalariga ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, yuqori dispers to‘ldiruvchi aerosil - SiO zarrachalari 0,01 mkm kattalikda bo‘lsa, organik mikrosferalar 20-130 mkm kattalikda bo‘lishi mumkin.

Zarrachalar qanchalik kichik bo‘lsa, ular bir-biri orasidagi masofa shuncha yaqin bo‘lib aglomeratlar (mayda bo‘lakchalarni yiriklashishi) hosil bo‘lishi shunchalik oson bo‘ladi.

Zarrachalar yiriklashgan sari PKMlar tarkibidagi to‘ldiruvchi orasidagi masofa yaqinlashib borib, adsorbsiyalanish yaxshi bo‘ladi.

Lekin shu bilan birga polimer aralashmada zarrachalar juda mayda bo‘lsa, aralashma quyilib qolishi ham mumkin. Bunda polimer eritma qovushqoqligi ortib, uni kayta ishlash kiyinlashadi. Ayrim PKMlar uchun to‘ldiruvchi zarrachalarini yiriklashishi bilan PKMlar mustahkamligi kamayib boradi, ayrimlarida esa zarrachalar yirik bo‘lsa, PKMlar mustahkamligi ortadi. Birinchi navbatda dispers to‘ldiruvchi va bog‘lovchi komponentlarining bir-biriga termodinamik mosligi va bir-biriga almashina olishini ortib borishi mustahkamlik ortishga olib keladi.

PKMlar qisqa va uzlusiz uzun tolalar bilan ham to‘ldirilishi mumkin. Agar bitta bog‘lovchi-polimer asosida olingan PKM bir xil miqdorda dispers hamda tolasimon to‘ldiruvchi bilan to‘ldirilgan bo‘lsa, bu ikkita PKMlardan tolasimon to‘ldiruvchi bilan to‘ldirilgan PKMni mustahkamligi ikkinchisinikiga qaraganda katta bo‘ladi.

CHunki, tolasimon to‘ldiruvchi solishtirma yuzasi katta bo‘lganligi uchun fazalararo qatlam hosil bo‘lishi tez boradi.

Ba’zi holatda agar qisqa tolalar orientirlangan bo‘lsa, tolaning faqat orientirlangan bir qismigina tashqi ta’siriga qarshilik ko‘rsata oladi, qolgan orientirlanmagan qismi PKMlar strukturasida defektlar hosil bo‘lishiga sabab bo‘ladi, mustahkamlik pasayadi. Shuning uchun hozirgi kunda tolalarni orientirlash, ularni tartibsiz joylanishini ta’minalash uchun to‘ldiruvchi tarkibiga turli xil appretlar qo‘shiladi. Lekin qisqa tolalar bilan to‘ldirilgan PKMda ko‘p martalab deformatsiyaga qarshilik katta bo‘ladi.

Demak, PKM yaratishda to‘ldiruvchining miqdori, uning bo‘laklarini katta kichikligi va shakli, armirlangan to‘ldiruvchining tolalari uzun qisqaligi va eng asosiysi fazalararo ta’sir katta o‘rin tutadi.

### PKMlarni tashkil qiluvchi ingradientlar.

Qotiruvchi qo‘shimchalar. Chiziqsimon makromolekulalarni qayta ishlash jarayonida uch o‘lchovli molekulalarga o‘tkazish uchun choklovchi agentlar, ya’ni qotiruvchi qo‘shimchalar qo‘shiladi. Ta’sir qilish harakteriga qarab qotiruvchilar-qotirishni tezlatuvchi initsiatorlar va polimer makromolekulasini choklovchi qo‘shimchalardan tashkil topgan.

Initsiatorlar va jadalashtiruvchilar. Stirol va polimerlanuvchi monomer tutgan poliefirakrilat va poliefirmaleinat oligomerlarini qotirish uchun ishlatiladi. Qotiruvchilarga kislota angidridlari, aminlar, formaldegid, geksametilentetramin, glikollar kiradi.

Plastifikatorlar. PKMni qayta ishlash va ekspluatatsiya qilish jarayonida egiluvchanlik va qayishqoqlik xususiyatlarini oshirish uchun polimer tarkibiga plastifikatorlar qo‘shiladi.

Polimerlar tarkibiga plastifikatorlar qo‘shish polimerlarni boshqa ingradientlar bilan yaxshi aralashishini ta’minalaydi va plastmassani qayta ishlash haroratini pasaytiradi. Plastifikatorlarni qo‘shish mahsulotga shakl berishni yaxshilab, uni sovuq bardoshligini oshiradi. Plastifikatorlar polimerlar bilan reaksiyaga kirishmaydi, balki polimerdagagi molekulalararo ta’sir kuchlarini kamaytiradi. Plastifikatorlar polimerlar bilan yaxshi aralasha oladigan, uchuvchan bo‘lmagan (kam uchuvchan), polimer va boshqa ingradientlar bilan kimyoviy reaksiyaga kirishmaydigan, rangsiz, xidsiz, zaharli bo‘lmaslik, mahsulot tayyorlanganda diffuziyalyanib uni ustiga chiqib qolmaslik, polimerlarga qaraganda kimyoviy chidamli kabi talablarga javob berish kerak: Plastifikatorlarga misol dibutilftalat, fosfor kislota efirlari va boshqalarini keltirish mumkin.

Yog'lovchilar- polimerlardan mahsulot tayyorlash va jarayonda qo'shilishini yaxshilash uchun qo'shiladi polimerlarni tabiatiga qarab tanlanadi. Ularga stearin, olein kislotasi, stearatlar, sovunlar, parafin kabilar kiradi.

Barqarorlovchilar. Kompozitsiyani tayyorlashda polimerni destruksiyadan saqlash uchun barqarorlovchilar qo'shiladi. Polimerlarni issiqlik ta'sirida yemirilishdan saqlovchi barqarorlovchilar termostabilizatorlar deyiladi.

Destruksiyani sekinlashtiruvchi stabilizatorlar yorug'lik stabilizatorlari deyiladi.

Harorat ta'siridan saqlovchi barqarorlovchilarga-fenol hosilalari va aminlar kiradi.

Yorug'lik ta'siridan saqlovchi barqarorlovchilarga gaz holatidagi korakuya, benzafenon hosilalari kiradi. PVXni stabilizatorlariga kobalt, rubidiy va bariy stearatlari kiradi.

Tayanch so'z va iboralar.

YUMB, tabiiy, sun'iiy, sintetik polimerlar, chiziqsimon, tarmoqlangan, to'rsimon polimerlar, polimer-asos, oligomerlar, to'ldiruvchilar, aktik, noaktiv to'ldiruvchilar, mineral va organik to'ldiruvchilar, armirlangan, dispers to'ldiruvchilar, qotiruvchi qo'shimchalar, tashabbuskorlar, jadallashtiruvchilar, plastifikatorlar, yog'lovchilar, barqarorlovchilar.

Qaytarish uchun savollar.

1. Yuqori molekulali birikmalar, ularni turlari.
2. PKMlar yaratishda polimerlar qanday talablarga javob berishi kerak?
3. CHiziqsimon va to'rsimon polimerlar yaratish muammolari.
4. PKMlar yaratishda to'ldiruvchi qanday vazifani bajaradi.
5. To'ldiruvchilarni qanday turlarini bilasiz?
6. PKMlar yaratishda to'ldiruvchi miqdori va o'lchamini uni xossalariiga ta'siri haqida so'zlab bering.
7. PKMlar qanday ingradientlardan tashkil topgan?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lipatov Yu.S. Kompozitsionnye polimernye materialy. Kiev, "Naukova dumka", 1976, 192s.
2. Lipatov Yu.S. Fizicheskaya ximiya napolnennykh polimerov. M, "Ximiya" 1977g. 305s.
3. Lipatov Yu.S. Budushee polimernykh kompozitsiy. Kiev. "Naukova dumka", 1984g. 135s.
4. Lipatov Yu.S. Mejfaznye yavleniya v polimerax. Kiev, "Naukova dumka", 1980g. 260s.

#### **MA'RUDA-4**

#### **PKMlardagi fazalararo hodisalarning fizik-kimyoviy nazariyasi.**

Reja

1. YUMBlar molekulalarini qattiq sirdagi adsorbsiyasining QMBlar adsorbsiyasidan asosiy farqlari.
2. Adsorbsiya jarayonini PKMlar xossalari shakllanishidagi roli.
3. Qattiq sirdagi, konsentrangan eritmalaridagi YUMBlar adsorbsiyasi.

PKM yaratishning nazariy asoslari quyidagi asosiy qismlardan iborat:

- Polimerlarni to'ldiruvchi sirtidagi adsorbsiyasi va adgeziyasi nazariyalari.
- Polimerlarni oraliq va fazolararo qatlam hosil qilish nazariyalari.
- Polimerlarni to'ldiruvchilar bilan kuchaytirish nazariyasi.

YUMB asosida PKM yaratish polimer va qattiq jism (asosan to'ldiruvchi) orasidagi sirt xodisalarining fizik-kimyosiga asoslangan. Bu sirt hodisalariga polimer bog'lovchi va to'ldiruvchi orasidagi adsorbsiya, namlanish, adgeziya xodisalari kiradi.

PKMlar xossalarini tushinishda polimerni dispers to'ldiruvchi sirtidagi yupqa ustki qatlam ustidagi yoki armirlangan tola ustidagi xatti-harakatlarini o'rganish muhim o'rinn tutadi.

Adabiyotlardan ma'lum bo'lishicha polimer bilan to'ldiruvchi orasidagi hosil bo'lgan qatlamlar ustidagi polimerni xossalari uni aynan o'zining ya'ni hajmdagi xossalardan farq qiladi, Modomiki, PKMlarda polimer fazaning katta qismi sirtki qatlam holatida ekan, chegaraviy qatlam strukturasini o'rganish PKMlar fizik-kimyosining asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. Bu masalani tushunish uchun biz avvalo shu chegaraviy qatlamni hosil bo'lishini o'rganishimiz kerak.

PKMlar yaratishda birinchi texnologik jarayon bu to'ldiruvchi sirtini (ustini) polimer bog'lovchi bilan namlash jarayoni hisoblanadi. Bunda polimer bog'lovchi molekulalarini to'ldiruvchi bilan adsorbsion bog'lanishi va to'ldiruvchi sirtida polimer adsorbsion qatlamini vujudga kelishi yuz beradi. Demak, polimer adsorbsion qatlamining hosil bo'lishi, ya'ni polimer adsorbsiyasi PKMlar shakllanishining dastlabki akti bo'lib, u polimerni to'ldiruvchi yuzasiga adgeziyasida va sirtqi qatlam hosil bo'lishida asosiy omil hisoblanadi.

Polimer adsorbsiyasi faqat chegaraviy qatlam xususiyatlarini emas, balki adgezion ta'sir xarakterini va yaratilayotgan PKMlar mustahkamligini ham belgilaydi.

Polimer makromolekulalarini qattiq sirtidagi adsorbsiyasi QMBlar adsorbsiyasidan o'ziga xos ravishda va tubdan farq qiladi. Polimerlar adsorbsiyasining QMBlar adsorbsiyasidan tubdan farq qilishiga birinchi sabab, makromolekulalarning egiluvchanligidir. YUMBLar kimyo'sidan ma'lumki polimer kimyoviy tuzilishiga qarab, makromolekulalarni bir qismi ikkinchi qismiga nisbatan aylana olish qobiliyatiga ega. Ya'ni, makromolekulalarni ketma-ket tuzilgan segmentlar yig'indisidan iborat deb qarash mumkin va bu segmentlarni har bir o'zini boshqa qismidan alohida mustaqildek tutadi.

Polimerlar adsorbsiyalanganda ko'pincha adsorbent sirti bilan makromolekulaning katta bo'lmagan segmenti bog'lanadi, ayni vaqtida makromolekulalarning qolgan katta qismi sirtdan eritmaga cho'zilib, sirt bilan adsorbsion kuchlar orqali bog'liq bo'ladi.

Makromolekulani to'ldiruvchi bilan bog'lanishi uchun uni adsorbent sirtiga bir uchi bilan xuddi yakorga o'xshatib "ilinib"(ilashib) olishi yetarli. Shunda makromolekula bir vaqtda ham sirt bilan bog'langan, ayni vaqtida erkin ham bo'lib yuzada katta molekulyar harakatchanlikka ega bo'ladi. Makromolekulaning egluvchanligi qancha katta bo'lsa, ya'ni konformatsiyasini o'zgartirishga layoqati katta bo'lsa, adsorblangan molekulani harakatchanligi shunchalik katta bo'ladi. Boshqa tomonidan esa, makromolekulani eganluvchanligini katta bo'lishi makromolekulani sirtga yaxshilab moslashib olishini taminlaydi, ya'ni uni sirt bilan ko'p sonli segmentlar bilan bog'lanishga imkon yaratadi. Shuning uchun adsorbsion qatlamdagi adsorbirlangan bog' komformatsiyasi asosan molekulani sirt bilan bog'lanish darajasi, sirtni to'lib borish darajasiga, shuningdek PKMlar yaratishda birinchi texnologik jarayon bu to'ldiruvchi sirtini (ustniy) polimer bog'lovchi bilan namlash jarayoni hisoblanadi. Bunda polimer bog'lovchi molekulalarini to'ldiruvchi bilan adsorbsion bog'lanishi va to'ldiruvchi sirtida polimer adsorbsiya qatlamini vujudga kelishi yuz beradi. Demak, polimer adsorbsion qatlamining hosil bo'lishi, ya'ni polimer adsorbsiyasi PKMlar shakllanishining dastlabki akti bo'lib, u polimerni to'ldiruvchi yuzasiga adgeziyasida va sirtki qatlam hosil bo'lishida asosiy omil hisoblanadi.

Polimer adsorbsiyasi faqat chegaraviy qatlam xususiyatlarini emas, balki adgezion ta'sir xarakterini va yaratilayotgan PKMlar mustahkamligini ham belgilaydi.

$$P = \frac{P_C}{P_C + P_B}$$

$R_S$  - polimerlarning bog'langan  
segmentlar soni

$R_V$  - polimer molekulasi  
erkin (bog'lanmagan) segmentlar soni

Kichik konsentratsiyali eritmada g'ovak kulula (klubok) shaklida bo'lgan makromolekulalar to'ldiruvchi sirti bilan dastlabki bog'lanishdan so'ng molekulani issiqlik harakati va egiluvchanligi

natijasida bu kulula konformatsiyasini o'zgarishi va molekula yuzada yoyilishi (ochilishi - uzala tushib olishi - "rasplastyvanie") mumkin. Eritma konsentratsiyasini oshirilishi sirt to'lib borish darajasini (stepen zapolneniya) ortib, adsorbsiyada sirt bilan o'zarotlarini o'zgarishiga olib keladi. Yoyilgan (ochilgan) konformatsiyali molekula adsorbsiyasidan sirt bilan adsorbsion bog'langan segmentlar ketma-ketligi adsorbsiyasiga o'tiladi. Bundan segmentlarni eritmaga ilmoqlashib yoyilishi kuzatiladi.

Bundan R-kattaligi

$$P = \frac{R_K}{R_S} \quad R_K \text{ - ketma ketlikda adsorblangan segmentlar soni} \\ R_S \text{ - ilmoklanib yoyilgan segmentlar soni}$$

Demak, YUMBlarda turg'un kulula (klubok) shaklidagi adsorbirlangan makromolekulalar bilan to'ldiruvchi sirti qoplanganda, makromolekulalarning faqat ayrim segmentlarigina adsorbent sirti bilan ta'sirda bo'ladi.

Shunday qilib, adsorbirlangan molekulalarda molekulalararo ta'sirni mavjudligi va uni adsorbirlangan bog'lar konformatsiyasiga ta'siri, makromolekulalarning egiluvchanligini adsorbsiyaga ta'siri kabilar YUMBlar adsorbsiyasini QMBlar adsorbsiyasidan farq kiluvchi bиринчи томониди.

YUMBlar adsorbsiyasining yana bir o'ziga xos xususiyati uning erituvchi tabiatiga bog'liqligi, ya'ni eritmada polimer bog' konformatsiyasiga erituvchi tabiatining ta'siri. Erituvchining termodinamik sifatini yomonlashuvi yoki erituvchi molekulalari bilan segmentlar ta'sirini yomonlashuvi eruvchanlikni yomonlashishiga va suyultirilgan eritmalardan adsorbsiyalanish kattaligini ortishiga olib keladi, lekin ayni vaqtda molekulyar kululalar kattaligini kamaytirishi ya'ni adsorbent sirtida polimer kululalarining (gujunaklarni) bog'lash harakteri o'zgaradi.

Erituvchi termodinamik sifatini turlichaligi, ya'ni uni yaxshi yomonligi erituvchida kululalar o'chamining o'zgarishi konsentratsiya ko'tarilishi bilan turlicha bo'ladi.

Suyultirilgan eritmalarda adsorbsiyaga haroratning ta'siri erituvchi termodinamik sifatini o'zgarish bilan va polimer molekulalari kululalari (gujanaklari) katta-kichikligini o'zgarish effekti bilan bog'liq. Shuning uchun QMB lardan farqli YUMBlar adsorbsiyasi harorat ko'tarilishi bilan ortish ham mumkin. QMBlarda haroratni ko'tarilishi adsorbsiyani ortishga olib kelishi ma'lum.

YUMBlar adsorbsiyasining KMBlar adsorbsiyasidan yana bir farq kiluvchi tomoni polimer molekulyar massasining kattaligidir. Polimer molekuklyar massasining kattaligi ham adsorbsiyaga o'ziga xos ravishda ta'sir qiladi.

Ayni bir polimer uchun erituvchi tabiatini va adsorbentni tuzilishi (ya'ni g'ovakligi)ga qarab polimer molekulyar massasi adsorbsiyaga o'ziga xos ravishda ta'sir ko'rsatadi. Ma'lumki polimerlar polidispersdir, ya'ni polimer tarkibida yuqori hamda quyi molekulali fraksiyalar bo'ladi.

Ayni bir polimer uchun agar sorbentlar g'ovaksiz bo'lsa, molekulyar massa ortishi bilan adsorbsiya ham ortib boradi. Aksincha kichik, lekin ko'p g'ovakli sorbentlar uchun quyi molekulali fraksiyani adsorbsiyasi ustunlik qiladi. Demak, polimerni polidispersligi, molekulyar massaviy taqsimoti adsorbsion qatlamga ta'sir ko'rsatar ekan.

Yuqorida keltirilgan polimerlar adsorbsiyasini o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, adsorbsiyani ko'pgina statistik nazariyalari yaratilgan. Ular adsorbsiya izotermasini analistik ifoda qilishga imkon yaratadi. Ko'pgina xollarda adsorbsiya Freyndlix tenglamasi orqali ifodalanadi:

$$A = \beta * C^n$$

bu yerda A - adsorbsiya,  $\beta$  va  $n$  - konstantalar, S - eritma muvozanatlari konsentratsiyasi.

Ko'pincha amaliyotda (elim koplamlar tayyorlashda, oligomer kompozitsion, polimer - monomer sistemalar) sirdagi adsorbsiya konsentrirlangan eritmalardan amalga oshiriladi. Bu adsorbsiya suyultirilgan elementlar adsorbsiyasidan, uning qonuniyatlaridan farq qiladi.

Konsentrirlangan eritmalarda g'ujunak kululalar qisilib, razmer kichiklashadi. Konsentrirlangan eritmalarda makromolekulalar orasida molekulalar aro ta'sir namoyon bo'lib, bu molekulyar assotsiatlar

va agregatlar hosil qiladi. Bu agregatlar bilan qolgan molekulalarning eritmadi muvozanat holati agregatsiya konstantasi bilan harakterlanadi.

$$K_a = \frac{n}{N}$$

n - eritmada agregatlar bo'lib bog'langan molekulalar soni,

N - molekulalar umumiy soni

Bu yerda  $K_a$  erituvchi tabiatiga, eritma konsentratsiyasi va temperaturaga, polimer tabiatiga bog'liq bo'ladi. Assotsiatlar yoki molekulalar agregatlari eritmadi yollar bilan aniqlanadi. Quyidagi rasmida 2 xil eritmadi adsorbsiya tasvirlangan.

Adsorbsiya izotermasi

1. Aerosil bilan to'ldirilgan polikarbonat - dixloretan eritmasida.

2. Epoksid smola - DMFA eritmasida.

konsentratsiya

Birinchi holatda adsorbsiyani tekshirish uchun qulay bo'lgan oblastda adsorbsiyani oshib borishi kuzatiladi (2- egri chiziq). 2 chi holatda adsorbsiya ma'lum konsentratsiyada maksimumga yoki minimumga ega bo'lib, konsentratsiya oshib borishi bilan adsorbsiyani pasayishi ba'zan butunlay to'xtatib qolishi kuzatiladi (1 chi egri chiziq). Bu izotermalar termodinamik sifati yaxshi yoki yomon bo'lgan erituvchilardagi adsorbsiya jarayonini harakterlaydi va u molekulyar agregatlarni adsorbsiyasi ustunligi bilan bog'liq. Yaxshi erituvchilarda konsentratsiya ortib borishi bilan agregatlar soni ham ortib borib, adsorbsiyani oshishiga olib keladi. Yomon erituvchida esa ma'lum konsentratsiyada agregatlarni bir-biriga fazoviy to'rsimon bog'lanishi (gel hosil bo'lishi) yuz berib, bu agregatlarni sirtga o'tishiga to'sqinlik qiladi va bu adsorbsiyani butunlay to'xtatib qo'yadi. Suyultirilgan eritmalardan farqli konsentrangan eritmalarda yaxshi erituvchilarda adsorbsiya kattaligi - katta, yomon erituvchilarda - kichik bo'ladi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, bu erituvchi termodynamik sifati bilan bog'liq ravishda struktura hosil bo'lishi xususiyatlariga bog'liq. Demak, QMBlar adsorbsiyasi farqli YUMBlar adsorbsiyasida adsorbsiya kattaligi makromolekula strukturasi, hamda eritma strukturasiga ta'siri bilan belgilanadi.

Yuqorida keltirilgan polimer adsorbsiyasini o'ziga xos xususiyatlari PKMlar yaratishda polimerlar sirtki qatlami shakllanishi mexanizmlarini tushunishda, adsorbsion kuchlar asosiy rol o'ynovchi - polimerni qattiq sirtiga adgeziyasi mexanizmlarini tushunish nuqtai nazaridan katta ahamiyatga ega.

PKM xossalari shakllanishida adsorbsiyani ta'siri xususida to'xtalib o'tamiz. Polimerlar adsorbsiyasining yuqorida keltirilgan o'ziga xos xususiyatlari suyuq polimer smolalarini (bog'lovchilarni) qotguncha sirt bilan bevosita ta'siri uchun ham o'z ahamiyatini saqlaydi. Chunki har qanday smola, har qanday polimer individual modda emas, u doimo turli molekulyar massaga ega bo'lgan fraksiyalar yig'indisi, buni QMB lardagi YUMBlar fraksiya eritmasi deb qarash mumkin. Shuning uchun biz bunday adsorbsiyani eritmalardan adsorbsiyalanishi deb qarashimiz mumkin.

Olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, vaqt o'tishi mobaynida bog'lovchi sirtiga yopishib turgan molekulani molekulyar massaviy taqsimoti o'zgaradi. Sirtda asosan polimer hajmdan sirtga o'tgan yuqori molekulyar massali fraksiyalar yig'iladi. Oqibatda keyingi polimer qatlamlarida yuqori molekulyar fraksiyalar juda kamayib ketadi. Ma'lumki, polimerni xususiyatlari molekulyar massaga tubdan bog'liq bo'lib, bunday o'zgarishda qattiq jism sirtida polimer qatlaming

xususiyatlari uni sirtdan qanday uzoqlikda turganligiga qarab turlicha bo‘ladi. Bu esa polimer qatlamlari sirtidagi strukturani tuzilishi tushinish uchun juda muhim.

PKM olishda polimer bog‘lovchilar faqat polidispers bo‘libgina kolmay, balki ko‘p komponentli ham bo‘lishi mumkin. Ular tarkibiga ko‘pgina turli turdagи kushimchalar reaksiyani jadallovchilar, qotiruvchilar kabi komponentlar kirishi mumkin. Bunday ko‘p komponentli polidispers bog‘lovchilar ishlatilganda qotirish jarayonigacha sirtda qandaydir komponentlar aralashmasini adsorbsiyasi sodir bo‘ladi. Ma’lumki, avvalo katta aktivlikka ega bo‘lgan komponentlar adsorbsiyalanadi. Bunday adsorbsiyalanish natijasida qotirilayotgan polimer sirti yaqinida komponentlar taqsimlanishi o‘zgaradi. Ayni vaqtda sirtki qatlamning turli zonalarida komponentlarning tarqalishi turlicha bo‘lganligi uchun bog‘lovchini qotirishda katnashayotgan komponentlar bilan boradigan reaksiya sharoitlari ham o‘zgaradi. Bundan tashqari reaksiya borishi mobaynida reaksiyaga kirayotgan moddalar va hosil bo‘layotgan polimer molekulalari sirt bilan turlicha bog‘lanadilar, bu esa reaksiya tezligiga ta’sir ko‘rsatadi. Bu tezlik esa PKMlar olishda xal kiluvchi asosiy omildir. Adsorbsion ta’sir natijasida reaksiya tezligini o‘zgarishi, selektiv adsorbsiya natijasida sirtidan komponentlarni turli o‘zoklikda bo‘lishi polimer strukturasiga ta’sir qiladi ya’ni, bir xil sharoitda (harakat, bosim, komponentlar nisbati, katalizator konsentratsiyasi) olingan polimer strukturasi va reaksiya borish sharoitlari xuddi shu sharoitda lekin to‘ldiruvchisiz olingan polimer strukturasidan farq qiladi. Demak, PKMlar shakllanishida, polimer matritsa ko‘p komponentli bo‘lganda komponentlarni selektiv adsorbsiyasi asosiy rol uynaydi. Bu omillarni barchasi to‘ldiruvchi bilan polimer matritsa orasida hosil bo‘layotgan chegaraviy qatlamda polimer matritsa strukturasini o‘zgarishiga olib keladi, bu esa o‘z navbatida PKMlarni barcha xossalariiga ta’sir ko‘rsatadi.

Demak, adsorbsiya PKMlar shakllanishi sharoitlari va xossalariini belgilovchi muhim omil ekan.

Tayanch so‘z va iboralar.

Adsorbsiya, YUMB adsorbsiyasi, QMBlar adsorbsiyasi, makromolekulalar egiluvchanligi, segmentlar, makromolekula kululalari, suytirilgan va konsentrlangan eritmardagi adsorbsiya, yaxshi va yomon erituvchilar (erituvchi termodinamik sifati), Frendlix tenglamasi, agregatsiya konstantasi, adsorbsiya izotermasi.

Qaytarish uchun savollar.

1. PKMlar yaratish nazariy asoslari qanday asosiy qismlardan iborat?
2. YUMB adsorbsiyasi QMBlar adsorbsiyasidan qanday farq qiladi?
3. Makromolekula egiluvchanligini adsorbsiyaga ta’siri haqida so‘zlab bering.
4. Polimer molekulyar massasini adsorbsiyaga ta’siri qanday?
5. YUMB adsorbsiyasiga erituvchi tabiatini ta’siri?
6. PKMlar shakllanishda adsorbsiyani roli haqida gapirib bering.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Berlin A.A., Basin V.E. Osnovy adgezii polimerov m., "Ximiya" 1974, 392s.
2. Deregin B.V., Krotova N.N. i dr. Adgeziya tverdых tel. M., "Nauka" 1973, 280 s.
3. Lipatov Yu.S. Budushee polimernix kompozitsiy, Kiev. "Naukova dumka", 1984, 135s.
4. Lipatov Yu.S. Mejfaznne yavleniya v polimerax, Kiev, "Naukova dumka", 1980, 260s

**MA’RUZA – 5**  
**Polimerlar adgeziyasining nazariy asoslari.**  
Reja.

1. Adgeziyaning adsorbsion nazariyasi.
2. Polimerlar va to‘ldiruvchi fazasidagi bog‘ning tabiatini va uni adgeziyada tutgan o‘rni.

### 3. Adgeziyaning termodynamik nazariyasi.

Ma'lumki, har bir yelimlash jarayonini asosida adgeziya hodisasi yotadi. Yuqori fizik - mexanik xususiyatlarga ega bo'lgan PKMlar yaratishning assosiy shartlaridan biri polimer asos bilan to'ldiruvchini bir-biriga mustahkam bog'lanishidir. Agar polimer asos bilan to'ldiruvchi bir-biriga mustahkam bog'lanmagan bo'lsa, PKM turli mexanik ta'sirlar natijasida osongina buzilishi mumkin. Shuning uchun polimer asos va to'ldiruvchi orasidagi hosil bo'lgan fazolararo chegaradagi adgeziya xodisasini sabablarini o'rganish PKM yaratishda na faqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Hozirgi ko'ngacha adgeziya xodisasini tushuntiruvchi bir qancha nazariyalar mavjud. Agar fizikkimyoviy nuqtai nazaridan karaydigan bo'lsak, adgeziyani fazalar orasidagi chegarada vujudga kelgan molekulalararo ta'sir kuchlari belgilaydi. Yuqorida aytib o'tganimizdek bu kuchlar polimer adsorbsiyasini ham belgilovchi kuchlar edi. Shuning uchun adgeziya hodisasi qattiq sirtidagi adsorbsiya sharoitlari bilan ham uzviy bog'liq. Ya'ni adsorbsiya jarayonida kuzatiladigan polimer tabiatiga xos bo'lgan ba'zi effektlar adgeziya jarayonida ham kuzatiladi. Bular polimer zanjirining egiluvchanligi bilan bog'liq bo'lgan adsorbsion sirtda polimer konformatsiyasini o'zgarish effektidir. Shuning uchun adgezion birikma hosil bo'lishida vujudga kelayotgan chegaraviy qatlam strukturasini adsorbsiyani belgilab beruvchi omillar belgilaydi. Shundan kelib chiqib adgeziya jarayonini tushuntirib beruvchi adgeziyaning adsorbsion nazariyasi yaratilgan. Bu nazariya termodynamik nazariya bilan birga adgeziya hodisasini to'g'ri talkin qilishga yordam beradi.

Adgeziyaning adsorbsion nazariyasi. Bu nazariya fazalar orasidagi chegarada ta'sir kiluvchi fizik kuchlar, hamda qattiq jismning va polimerning tabiati, qattiq jism sirtida atomlar yoki atom va molekulyar gruppovkalar bilan kuchli ta'sir kiluvchi makromolekula zanjirida kutbli yoki boshqa guruxlar borligi (mavjudligi) orqali tushuntiradi. Shu bilan birga bunda polimerning o'zining va polimer zanjirining boshqa umumiy xossalari ham asosiy urin tutadi. Chunki polimer zanjirining xossalari fazalar orasidagi chegaradagi molekulalar kontakti hosil bo'lish sharoitlarini belgilaydi. agar polimer zanjiri juda dagal bo'lsa, u sirt mikrorelefiga yaxshi moslasha olmaydi va polimerni sirt bilan kontakti to'liq bo'lmay, sirtning ba'zi nuqtalari bilangina kontaktda bo'ladi. Bunday makromolekulani, ya'ni sirt bilan ba'zi nuqtalardagina kontakda bo'lgan makromolekulani sirtdan "ajratib" olish juda oson bo'ladi. Demak, adgeziya hodisasini adsorbsion nazariyasida adgezion birikma hosil bo'lishida (shakllanishida) makromolekulani sirti bilan molekulyar kontakt hosil qilishi sifatida qaraladi. Shu bilan birga bunda polimerning o'zining ham ba'zi xossalari, shishalanish harorati, qayishqoqlik xossalari asosiy ahamiyatga ega. Agar kontakt shakllanishda sirt bilan yetarli darajadan ortiq nuqtalar hosil bo'lsa, qotirilgan adgeziv murt bo'ladi va mexanik ta'sir natijasida bu adgezivni hamda, adgezion birikmani buzilishiga olib keladi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, polimerning aynan o'zining xossalari, uning adsorbsion qatlamdagи xossalardan farq qiladi. Bu o'zgarish sirtda makromolekula zanjirining konformatsiyasini o'zgarishi bilan bog'liq. Ma'lumki makromolekula konformatsiyasini o'zgarishi uni molekulyar harakatchanligi va adsorbsion qatlam strukturasini shakllanishini belgilaydi. Xuddi shunday hodisalar adgezion birikma hosil bo'lishida ham o'rinni va kuzatiladi.

To'ldiruvchi bilan polimer orasidagi adgezion bog'ning mustahkamligi ham polimer xossalari o'zgarishida namoyon bo'ldi. Aytish mumkinki, polimerning xossalari bo'lgan adgeziya kattaligi o'z navbatida uning adsorbsion yoki chegaraviy qatlamdagи xossalari ta'sir qiladi.

Adgezion bog'ning mustahkamligini oshirish va makromolekula zanjirini sirt bilan molekulyar kontakt nuqtalarini sonini oshirish makromolekula dagaligini oshirishga ya'ni makromolekula harakatchanligini kamayishiga olib keladi, bu esa sirtda makromolekula zanjirini joylanish sharoitlashini o'zgartiradi.

Endi adgezion birikma hosil bo'lishi davrida (vaqtida) nima yuz berishini ko'rib chiqamiz. Agar adgeziv sirtga eritma holida yoki suyuq smola holida surtilsa, birikma erituvchini parlanishi yoki suyuq adgezivni qotishi mobaynida vujudga keladi. Bunda molekulyar harakatchanlikni kamayishi hisobiga sirtni namlanish sharoitlari va zanjirni sirt bilan ta'sirlanish sharoitlari o'zgaradi. Dag'al polimer zanjiri xuddi kichik monomer molekulalari yoki oligomer kabi sirtga moslasha olmaydi va ulardan qattiq polimer adgeziv hosil bo'ladi. Demak, polimer zanjiri qanchalik dag'al bo'lsa va zanjir bilan sirtini o'zaro ta'siri katta bo'lsa, sistema shunchalik muvozanatdan chiqib boradi. Bunda polimerni sirti bilan

o‘zaro ta’siri va qotirish sharoitlari bilan bog‘liq ravishda adgezivda ichki kuchlanish paydo bo‘ladi. Agar zanjir egiluvchan bo‘lsa, u sirtga yaxshi moslashib oladi, sirt bilan makromolekula kontakt nuqtalari soni ko‘p bo‘ladi. Adgeziv strukturasini shakllanish jarayoni shuningdek sirtki qatlamni shakllanishi makromolekula xossalari bilan bog‘liq ravishda ma’lum vaqtini talab qiladi. Shuning uchun, adgezivni kotish jarayonini qotirish tezligi bilan polimerni sirtda muvozanatini urnatish tezliklari orasidagi eng qulay nisbatida olib borish kerak. Agar muvozanatsiz struktura hosil bo‘lsa, adgezion bog‘ning mustahkamligi kichik bo‘ladi, chunki muvozanatsiz strukturada yuzaga kelgan ichki kuchlanish makromolekulani sirtdan ajratib olishga intiladi. Shuning uchun to‘ldiruvchi sirti qanchalik tekis bo‘lsa, polimer adgeziv bilan qattiq sirt orasidagi nuqtalarni soni shunchalik ko‘p bo‘ladi. Adgeziv bog‘ mustahkamligini oshirish fazalar orasidagi kuchlanishlarni kamaytirish xisobiga erishiladi.

Demak, polimer bilan to‘ldiruvchi sirti orasida adgezion bog‘ni mustahkamligini oshirish, fazalar orasidagi molekulalararo ta’sir kuchlarini ortishiga olib kelib, bu o‘z navbatida GJM xossalarni yaxshilanishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun hozirgi kunda polimer bilan to‘ldiruvchi orasida kuchli adgezion bog‘ hosil qilish uchun polimer adgeziv tarkibiga ba’zi funksional faol guruxlar kiritish xisobga adgezion bog‘ mustahkamligini oshirish maqsadga muvofiq. Buning uchun polimer bilan to‘ldiruvchi orasidagi bog‘ning tabiatini bilish lozim.

Polimer bilan to‘ldiruvchi orasidagi bog‘ning tabiatini va uni adgeziyada tutgan o‘rni. Adgeziyani adsorbsion nazariyasidan ma’lumki, fazalar orasidagi ta’sir kuchlarini tabiatini o‘zgartirib, adgezion bog‘ni mustahkamligini oshirish mumkin. Bu ta’sir kuchlarini yaxshilashni quyidagi usullari mavjud:

1. To‘ldiruvchini kimyoviy modifikatsiyalash, ya’ni to‘ldiruvchi sirtiga maxsus moddalar bilan ishlov berish.
2. Fizik modifikatsiyalash (payvandlash).
3. To‘ldiruvchi sirtiga polimer appretlari bilan ishlov berish.

1chi usul. To‘ldiruvchiga maxsus moddalar bilan ishlov berish. Bu usulda dispers yoki armirlovchi to‘ldiruvchilar polimer bilan mustahkam bog‘ hosil qilish uchun ularga maxsus moddalar-appretlar yordamida ishlov beriladi. Turli xil modifikatorlarni (appretlarni) tanlash va ular bilan to‘ldiruvchi sirtini to‘yintirish orqali fazalar orasidagi chegaradagi bog‘lar tabiatini, shuningdek adsorbsion va adgezion ta’sirni, hamda PKM xossalari boshqarish mumkin. Masalan, shisha, uglerod tolali yoki boshqa shunga o‘xshash to‘ldiruvchilar sirtini maxsus moddalar appretlar bilan qoplamasdan turib, yaxshi xossalarga ega bo‘lgan PKMlar olish mushkul. Shisha tolalar sirtini amalda maxsus appretlar bilan qoplanguanda, shisha sirtida yangi aktiv guruxlar hosil qilinib, polimer adgeziv bilan mustahkam bog‘ hosil qilishiga erishiladi. Shisha tolani appretlash shishadagi gidroksil guruhlari bilan appretlovchi modda funksional guruxlari orasida kimyoviy jarayon olib borishga asoslangan.

Shunday kilib, shisha tola sirtida polimer bog‘lovchi bilan yaxshi ta’sirlasha oladigan hamda shisha tola bilan kimyoviy bog‘ orqali birikkan appret qatlamni hosil qilinadi. Tanlangan appretlar polimer bilan ham kimyoviy ta’sirda bo‘la oladigan guruxlarga ega bo‘lishi kerak. Demak, 2 ta qatlam, ya’ni to‘ldiruvchi bilan qoplangan appret qatlami, appret qatlami bilan kimyoviy bog‘langan polimer qatlami vujudga keladi. Ba’zan appretlovchi moddalar polimer bog‘lovchi bilan to‘ldiruvchi sirti orasida kimyoviy bog‘ hosil kilmasdan ham adgezion bog‘ni mustahkamlashi amalda kuzatilgan.

2 chi usul. Oddiy fizik modifikatsiyalash usuli. Bu usul appretlarsiz polimer bilan to‘ldiruvchi sirtida tugridan-tugri o‘zaro ta’sir hosil qilish xisobiga boradi (payvandlash).

Shu bilan birga adgezion bog‘ning mustahkamligi faqat polimer bilan to‘ldiruvchi orasidagi kimyoviy va fizik bog‘larni hosil bo‘lish xoliga qarab belgilanib kolmasdan, balki bu bog‘larni zanjirda tarqalishi harakteri va soni bilan ham belgilanadi, Chunki yuqorida aytib o‘tganimizdek polimer bilan to‘ldiruvchi orasidagi bog‘lar soni qanchalik ko‘p bo‘lsa, ya’ni ular bir-biri bilan ko‘proq nuqtalarda kontaktda bo‘lsa, bog‘larning o‘ta mustahkamligi makromolekula harakatchanligini kamaytirib, ichki kuchlanishni oshishiga, hamda sirtda turli nuqsonlar paydo bo‘lishiga olib keladi,

3 chi usul. Hozirgi kunda tolasimon to‘ldiruvchilar asosida olingan PKMlar yaratishda polimer appretlaridan foydalanish katta ahamiyat orasida kimyoviy bog‘ hosil qilmasdan adgezion bog‘ni mustahkamlanadi. Bu xodisani polimerlar aralashmasida oralik qatlamni vujudga kelishi bilan tushuntiriladi. Bu usulda adgezion bog‘ni mustahkam bo‘lishi fazalararo chegaraviy qatlamda ichki kuchlanish sharoitlarini o‘zgarishga olib kelishi bilan tushuntiriladi. Ya’ni polimer (1) asos bilan

to‘ldiruvchi sirtiga ipshov berilayotgan polimer (2) bir biriga kiruvchi to‘rlar xosil qiluvchi polimerlar (vzaimopronikayushie setki).

Shuningdek dispers to‘ldiruvchi sirtiga sirt faol moddalar bilan ishlov berish ham adgezion bog‘ mustahkamligini oshiradi.

Adgeziyaning termodinamik nazariyasi. Yuqorida aytib o‘tganimizdek adgeziyaning adsorbsion nazariyasi adgeziya hodisasi jarayonida adgezion birikma hosil bo‘lishida ro‘y berayotgan fizik hodisalarni tushuntirib va ularni oldindan aytib bera oladi. Lekin bu nazariya fazalar orasidagi chegarada ta’sir qiluvchi kuchlar tabiatni bilgan holda adgezion bog‘ mustahkamligini boshqarishni tushuntirib bermaydi. Adgeziyaning termodinamik nazariyasi fazalar orasidagi chegarada adgezion ta’sir qiluvchi kuchlar tabiat, hamda adgeziya kattaligi bilan kontakttagi jismlar molekulyar parametrlari kasb etmoqda. Bu usulda tolasimon to‘ldiruvchilar sirtini polimer appretlar bilan qoplash orqali, to‘ldiruvchi bilan polimer bog‘lovchi miqdoriy nisbatlarini tushuntirib beruvchi, sirt xodisalari termodinamikasiga asoslangan (termodinamik) molekulyar nazariyadir. Bu nazariya agar to‘ldiruvchi qattiq bo‘lsa -qattiq sirtni suyuqlik (agar polimer suyuq bo‘lsa) bilan namlanishiga asoslangan. Namlanish va oqish mustahkam adgezion o‘zaro ta’sir hosil bo‘lishining asosiy shartlaridan biridir. Bunda adgeziyaning termodinamik ishi (termodinamicheskaya rabota) ikki sirt yopishishini yengishga va ularni ajratishga sarf bo‘ladigan ishdir. Shuning uchun bu ish kontaktda bo‘layotgan jismlarni termodinamik harakteristikalari bilan bog‘liq.

Agar sirtga Q - chet burchak orqali suyuqlik tomchisini tushirsak, bu tomchini sirtdan olish uchun qattiq - suyuq sirtni qattiq-gaz sirtga almashtiruvchi kuch sarf qilish kerak bo‘ladi.

$W_A$  – birlik yuzadagi dgeziya kuchi

$\gamma_{q,t}$  – qattiq sirtni sirt tarangligi

$\gamma_{s,p}$  – suyuq sirtni sirt tarangligi

$\gamma_{q,s}$  – fazalar orasidagi energiya

Demak, adgeziya ishi Q - chet burchak namlanish va suyuq adgezivni sirt taranligi orqali aniqlanadi. Suyuqlik qatlamini bo‘zishga sarf bo‘ladigan energiya(kogezionbuzilish uchun)  $W_K = 2 U_s$  ga teng bo‘ladi. Agar chet burchak  $Q \sim O$  ga teng bo‘lsa, u adgeziya ishiga teng bo‘lib qoladi.  $Q = 0$  bo‘lgan holatda adgeziv suyuqlik sirtini butunlay namlaydi.

Agar  $Q = 0$  bo‘lsa,  $W_K \sim W_A$  bo‘ladi. Agar  $Q > O$  bo‘lsa, tulik bo‘lmagan namlanish, bunda adgezion buzilish oson bo‘ladi, chunki bunda  $w_a > w_k$  bo‘ladi.

Yuqorida keltirilgan nisbatlarga qarab adgeziyani shpini oson baxolash va tushintirish mumkin. Lekin buni murakkab tamoni shundaki, qotirligan adgeziv xuddi suyuqlik adgeziyasi kabi adgeziyaga emas, ya’ni qattiq adgeziv sirt tarangligi suyuqlik sirt taranligidan farq qiladi. Shuning uchun adgeziyaning termodinamik ishini to‘g‘ri baxolash uchun tenglikka qattiq adgeziv sirt tarangligini ham kiritish lozim Adgeziya buzilishi ko‘pincha fazolararo chegaraviy qatlamda boshlanganligi uchun u adgezivga nisbatan ba’zan kogezion, ba’zan aralash harakterga ega. Agar buzilish jarayoni qattiq sirt bilan adgeziv orasidagi chegarada sodir bo‘lsa, adgeziyani yaxshilash uchun adgezivni kogezion mustahkamligini oshirish lozim bo‘ladi.

Demak termodinamik nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak kogezion mustahkamlikni oshirish yo‘llarini qidirish lozim ekan.

Tayanch so‘z va iboralar.

Adgeziya, yelimlash, adgezion birikma, qattiq sirt, suyuq sirt, dag‘al polimer zanjiri, egiluvchan zanjir, makromolekulalar egiluvchanligi, adgezion bog‘ mustahkamligi, appretlar, polimer appretlari, termodinamik ish, sirt tarangligi, kogezion ish, fazalar orasidagi energiya, adgezion buzilish.

Qaytarish uchun savollar.

1. Adgeziya nima?
2. Polimerlar adgeziyasi haqida qisqacha tushuncha.
3. Adgeziyaning adsorbsion nazariyasini gapirib bering.
4. Polimer va to‘ldiruvchi orasidagi bog‘ni tabiatи adgeziyaga qanday ta’sir ko‘rsatadi.
5. Adgeziyaning termodinamik ishi qanday parametrlarga bog‘liq bo‘ladi?

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lipatov Yu.S. Kompozitsionные полимерные материалы. Kiev, "Naukova dumka", 1976, 192s.
2. Lipatov Yu.S. Fizicheskaya ximiya napolnennyx polimerov. M, "Ximiya" 1977g. 305s.
3. Lipatov Yu.S. Budushee polimernых kompozitsiy. Kiev. "Naukova dumka", 1984g. 135s.
4. Lipatov Yu.S. Mejfaznye yavleniya v polimerax. Kiev, "Naukova dumka", 1980g. 260s.

#### *MA’RUZA-6*

#### *Ageziya nazariyasi asoslari. Yangi adgezivlar yaratishga termodinamik yondoshish*

Reja

1. Adgezivni kogezion mustahkamligini oshirish. Yangi adgezivlar yaratish.
2. Kuchsiz chegaraviy qatlamlar va ularni adgeziyada tutgan o‘rni.

Adgeziyaning termodinamik nazariyasidan ma’lumki adgezion buzilish kamdan-kam xollarda ayni fazalar orasidagi chegarada ro‘y beradi, ya’ni u adgezivga nisbatan kat’iy kogezion harakterga ega. Agar buzilish protsessi adgeziv qatlama, ya’ni uni qattiq sirt bilan bo‘linish chegarasida ro‘y beradi, deb xisoblasak, adgezivni yaxshilash uchun adgezivning kogezion mustahkamligini oshirish kerak bo‘ladi. Bu yerda sirt bilan adgezivni adsorbsion ta’sirda bo‘lishida qatlamning mexanik xossalarni o‘zgarishini inobatga olish zarur bo‘ladi. Demak yangi adgezivlar yaratishida yoki adgezion bog‘ mustahkamligini oshirishda chegaraviy qatlamda adgezivni kogezion mustahkamligini oshirish yullarini izlash muammosi turadi. Ko‘p komponentli polimer sistemalarida fazalar orasidagi xodisalarni taxlil qilish adgezivlar yaratishda yangicha yondoshishga imkon yaratadi. U polimer komponentlarini sirti bilan selektiv ta’sirida bo‘ladi degan fikrga asoslanadi. PKMlar tarkibidagi turli komponentlar kimyoviy tabiatи va sirtga moyilligi (srodstvo) bilan farq qilganligi uchun ular qattiq sirtida turlicha adsorbirlanadi.

Bu selektivlik-ko‘p komponentli sistemalar adgeziyasiga ta’sir qiluvchi asosiy omillardan biridir, Selektivlik-fazalar bo‘linish chegaralarida va bu ta’sir natijasida sistema komponentlarni xajmda va sirtqi qatlam orasida tarkalishida namoyon bo‘ladi. Yangi adgezivlar yaratishni bir necha xil yo‘llarini taklif qilish mumkin.

Adgeziyani oshirishni birinchi yo‘li polimer kompoziya tayyorlashda bog‘lovchi sifatida oldindan dispers to‘ldiruvchilar bilan to‘ldirilgan bog‘lovchilardan foydalanish, ya’ni bog‘lovchi sifatida mustaqil PKMlarni ishlatish. Bunda murakkab kompozitsion material yaratilib, uni tarkibida armirlangan komponent qattiq jism, hamda qo‘srimcha kuchaytiruvchi komponent dispers to‘ldiruvchi bo‘ladi. Bu yerda dispers to‘ldiruvchi, dispers to‘ldiruvchilar bilan to‘ldirilgan PKMlardagi xossalardan farq qiladi. Eng avvalo bu kompozitsiyada dispers to‘ldiruvchini miqdori kam bo‘ladi. Armirlangan to‘ldiruvchidan farqli, u bog‘lovchi komponentlari bilan moyillikka (srodstvogo) ega bo‘lishi kerak. Yaratilgan PKMlarda 2 xil qattiq sirt (armirlangan va dispers to‘ldiruvchilar sirti) va 2ta sirtki qatlam mavjud bo‘ladi, ya’ni dispers to‘ldiruvchi sirtida va armirlangan tola sirtidagi qatlam mavjud bo‘ladi. Bog‘lovchi komponentlariga turlicha moyillikka (srodstvogo) ega bo‘lgan ikki xil sirtidagi kimeviy tabiatи bilan farq qiluvchi to‘ldiruvchilarni mavjudligi bog‘lovchini sirtida ularni turlicha taqsimlanishiga olib keladi (pereraspredelenie). Ma’lumki texnik bog‘lovchi tarkibidagi quyi molekulyar fraksiyalar bo‘lib, u bog‘lovchi xajmidan qattiq sirt ustiga ko‘chib chiqishi mumkin (migrirovatsya). Agar quyi molekulyar fraksiyalar dispers to‘ldiruvchi bilan ta’sirlanishiga moyil bo‘lsa, bog‘lovchini asosiy qismi va armirlangan bo‘ldiruvchi ustidagi sirtqi qatlam bu quyi molekulyar fraksiyalardan ozod bo‘ladi. Bu esa aini vaqtida sirtqi qatlamni bir tekis va nuqson siz bo‘lishiga shu bilan birga eng asosiysi sirt tarangligi kichik moddalar-KMBlardan ozod bo‘lishi xisobiga bog‘lovchini sirt tarangligini oshiriladi. Ma’lumki, kogezion ish sirt tarangligi bilan bog‘liq bo‘lib, sirt tarangligini ortishi avtomatik ravimda kogezion

mustahkamlikni oshishiga olib keladi. Shunday qilib, bu usulda asosiy vazifa sirtlarni tanlash, ya'ni ikki jismni sirt energiyalarini ma'lum nisbatini tanlash vazifasi turadi. Shu nuqtai nazardankaraydigan bo'lsak, kichik sirt enegiyasiga ega bo'lgan bog'lovchilar (ya'ni kukunsimon) va dispers to'ldiruvchilarni ishlatish juda yaxshi natijalarni beradi. Bunda kogezion mustahkamlikni kamaytiruvchi quyi molekulyar fraksiyalar va aralashmalardan ozod bo'lishga erishiladi.

Adgeziyani oshirishni keyingi yo'li - PKMga kam miqdorda boshqa xil polimer qo'shish bilan adgezion mustahkamlikni oshirish. Bu usul yuqorida aytib o'tganimizdek PKMlar qovushqoqligini kamayishiga, hamda PKMlar mustahkamlik xossalarni yaxshilanishiga olib keladi. PKM qovushqoqligini kamayishi molekulyar kontakt shakllanishini yengillashtiradi. Chunki qovushqoqlikni kamayishi tolasimon to'ldiruvchini namlanishini yaxshilaydi (propitka). Adgeziyani oshirish va yangi adgeziyalar yaratish aynan ana shy xodisaga asoslangan. Bunday PKMlar ichidagi kam miqdorda qo'shilgan bog'lovchi hamda asosiy bog'lovchilar ikkinchi avlod bog'lovchilari deyiladi. Ikkinchi avlod bog'lovchilari yaratib adgeziyani oshirish va yangi adgezivlar yaratishga bir-birida o'zaro erimaydigan ikki xil polimer asosida adgezivlar yaratish misol bo'la oladi. Bunday polimerlar nisbati ularni mustahkamlik xossalarni turlicha ortib borimi bilan tanlanadi.

Polimer gibrildi bog'lovchilarni ikkinchi avlod bog'lovchilari deyiladi. Ularni ishlatish PKMlarni bir qancha xossalarni yaxshilaganligi uchun ularni ishlatish ravnaqli. Bu xossalarga dinamik kuchga chidamlilik, ichki kuchlanishni keskin kamaytirish kabilari misol bo'la oladi. Gibrildi bog'lovchilarni ishlatishni yana bir guruxi - kogezion mustahkamlikni oshirish uchun ikki xil polimerni aralashmalari, ya'ni bir-biriga turlari o'tuvchi polimerlar hosil qilish kiradi (polimer turlari). Bu holatda ham 2 xil polimerni xossalarni boshqarish bilan turli xususiyatlarga ega bo'lgan polimer kompozitsion materiallar yaratim mumkin. Bunday bir-biriga turlari o'tuvchi polimerlar - ya'ni adgezivlar shakllanishida tur hosil qiluvchilarni bir vaqtida lekin turli tezliklarda qotishi ro'y berganligi uchun adgezion birikma shakllanishini birinchi bosqichda polimerlardan biri to'rsimon uch o'lchovli struktura hosil qiladi. Hosil bo'lgan turlar shakllanayotgan adgezion birikmani dastlabki mustahkamlik xossalari ta'minlaydi. Ayni vaqtida 2 chi tur hosil qiluvchi komponentlar plastifikator o'rmini bosib, adgezivdag'i ichki kuchlanishni kamaytiradi. Ikkinchi bosqichda keyingi turni butunlay kotishi ro'y beradi. Bu turni hosil bo'lishi tezligi nisbatan kichik bo'lganligi uchun bu jarayonda ichki kuchlanish paydo bo'lmaydi.

Shunday qilib, adgezion mustahkamlikni oshirish 2 ta omil tufayli amalgalama oshadi. Birinchi omil bir-biriga o'tuvchi to'rsimon polimerlar asosida adgezivni kogezion energiyasini oshirish. Ikkinchi omil - adgezion birikma shakllanishida ichki kuchlanimlarni kamaytirish.

Demak - ikkinchi avlod bog'lovchilarni yaratish, ya'ni polimerlar aralashmasi asosida PKM yaratish ham ularni xossalarni yaxshilanishiga olib keladi.

PKM xossalarni yaxshilash uchun yangi adgezivlar yaratishni yana bir turi bog'lovchilar tarkibiga yaxshi namlanishga yordam beradigan maxsus moddalar qo'shish usuli ham kiradi. Ko'pgina bog'lovchilarga sirt faol moddalar qo'shib smola sirtidagi sirt tarangligini kamaytirish va ularni yaxshi namlanishiga erishish mumkin. Bunda sirt aktiv moddalarni bog'lovchilar tarkibiga kirkazish bilan bog'lovchini sirt bilan kontaktlari yaxshi bo'lishi xisobga adgezion mustahkamlikni oshirish mumkin. Lekin bu usulni o'ziga yarasha kamchiliklari ham mavjud. Yuqorida aytib o'tganimizdek, sirt tarangligi kattaligini kamayishi xisobiga adgeziya ishi kamayadi. Bundan tashqari, sirt faol moddalar molekulalari fazolar ajralish chegarasida qattiq sirt bilan kontaktda bo'lib, qattiq sirtda adsorbsion qatlam hosil qiladi, bu qatlam esa bog'lovchi bilan to'ldiruvchi orasida molekulyar kontaktga to'sqinlik qiladi. Bu sirt aktiv modsdalar hosil qilgan qatlamini mustahkamligi kichik bo'lganligi uchun adgezion birikmalarining buzilishi ko'pincha shu yerdan yuzaga keladi.

Shuning uchun hozirgi kunda bu kamchilikni oldini olish uchun reaksiyon qobiliyatiga ega bo'lgan sirt faol moddalarni ishlatish maqsadga muvofik. Bu sirt faol moddalar bog'lovchi bilan kimyoiy ta'sirlanish qobiliyatiga ega bo'lib, bog'lovchi molekulalari bilan 1 ta uch o'lchamli tur hosil qila oladi. Sirt faol moddani ta'sir qilishi quyidagicha:

Birinchi bosqichda sirt faol modda sirt faolilik funksiyasini bajaradi, ya'ni bog'lovchini namlanish sharotlarini yaxshilab, bog'lovchi bilan to'ldiruvchini molekulyar kontaktini yaxshilanishiga olib keladi. O'z vazifasini bajarib bo'lgandan so'ng sirt faol moddani bu sistemada turishi yuqorida aytib o'tganimizdek endi adgezion bog' mustahkamligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ana shu vaqtida ikkinchi

bosqich boshlanadi. Ya’ni sirt faol modda bog‘lovchi bilan kimyoviy reaksiyaga kirishadi, ya’ni uch o‘lchovli turlar hosil qiladi. Ikkinchisi bosqichda sirt faol modda sirt faollik funksiyasini bajarmaydi. Sirt faol modda hosil kilgan qatlami kimyoviy jarayon tufayli sirt qatlamiga shamilib ketadi. Bunday bog‘lovchilar ham gibrildi PKMlarga misol bo‘ladi.

Demak PKM xossalari yaxshi bo‘lishi uchun gibrildi bog‘lovchilar ya’ni polimer aralashmalaridan foydalanish katta ahamiyatga ega ekan. Shu bilan birga adgezion birikmani bo‘zulishi fazalar chegarasida ro‘y berar ekan. Shuning uchun kuchsiz chegaraviy qatlamlar ularni adgeziyada tutgan o‘rni, adgezivni sirtqi qatlamlarini xossalari o‘rganish va ularni boshqara olish PKM xususiyatlarini yaxshilanishiga olib kelar ekan.

Ko‘pgina olimlar tamonidan o‘rganilishiga adgezivni qat-qat bo‘lib ko‘chishi darz paydo bo‘lishi bilan yuzaga keladi, ya’ni bunda turli tipdagisi molekulalarga ajralish sodir bo‘lmaydi. Bu paydo bo‘lgan darz borgan sari o‘sib boradi va butun yelimlangan qatlam bo‘lib tarqaladi. Bu hosil bo‘layotgan darzni fazolar orasidagi chegaradan uzoqligi shu chegarada ta’sir qiluvchi kuchlar radiusidan bir necha barobar katta. Rasmida qattiq jismlar orasidagi darzni paydo bo‘lishi tasvirlangan.

Hosil bo‘laetgan darz turli yunalishida tarqalishi mumkin. Lekin bu yo‘nalish 2 ta fazani ajralishiga olib kelmaydi. Chunki adgeziv va sirtni bir-biriga tortib to‘rgan kuchlar adgezivni 2 molekulasi tortilib turgan kuchdan ko‘p marta katta. Shuning uchun 2 qattiq jism orasidagi ta’sir qiluvchi kuchlar bo‘linish jarayonida qatnashmaganligi uchun 2 ta qattiq jismni bir-biridan ajratib olish mumkin emas. Demak bo‘zilish (darzni paydo bo‘lishi) chegaradan uzoqda ro‘y beradi, shuning uchun adgezion birikmani buzilishiga olib keluvchi kuchlanish jismni xaqiqiy adgeziyasiga bog‘liq bo‘lmaydi. Shu yerda kuchsiz chegaraviy qatlam konsepsiysi paydo bo‘ladi. Ikki sirt bir-biriga yopishganda, ya’ni adgezion birikma hosil bo‘lishida 2 ta sirt fazalari emas, balki 3 ta faza ishtirok etadi.

Bular adgeziv, to‘ldiruvchi va ular orasidagi muxit (xavo) fazasidir.

Suyuq bog‘lovchi notekis sirt bo‘ylab tarqalganda ular orasida paydo bo‘lgan xavo yaxshilab chiqarib tashlanmasa, bu joyda adgeziv buzilishi uchun markaz paydo bo‘ladi. Xavodan va adgezivni o‘zidan sirtga turli quyi molekulyar aralashmalar tushadi. Adsorbsiyani selektivligi tufayli ular bo‘linish chegarasida to‘planib, sirtda mexanik mustahkam bo‘laman sirtki qatlam hosil qiladi. Ma’lumki, sirtlarni o‘zi ham (adgeziv qoplanadigan) yetarli darajada toza emas, ya’ni turli kimyoviy reaksiyalar mahsulotlari (ya’ni metal sirdagi kuchsiz oksid qatlam) va turli aralashmalarga ega. Yuqorida keltirilgan omillar, ya’ni 2 qattiq sirtlar fazolari orasidagi oblastda ta’sir qilayotgan omillar natijasida kuchsiz chegaraviy qatlamlar hosil bo‘lib, bu qatlamlardan adgezion birikmani buzilishi ro‘y beradi. Sanab o‘tilgan kuchsiz chegaraviy qatlamlarni hosil bo‘lishiga olib keluvchi omillar asosan texnologik omillarga bog‘liq, ya’ni bog‘lovchi tarkibida turli aralashmalarni bo‘lishi, yopishadigan sirtlarni toza emasligi (KMBlar frakfsiyasi), 2 sirtni yopishish shart-sharoitlariga bog‘liq. Shuning uchun 2 faza (to‘ldiruvchi va bog‘lovchi) orasidagi xaqiqiy adgezion buzilish kam holatlarda ro‘y beradi. Ya’ni u adgezion yoki aralash adgezion-kogezion harakterga ega.

Ma’lumki, PKMlarda polimer bog‘lovchi materialni deformatsiyasi vaqtida kuchlanishni butun armirlovchi tola yoki dispers to‘ldiruvchi bo‘lakchalariga uzatish vazifasini bajaradi. Shuning uchun adgezion ta’sirni birinchi vazifikasi ular orasidagi kontaktini yaxshilashdan iborat. Hosil bo‘layotgan kuchsiz chegaraviy qatlamlar to‘ldiruvchi va bog‘lovchini kontaktiga xalaqit berib, ularni mustahkam yopishishiga ta’sir ko‘rsatadi, bu esa PKMlar eksplutatsion xossalari salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Chunki kuchsiz chegaraviy qatlamlarni hosil bo‘lishi adgezion birikmani buzilishiga, ya’ni adgezion birikmada nuqsonlar paydo bo‘lishiga olib keladi. Shuning uchun tarkibiga to‘ldiruvchi qo‘shilgandan so‘ng polimer bog‘lovchi strukturasida qanday o‘zgarish ro‘y berishini o‘rganish PKMlar ekspluatatsion xossalari yaxshilanishiga sabab bo‘ladi.

Tayanch so‘z va iboralar.

Adgezion bog‘, selektivlik, quyi molekulyar aralashmalar, kichik sirt energiyasiga ega bo‘lgan bog‘lovchi va to‘ldiruvchilar (kukunsimon), oldindan to‘ldirilgan bog‘lovchilar, polimer to‘ldiruvchilar,

polimer gibridd bog‘lovchilar, ikki polimer aralashmasi, bir-biriga turlari o‘tuvchi bog‘lovchilar, sirt faol moddalar, kuchsiz chegaraviy qatlamlar.

#### Qaytarish uchun savollar

1. Selektivlik nima va uni adgeziyaga ta’siri.
2. Adgeziyani oshirishda oldindan to‘ldirilgan polimer bog‘lovchilar ishlatishni ahamiyati qanday?
3. Adgeziyada ikkinchi avlod bog‘lovchilarni tutgan o‘rni?
4. Bir-biriga turlari o‘tuvchi gibridd bog‘lovchilarni adgeziyani oshirishdagi vazifasini moxiyati haqida gapirib bering.
5. Bog‘lovchilar tarkibiga sirt faol moddalarni kushish adgezion bog‘ mustahkamligiga qanday ta’sir ko‘rsatadi.
6. Kuchsiz chegaraviy qatlamlar hosil bo‘lishi qanday omillarga bog‘liq?

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lipatov Yu.S. Kompozitsionnye polimernye materialy. Kiev, "Naukova dumka", 1976, 192s.
2. Lipatov Yu.S. Fizicheskaya ximiya napolnennnykh polimerov. M, "Ximiya" 1977g. 305s.
3. Lipatov Yu.S. Budushee polimernykh kompozitsiy. Kiev. "Naukova dumka", 1984g. 135s.
4. Lipatov Yu.S. Mejfaznye yavleniya v polimerax. Kiev, "Naukova dumka", 1980g. 260s.

### *MA’RUZA-7*

#### *Adgeziya nazariyasi asoslari. Sirtki va fazalararo qatlamlar strukturasi va xossalari.*

Reja.

1. Sirtki qatlam hosil bo‘lishida makromolekula segmentlarini o‘rni.
2. Ikki hil to‘ldiruvchilar bilan to‘ldirilgan sistemalar uchun massa ko‘chish xodisasi.
3. PKMlar mustahkamlik xossalarni to‘ldiruvchi turiga va miqdoriga qarab o‘zgariishi.

Adsorbsiya nazariyasidan bizga ma’lumki, polimerlarni qattiq sirtda adsorbsiyasi adsorbirlangan makromolekulalar bog‘larini konformatsiyasini o‘zgarishiga olib keladi. Hosil bo‘lgan adsorbsion qatlam strukturasi juda murakkab bo‘lib, bu struktura qatlamni hosil bo‘lish sharoitlariga bog‘liq. Adsorbsiyalangan zanjirlarni konformatsiyasini o‘zgarishi, bu molekulyar harakatchanlikni keskin pasayyishidir. Shu bilan birga molekulyar harakatchanlik bu makromolekulalarni sirtqi qatlamda o‘zaro joylashishini (saramjonlanishini) va polimerlar struktura hosil bo‘lishini asosiy omillaridan biridir. Adsorbsiya mexanizmi adsorbsiyada faqat sirt bilan kontaktida bo‘lgan makromolekulalar emas, balki sirtdan o‘zokroqda joylashgan makromolekulalar ham o‘z harakatchanligini o‘zgartirishini tushuntiradi). Bu o‘zgarish fazalar orasidagi o‘zaro ta’sir energiyasi, bog‘lar egiluvchanligi, polimerni o‘zidagi molekulalararo ta’sir (kogeziya energiyasi) bilan belgilanadi. Polimer va qattiq sirt fazalari chegarasidagi fizik-kimyoviy xodisalarini o‘rganish PKMlar xossalarni shakllanishida amaliy ahamiyatga ega. Chunki hamma PKMlarda u qanday to‘ldiruvchi bilan (armirlangan yoki dispers) to‘ldirilgan bo‘lishidan kat’iy nazar sirtki qatlam hosil bo‘ladi. Hosil bo‘lgan sirtki qatlamda polimerni to‘ldiruvchi ta’siridag yangi strukturasi shakllanadi. Polimer material strukturasi eritmadan, korishmadan (rasilav) yoki kimyoviy reaksiya jarayonida shakllanishiga qarab, makromolekulalarni segmentlarini struktura hosil bo‘lish markaziga shartli ravishda issiqlik harakati bilan amalga oshadi. Lekin bu massani oqimi struktura hosil bo‘lish markazining statik taqsimlanganligidan biror yunalishiga karatilgan bo‘ladi.

Massa ko‘chish polimer xajmida ta’sir qilayotgan kogezion kuchlar hamda polimerni to‘ldiruvchi bilan kontaktida sodir bo‘layotgan adgezion kuchlar farqiga qarab yo sirtiga karatilgan yoki sirtga ters karatilgan bo‘ladi.

Ikki xil aktiv va inert to‘ldiruvchilar bilan to‘ldirilgan PKMda to‘ldiruvchilar sirtlari yaqinida chegaraviy qatlam shakllanishini ko‘rib chiqamiz.

## Aktiv va inert to‘ldiruvchilar sirtlari yaqinida chegaraviy qatlam shakllanish sxemasi.

Polimerlarni sirtda jipslashishi (zich joylashishi) polimerni chegaraviy qatlam xosil bo‘lishi, qatlamdagi polimerni xossalari uni aynan o‘zini xossalardan farq qiladi.

Agar adgezion ta’sir (kichik bo‘lsa, rasmdagi b holat massa ko‘chish sirtdan polimerga qaratilgan bo‘ladi. Molekulalarni g‘ovak joylashishi 2 xil to‘ldiruvchi bilan to‘ldirilgan holatlarda ham hosil bo‘ladi. 2 chi holatda (inert to‘ldiruvchi) g‘ovak qatlamni hosil bo‘lishi makromolekulalar joylashish jarayonini tugamaganligi, zichlikni bir maromda o‘zgarib borishi bilan bog‘liq. Lekin ikkala holatda ham polimer matritsani turli fraksiyalarda bo‘lishi va ular tarkibida turli aralashmalar borligini ham nazarda tutish kerak.

To‘ldirish jarayonidagi morfologik o‘zgarishlarni keyingi rasmda ko‘rish mumkin.

To‘ldirishni dastlabki, birinchi bosqichda to‘ldiruvchilar dispers bo‘lganligi uchun fazoviy getrogenlik yuzaga keladi.

Ikkinci bosqichda esa chegaraviy qatlam hosil bo‘ladi. Ikkala holatda ham to‘ldiruvchilar dispers bo‘lganligi uchun ikki bosqich ham 2 xil to‘ldiruvchi uchun bir xilda kechadi, ya’ni anik farq bo‘lmaydi.

Avval kompozitsiyani ba’zi xossalari va mustahkamligi bir oz pasayadi, keyin esa aktiv va inert to‘ldiruvchilar bilan to‘ldirilgan kompozitsiyalar sirtki qatamlarida farq sezila boshlaydi.

Asosiy farq bunda aktiv to‘ldiruvchilar bilan to‘ldirilgan sistemalarda koagulyasion strukturalar hosil bo‘la boshlaydi. Bu koagulyasion strukturalarini elementlari to‘ldiruvchi bo‘laklarni qatlamini zich (jism) joylashgan yerlari bo‘lib xizmat qiladi. (rasmdagi "b" holat).

Bu sistemalarni mustahkamligi polimer mustahkamligiga nisbatan katta bo‘ladi. To‘ldiruvchini jips (mustahkam) chegaraviy qatlam bilan fazoviy "karkas" hosil kilgan zaxotiyok kompozitsiyani mustahkamlik xossalari yaxshilana boshlaydi.

Inert to‘ldiruvchi bilan to‘ldirilgan sistemalarda jips (mustahkam) chegaraviy qatlamni mavjud emasligi uchun PKMlar mustahkamlik xossalarni pasayishi kuzatiladi.

Aktiv to‘ldiruvchilar bilan to‘ldirilgan sistemalarda mustahkamlikni ortib borish ma’lum kritik konsentratsiyagacha davom etib, so‘ngra ularni yomonlashuvi kuzatiladi. Shuning uchun to‘ldiruvchini optimal miqdorini tanlash bilan bog‘liq. Agar optimal miqdordan ko‘p qo‘silsa, polimerni PKM dagi miqdori kamayib ketganligi uchun polimer metritsa o‘z yaxlitligini yo‘qotadi (rasmdagi "v" holat)

To‘ldiruvchi konsentratsiyasini ortib borishi bilan polimer mustahkamlik xossalarni o‘zgarib borish quyidagi grafikda ko‘rsatilgan, Bundan ikki xil to‘ldiruvchi bilan to‘ldirilgan PKM xossalarni o‘zgarishi keltirilgan.

Birinchi holatda YEA > YEK

Ikkinci holatda YEA < YEK

adgezion mustahkamlik YEA

kogezion mustahkamlik YEK

Ikkinci holatda fazalar chegarasida adgezion mustahkamlik kogezion mustahkamlikdan kichik bo'ladi. Bu holat ba'zi boshqa sistemalarda ham kuzatiladi. Ya'ni ba'zan aktiv to'ldiruvchi bilan to'ldirilgan polimer kompozitsiyalarda polimer to'ldiruvchi bilan tugridan-tugri adsorbsion kontaktda bo'la olmagan holatlarda ham bo'ladi.

Yana ba'zi sistemalarda to'ldiruvchi sirtida xali struktura shakllanmasdan oldin oralik qatlam hosil bo'lib, bu qatlam ham polimerni to'ldiruvchi bilan tug'ridan-tug'ri kontaktiga xalaqit beradi. Bunday qatlamlarni kompozitsiyaga modifikator sifatida qo'shilgan sirt faol moddalar yoki quyi molekulyar moddalar hosil qiladi. Bunday sistemalar uchun polimer kompozitsiya xossalarini o'zgarib borishi grafikda punktir bilan ko'rsatilgan. Polimer xajmidagi turli quyi molekulyar aralashmalar PKMlar mustahkamligini pasaytirish Ye nuqtadan A nuqtagacha o'zgarib boradi.

To'ldiruvchi qo'shilishi bilan fazalararo sirtni hosil bo'lishi dispers faza aralashmalari bilan adsorbshon "fiksatsiya" paydo bo'ladi.

Bunda struktura elementlari ko'pgina nuqsonlaridan xalos bo'lib, kompozitsiya mustahkamroq bo'la boshlaydi. Egri chiziqda AV ekstremal uchastka paydo bo'lib, bu oraliqda aralashmalarni fazalararo oblastga o'tganligi munosabati bilan mustahkamlik xossalarini ortib borishi kuzatiladi.

Bu effekt qoplamlarga to'ldiruvchi qo'shilganda ham adgezion mustahkamlikni oshishiga sabab bo'ladi. VS va VV uchastkalarida dispers to'ldiruvchi (zarrachalarini) konsentratsiyasi ortib borishi bilan turli aralashmalar tutgan sistemalar uchun ham, aralashmalar bo'lmagan sistemalarda ham bir xil bo'ladi. Bunday adsorbsion kuchaytish mexanizmi tufayli birinchi navbatda polimerni amorf fazalarini tarkibi o'zgaruvchanligi xisobiga amorf ya'ni oraliq zonalar o'zgaradi.

Shunday qilib polimerni to'ldiruvchi sirti bilan o'zaro boshnishida asosiy effektlar to'ldiruvchi qo'shilishi bilan boshlanadi. Dispers to'ldiruvchi miqdori kam qo'shilgan oblastlarda struktura hosil bo'lishi yuqori normallash (normirovanie) va polimerni amorflanishi harakterli. Undan so'ng modifikatsiyalash effekti adsorbsion mexanizm orqali amalgalashadi, bu jarayonda strukturani boshqarish quyi molekulyar aralashmalarni to'ldiruvchi sirti yaqinidagi fazalararo oblastida bog'lanishi orqali amalgalashadi. Undan tashqari kuchaytirish effekti dispers to'ldiruvchini o'ziga kos bo'lgan mexanizmlarini paydo bo'lishi bilan ham bog'liq.

Tayanch so'z va iboralar.

Massa ko'chish, sirtki qatlam strukturasi., molekulyar harakatchanlik, faol va inert to'ldiruvchi, jips chegaraviy qatlam, g'ovak tag qatlam, to'ldirish jarayonida morfologik o'zgarishlar, adgezion mustahkamlik, kogezion mustahkamlik, quyi molekulyar aralashmalar.

Qaytarish uchun savollar.

1. Makromolekula segmentlari sirtqi qatlam strukturasi hosil bo'lishida qanday o'zgarishlarga uchraydi? Massa ko'chish adgezion va kogezion kuchlar tabiatiga qarab qanday yunalishida bo'ladi?
2. Massa ko'chish xodisasini ikki xil to'ldiruvchi bilan to'ldirilgan sistemalar uchun tushuntirib bering.
3. To'ldirish jarayonida qanday morfologik o'zgarishlar kuzatiladi?
4. To'ldiruvchi turiga va konsentratsiyasiga qarab PKM mustahkamlik xossalarini o'zgarib borishini tushuntirib bering.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Lipatov Yu.S. Kompozitsionnye polimernye materialy. Kiev, "Naukova dumka", 1976, 192s.
2. Lipatov Yu.S. Fizicheskaya ximiya napolnennykh polimerov. M, "Ximiya" 1977g. 305s.

3. Lipatov Yu.S. Budushee polimernykh kompozitsiy. Kiev. "Naukova dumka", 1984g. 135s.
4. Lipatov Yu.S. Mejfaznnye yavleniya v polimerax. Kiev, "Naukova dumka", 1980g. 260s.

**8-MA'RUZA**  
**Fazalararo qatlam va sirtqi qatlam strukturasi va xossalari.**  
 Reja

1. Mineral va polimer to'ldiruvchilar bilan to'ldirilgan PKMlar xossalari.
2. Ikki xil polimer aralashmalarida kontakt oblastlarni hosil bo'lishi.
3. PKMlarda 3 xil zonadagi holatlar.

Ma'lumki, polimer asos polimer to'ldiruvchi bilan tabiiy yoki sintetik tolalar bilan to'ldirilgan yoki bir-birida erimaydigan turli polimerlar asosida olingan turli xil kompozitsion materiallar juda keng qo'llaniladi. Chunki PKMlarda to'ldiruvchi sifatida ishlatiladigan tolasimon va dispers to'ldiruvchilar mineral to'ldiruvchilarga karaganda bir qancha afzallikkarga ega. To'ldiruvchi tola hamda bog'lovchi asos ikkalasi ham polimer bo'lganligi uchun bunday PKMdafa fazalararo xodisalar mineral to'ldiruvchi asosida olingan PKMdagi fazalararo xodisalardan keskin farq qiladi. Bunday PKMlarda bog'lovchi bilan to'ldiruvchi polimer bo'lganligi uchun ularni termik kengayish koeffitsienti bir-biriga yaqin bo'lganligi uchun sistemada termik kuchlanish pasayish xisobiga ko'shimcha mustahkamlik effekti yuzaga keladi. Nazariy tomondan, ya'ni termodinamika nuqtai nazaridan sirt energiyalari kichik bo'lgan ikki xil polimer fazalari uchun adgeziyani bo'lishi amalda mumkin emas. Lekin bu ikki faza chegarasida polimerlar uchun aynan xos bo'lgan oddiy molekulalararo ta'sirni mavjudligi, bu ikki faza orasida mustahkam bog'ni vujudga kelishiga sabab bo'ladi.

Bunday holatda fazalar bo'linish chegarasida ikki xil turdag'i fazalararo qatlam paydo bo'ladi. Ikki xil polimer aralashmasi kontakt oblastlar sxemasi quyidagi rasmda ko'rsatilgan.

Polimer fazani polimer matritsadagi bo'lagi

Birinchi (a) xolatda komponentlarni o'zaro ta'siri va molekulalararo (fazalararo) ta'sirni paydo bo'lishi ikkala komponentda (to'ldiruvchi va bog'lovchi)da xam struktura hosil bo'lish jarayonini pasaytiradi va bu ta'sir chegaraviy sirdan ikki tomonga tarqaydi. Bunda har bir polimer komponenti o'zi bilan chegaradosh bo'lgan polimer komponentiga struktura hosil bo'lishiga qarshilik qiladi. Ikki faza orasidagi oblastni ikki kontaktda bo'layotgan chegaraviy qatlam sifatida qarash mumkin. Ularni ikkalasini ham strukturadagi xossalari dastlabki xossalardan farq qiladi.

2 xil polimer aralashmasi kontakt oblastlar sxemasi

Ikkinchi (b) holatda esa oraliq, qatlam paydo bo'ladi (vujudga keladi). Bu oraliq, qatlama ikkala fazadan ham mikroblast qo'shilgan bo'ladi. Paydo bo'lgan oraliq qatlama polimer strukturasida qayta ishslash jarayonida o'zaro diffuziya natijasida yoki mexanik va termik kuchlanishlar natijasida paydo bo'lgan bir polimer struktura elementlarini ikkinchi polimer strukturasiga deffektiga kirishi extimolligi bo'ladi.

Ma'lum sharoitlarda, masalan komponentlar sirt tarangligi juda yaqin bo'lsa, struktura shakllanish jarayonida chegara nomustahkam (turgunmas)bo'lib, bir polimerni ikkinchisida emulgatsiyalanishi sodir bo'lishi mumkin. Bu holat ko'pincha ikki xil polimer aralashmasi asosida olingan kompozitsiyalarda kuzatiladi. Ya'ni bunda oraliq qatlam hosil bo'lib, bu qatlam bir polimerni ikkinchisidagi emulsiyasidan iborat.

Bunda oraliq oblast ikki fazadan iborat bo'lib, bunda qo'shni fazalar nisbatlari bir polimer asosiy massasini ikkinchisiga o'tishga qarab o'zgarib turadi. Polimer fazani polimer matritsadagi bo'lagini sxematik ko'rinishini keyingi rasmda keltirilgan. Aliq qatlam bu mikroemulsiya bo'lib, undagi zarrachalar polimer to'ldiruvchini dispers fazadagi zarrachalaridan ancha kichik bo'ladi. Oraliq, qatlarni shakllanishi kolloid kimyoviy tamoyillar bilan aniqlanadi. Bu shakllanishni 3-rasmda ko'rib chiqishimiz mumkin. Polimer komponentlarni  $K_1$  va  $K_2$  deb, ularni qattiq agregat holatiga o'tish

haroratlarini  $T_1$  va  $T_2$  deb belgilaymiz. Bu sxemadagi egri chiziq tepasidagi oblast bir polimerni ikkinchisidagi eritmasidir (suyuq qotishma), sxemadagi  $K_1 + K_2$  oblast. Harorat pasayishi bilan komponentlar nisbatiga bog'liq ravishda sistemanı turli fazalarga qatlamlanishi sodir bo'ladi. OA va DE oblastlarida, ya'ni polimerni miqdori kam bo'lgan oblastlar bo'lib, bunda gamogen qorishmani hosil bo'lishi sodir bo'lib, sovutilganda bu qorishma suspenziya holatiga o'tadi (rasmdagi 2, 13 oblastlar). Suspenziyani bo'laklari asosiy polimerdagı qo'shimcha polimerni qattiq erigan bo'laklaridan iborat. Rasmda 2 zonada  $K_2$  polimerdagı  $K_1$  polimerni bo'laklaridan iborat suspenziya ( $K_2$  ni  $K_1$  dagi suspenziyasi, suyuq faza ham shu eritmalardan tashkil topgan, lekin bunda komponentlar nisbati turlich. Bu suyuq va qattiq. Fazadagi polimerlarni nisbati bikomponent (ikki komponentli) sistemalar uchun klassik koidalarga amal qilgan xolda aniqlanadi. Ya'ni bunda turli haroratlar va tarkiblarda 2, 13 zonalarni bo'laklash Gibbsni fazalar qoidasiga amal qilgan holda aniqlanadi. Ikki komponent va ikki fazada xar bir xaroratga suyuq va qattiq fazalarning qatiy tarkiblari to'g'ri keladi. 3 zonada  $T_2$  dan past xaroratdagı oblast gamogen qattiq xolatda bo'ladi, ya'ni komponentlar qattiq eritma xolida bo'ladi, bu oblastda polimerlar qorishma hosil qiladi. Komponentlarni boshqa nisbatlarida AA<sup>1</sup> chiziqda to'g'ri keladigan soxada, sistemada qatlamga ajralish yuz berib, polimer modifikator alohida fazaga ajralib chiqadi. Qorishmadagi bu jarayon 1 zonadan 4 zonaga fazada har bir haroratga suyuq va qattiq fazalarning qatiy tarkiblari to'g'ri keladi. 3 zonada  $T_2$  dan past haroratdagı oblast gamogen qattiq holatda bo'ladi, ya'ni qatlamga ajralish chizig'iga o'tayotganda yuz beradi. Bunda 4 zonada  $K_2$  ning  $K_1$  dagi emulsiyasi hosil bo'ladi. Birinchi komponentni qattiq holatga o'tish harorati  $T_1$  ni pasayish suyuq emulsiyani qattiq holatga o'tishi bilan sodir bo'ladi. (rasmdagi 5 zona).

SD oraliqdagi sistemani AV oraliqdagi sistemadan farqi shundaki, uzlusiz muxit (sreda) hosil qilayotgan komponent dispers fazaga nisbatan past haroratda qattiq agregat holatiga o'tadi. Shuning uchun 11 zonada 5 zonadan farqli uzlusiz qattiq muxit va suyuq dispers muxitda hosil bo'lgan qattiq emulsiya emas, balki emulsiya hosil bo'ladi.

6 chi va 12 chi zonalar bir-biriga o'xshash va xuddi qattiq, suspenziya kabi harakterlanadi.

Oraliq tarkibli xolatlar uchun (7,8,9 zonalar) zonalarni bir-biri to'yingan struktura hosil bo'ladi. Bu intervalda qarshi komponentni o'z tarkibida saqlab yoki saqlamagan bir-biriga o'tuvchi fazalarni bir vaqtda mavjud bo'lishi kuzatiladi. Bu oraliqda konsepsiysi uchun sistema kolloid strukturasi  $K_1 + K_2$  deb, agar xajmda dispers kirishlar bo'lsa, unda tadqiq qilish strukturasi ( $K_2$  ni  $K_1$  dagi) + ( $K_1$  ni  $K_2$  dagi) deb belgilash mumkin.

Shunday qilib, oraliq qatlam strukturasi hosil bo'layotgan holat sxemasini 3 diapazonga bo'lish mumkin:

- $\alpha$ -zona - gomogen holat
- $\beta$ -zona - mikroeterogen holat
- $\gamma$ -zona geterogen holat

Polimer aralashmasi asosida olingan PKM lar sirt energiyasi ancha yuqori bo'lgan mineral dispers to'ldiruvchi bilan to'ldirilgan PKMlarga qaraganda turli -tuman strukturalarni hosil bo'lishi bilan katta farq qiladi.

Bir biriga o'tuvchi qatlam strukturasi hosil bo'lishni boshqa turlari ham bor. Agar polimer kompozitsion material tarkibida armirlangan material sifatida organik tola ishlatsa, bog'lovchini qotirish jarayonida harorat va bosim ta'siridan tolani sirdagi strukturasi buzilib, bog'lovchi va tola orasidagi chegara yuvilib ketadi (razmivaetsya), Bu jarayonlar esa tolaning mustahkamligini pasayishiga, o'z-o'zidan PKM mustahkamligini pasayishiga olib keladi. Chegarani yuvilib (buzilib) ketishi tolaning dastlabki sirti, xrlati va ishlatilaetgan bog'lovchi turiga bog'liq.

Demak, an'anaviy organik tolalar (poliamid, poliefir, viskoza) bilan armirlangan PKMlarda fazalararo xodisalar faqat bo'linish (ajralish) sirti yaqinidagi bog'lovchini sirtqi qatlamni yoki chegaraviy qatlamni o'zgarishi emas, balki tola sirtqi qatlamini ham o'zgarishi bilan farq qiladi.

Organik tolalar uchun mineral to'ldiruvchilardan farq qiluvchi fazalararo xodisalar yana bir o'ziga xos xususiyati bor. Ya'ni tolaning sirti xossalari uning faqat kimyoviy tabiatiga bog'liq, bo'lmay, balki tolani formallash (shakllash) vaqtida uni qanchaga (qancha marta) cho'zilganligi bilan ham bog'liq.

Cho‘zish (vütyajka) darajasini o‘zgarishi tolani namlanishini turlicha bo‘lishga, ya’ni tolani tortish soniga qarab adgezion mustahkamlik va o‘tish oblasti strukturasi o‘zgaradi.

Polimer yoki armirlangan to‘ldiruvchi bilan to‘ldirilgan PKM komponentlarini bir-biri bilan kimyoviy bog‘ hosil qila olishdir, bunda to‘ldiruvchi polimer bilan ta’sirlana oladigan guruxga ega bo‘ladi.

Polimer yoki armirlangan to‘ldiruvchi bog‘lovchi bilan kimyoviy bog‘ bilan bog‘langan bo‘lsa, xuddi mineral to‘ldiruvchilarni appretlagan kabi, PKMni xossalarini ma’lum bir darajada yaxshilashi kerak. Organik tolani bog‘lovchi bilan kimyoviy bog‘lana olishi tolaning aynan o‘zining xossalariga bog‘liq, bu xossalar esa bog‘lanish mobaynida o‘zgaradi. Shunday qilib, mineral armirlangan tolalardan farqli sintetik va sun’iy tolalar bilan armirlanganda armirlovchi to‘ldiruvchini o‘zini xossalari o‘zgaradi.

Yangi yuqori mustahkamlik, issiqbardoshlik kabi xossalarga ega bo‘lgan organik tolalar turlarini yaratilishi, ular asosida olingen PKMni xossalarini an’anaviy kimyoviy tolalar asosida olingen PKMni xossalaridan keskin farq qilganligi uchun hozirgi kunda bunday tolalar va ular asosida PKM yaratish dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Yana dispers polimer to‘ldiruvchilar ustida to‘xtaladigan bo‘lsak, ularni polimer asosga kiritilishi xuddi mineral to‘ldiruvchilar kabi bo‘ladi. Lekin termodinamik polimer bo‘lgan holatda ular termoplast matritsa bilan birga qorishma (rasplav) xoliga o‘tkazilib, bu qorishma holatidan mahsulotdan buyum olinadi (mahsulotga forma beriladi).

Sovutishda polimer komponent va to‘ldiruvchi kabi fazaga bo‘linish yuz berib, to‘ldiruvchi matritsada mayda dispers bo‘lak xolida ajraladi. Kompozitsiya tarkibi va qayta ishlash sharoitini o‘zgartirib hosil bo‘laetgan dispers faza bo‘laklar o‘lchamini boshqarish mumkin. Bunday holatni mineral to‘ldiruvchi ishlatganda amalga oshirib bo‘lmaydi.

Ko‘rilayotgan PKMdai to‘ldiruvchini kuchaytirishdan tashqari yana bir effekti bor. Polimer to‘ldiruvchi ishtirokida bo‘linish (ajralish) chegarasida ta’sir qilayotgan kolloid kimyoviy omillar tufayli kichik sirt faol fraksiyalarni yig‘ilishi. Matritsani esa yuqori molekulyar fraksiyalar bilan to‘yinishi yuz beradi. Shu tufayli termoplastik matritsani mustahkamlik xossalarini keskin ko‘tarilishi yuz beradi. Xuddi metallni legirlash kabi polimerni kam miqdorda qo‘shilgan polimer bilan modifikatsiya qilish deb tushuntirish mumkin.

Olimlarning izlanishlari polimer matritsaga kam miqdorda polimer komponent qo‘shganda mustahkamlik xossalarini keskin ko‘tarilish effekti yuz berishini isbotladi.

Yana bir masala xususida to‘xtalib o‘tish mumkin. PKMlarda ko‘pincha mahsulotni shakllash jarayonini polimerni sintez qilish jarayoni bilan bir vaqtida olib boriladi (tayyorlanadi), ya’ni smolani qotirish bevosita undan mahsulot formallash bilan bir vaqtida yuz beradi. Bunda qotirish jarayonini to‘ldiruvchi sifatidagi yupka sirtki qatlamda amalga oshishni xisobga olish zarur. Bunda sirt tabiatiga qarab, olinayotgan polimer xossalarini o‘rganish mumkin. Aniqlanishga sirt fazoviy turni zichligiga (chastota setki), molekulyar og‘irlikka, birinchi va ikkinchi reaksiyalar tezliklari nisbatiga ta’sir ko‘rsatadi.

Bularni barchasi, PKM shakllanish jarayonida hosil bo‘lgan polimerni kimyoviy strukturasi xuddi shu smolani to‘ldiruvchi sirti, ya’ni o‘zini qotirishda hosil bo‘lgan strukturasidan keskin farq qiladi degan xulosaga olib keladi. Polimerni to‘ldiruvchi sirti ishtirokida qotirish reaksiyasini o‘ziga xos xususiyati to‘ldiruvchini sirt bilan kimyoviy bog‘lanishi payvand polimerlanish reaksiyasi asosida sodir bo‘ladi. Bunday usul komponentlar orasida adeziya yetarli bo‘lmagan materiallar uchun kullanilsa maqsadga muvofik bo‘ladi. Payvandlash imkoniyati to‘ldiruvchi strukturasi bilan aniqlanadi.

Shuning uchun PKM xossalarini va sirt xossalarini xarakterlab beruvchi asosiy omillar deb sirtni «tozalik» darjasini ya’ni sirtdan turli aralashmalarni yo‘qotish (bu aralashmalar to‘ldiruvchini olishdag‘i texnologii jarayonlarda hosil bo‘lgan) sirtni g‘adir-budirligi (bu sirtni to‘la namlanishini aniqlaydi.) va bo‘linish chegarasida kuchsiz chegaraviy qatlamni hosil bo‘lishi, ya’ni buzilishga sabab bo‘ladigan nuqsonlarni paydo bo‘lishi, sirtni kimyoviy turli tumanligi (turli funksional guruxlarni bo‘lishi) kabilarni xisoblash mumkin.

### Tayanch so‘z va iboralar

Sintetik va tabiiy tolalar, polimer to‘ldiruvchi va polimer asos, ulardag‘i fazalararo xodisalar, qo‘srimcha mustahkamlik effekti, molekulalararo ta’sir, molekulalararo ta’sirni paydo bo‘lishi, struktura

shakllanish jarayonini pasayishi, oraliq qatlam paydo bo‘lishi, bir polimerni ikkinchisidagi emulsiyasi, mikroemulsiya, kolloid-kimyoviy tamoyillar, emulsiya, qattiq emulsiya, qattiq suspenziya, qattiq eritma, gamogen holat, mikrogeterogen holat, geterogen holat, to‘ldiruvchini sirtki qatlam strukturasini o‘zgarishi, tolaning formallah sharoiti, polimer komponentlarni bir-biri bilan kimyoviy bog‘ hosil qila olishi, mahsulotni shakllash va polimerni sintez qilish jarayonlarini birqalikda olib borish, to‘ldiruvchi sirtining «tozalik» darajasi, sirtni kimyoviy turli tumanligi.

Qaytarish uchun savollar

- 1.Nima uchun polimer to‘ldiruvchilar asosida olingan.
- 2.PKM xossalari mineral to‘ldiruvchilar asosida olingan PKM xossalardan farq qilishini tushuntiring.
- 3.Ikki xil polimer aralashmasi kontakt oblastlar sxemasini tushuntiring.
- 4.Polimer to‘ldiruvchi fazasini polimer matritsa asosida olingan.
- 5.PKMLarni xil zonadagi holatlarini tushuntiring.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Yu.S. Lipatov «Budushee polimernyx kompozitsiy», Naukova dumka,Kiev 1984 str. 80-87.
2. Lipatov Yu.S. Fizicheskaya ximiya napolnennnyx materialov,M. Ximiya, 1977, str. 196-200.
3. Lipatov Yu.S. Budushee polimernyx kompozitsiy. Kiev. "Naukova dumka", 1984g. 135s.
4. Lipatov Yu.S. Mejfaznne yavleniya v polimerax. Kiev, "Naukova dumka", 1980g.260s.

### **9-MA’RUZA PKMning mikrogeterogenligi**

Reja.

1. Mikrogeterogenlikni yuzaga kelish sabablari.
2. Mikrogeterogenlikni turlari.
3. Mikrogeterogenlik harakterli bo‘lgan sistemalar.

PKMni mikrogeterogenligini o‘rganish fazalararo va sirtqi qatlamlar strukturasini fizik-kimyoviy nazaryasini eng asosiy aspektlaridan biridir.

Yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek fazalararo chegarada yuz beradigan jarayonlar polimerlarni fazalar orasida hosil bo‘lgan qatlamlaridagi xossalari o‘zgarishiga olib keladi.

PKM qanday to‘ldiruvchi bilan to‘ldirilishidan qatiy nazar, unda bir-biridan keskin farq qiluvchi ikki xil faza mavjudligi uchun, u geterogendir. Mana shu teterogenlik bilan bir katorda mikroskopik darajada PKM strukturasida turli jinslilik sirtki va fazalararo qatlama polimer xossalari o‘zgarishi bilan bog‘liq. Organik tola yeki dispers polimer to‘ldiruvchi bilan hosil silingan PKMda to‘ldiruvchi sirtida to‘ldiruvchini aynan o‘xshash xossalardan farq qiluvchi xossaga ega oraliq qatlam hosil bo‘ladi.

Demak, PKMni shartli ravishda 3 fazali sistema deb qarash mumkin.

Bular:

- polimer fazasi
- to‘ldiruvchi fazasi
- fazalararo qatlam fazasi (alohida xossalarga ega bo‘lgan)

PKMni shartli ravishda bunday 3 xil fazaga bo‘lish bu sitemani mexanik xossalari ni nazariy tomondan xisoblab chikishga va PKM xossalariiga fazalararo ta’sirini baxolashga imkon yaratadi. Olimlarning izlanishlari, nazariy xisoblashlar PKMda fazalararo qatlamning mavjudligini xisobiga mikrogeterogenlikni paydo bo‘lishini kursatdi. Bu izlanishlar PKM xossalari nafaqat baxolash, balki fazalararo qatlam tabiatini va strukturasini o‘zgartirib, PKM xossalari o‘zgarishiga imkon yaratadi.

Sistemada mikrogeterogenlik qanday yuz beradi degan savol tug‘ilishi tabiiy.

1) Agar oraliq qatlam holatiga polimerni ko‘prok. qismi o‘tgan bo‘lsa, polimer faza va sirtki qatlamning xossalari bir xil bo‘ladi. Bu holat ko‘pincha yuqori darajada to‘ldirilganPKMlarda ya’ni polimer qattiq. sirtda faqat yupkaqatlam holatida bo‘lganda yuz

beradi. Lekin bunda polimer faza o‘zini barcha xossalari namoyon qiladigan uning strukturasini xisobga olish juda muxim.

Fazalar bo‘linish chegarasida yuz berayotgan sirt xodisalari sirtki qatlama xossalari o‘zgarib borishini uni bo‘linish chegarasida yo‘qolib borishi bilan bir tekis bog‘liq ravishda o‘zgarib bormasligini ko‘rsatadi.

Ma’lum bo‘lishicha sirtki qatlama to‘ldiruvchini ba’zi xossalari o‘zgarib borsa, ba’zi xossalari o‘zgarmay kolar ekan. Shuning uchun bu qatlama turli tashqi ta’sirlarga (mexanik, issiqlik) reaksiyasi turlicha bo‘ladi. Mana shu omillar sirtki qatlama ma’lum darajada mikrogeterogenligini ko‘rsatadi.

2) Mikrogeterogenlik paydo bo‘lishining ikkichi omillari makromolekulalar formasini turli shaklda bo‘lishi bilan bog‘liq. Chunki makromolekulalar sirtdan o‘zokda agregat holatida yoki u bilan tugidan-tugri ta’sirda bo‘ladi. Makromolekulalarni sirtdan turli masofada Joylashishi mikrogeterogenlikni ikkinchi turini yuzaga keltiradi. Chunki bu molekulalarni joylashishini sirtki qatlama zichligini turlicha bo‘lishini yuzaga keltiradi. Sirtki qatlama molekulyar xossalari sirtga perpendikulyar ravishda monotop bo‘lmagan holatda o‘zgarishi molekulyar darajada mikrogeterogenlikni paydo bo‘lganligi bildiradi. Bu mikrogeterogenlikni harakteri va sirtdan kay masofada joylashganligi to‘ldiruvchi va polimerni sirti xossalari bilan bog‘liq. Agar fazalararo chegarada adezil kuchli bo‘lsa va polimer jismini o‘zida molekulalararo ta’sir kuchlari katta bo‘lsa, sirt ta’sirida xossalarni o‘zgarishi ham sirtdan katta masofaga tarkaladi (o‘zokrokka).

Shunday kilib, bu yerda kogeziya energiyasi ham katta urin tutadi. Chunki u xossalari o‘zgaradigan sirtni qanday masofada to‘rganini aniklab beradi.

Sirt ta’sirini molekulalararo kuchlar orqali molekuladan o‘zatilish molekulyar darajada mikrogeterogenlikni keltirib chiqaradi. Lekin shu bilan birga molekulyar xossalarni o‘zgarishi sirt yaqinida polimer strukturasini (amorf yoki kristall) o‘zgarishdan darak beradi.

Ko‘pgina xollarda yaxshi kristallanuvchi polimerlarni makromolekulalar adsorbsion sirtdagি molekulyar harakatchanligi tufayli yupka qatlama yaxshi kristallanmaydi, ya’ni kristallanishga moyilligi kamayadi. Strukturering molekulyar va ustmolekulyar darajada o‘zgarishi struktura darajasida va ustmolekulyar darajada mikrogeterogenlikni yuzaga kelishidan darak beradi

Yuqorida bog‘lovchini qotirishdagi kimyoviy reaksiyasi sirtki kotlam kimyoviy strukturasiga katta ta’sir qilishi haqida to‘xtalib utgan edik. Molekulalarni sirtdan turlicha masofada turishi kimyoviy reaksiya tezligini komponentlar nisbatini (sirtdan tanlangan adsorbsiya xisobiga) o‘zgarishiga olib keladi. Shunday kilib kimyoviy mikrogeterogenlik yuzaga keladi.

Yuqorida keltirilgan mikrogeterogenlikni turlari strukturaviy, molekulyar, ustmolekulyar, kimyoviy mikrogeterogenliklar alohida sodir bo‘lmaydi, ya’ni ular bir-biri bilan o‘zviy bog‘liq. Ya’ni kimyoviy mikrogeterogenlik albatta molekulyar va ustmolekulyar geterogenlikka olib keladi.

Polimer-polimer sistemalarida mikrogeterogenlikni kushimcha turlari ham kuzatiladi. Bu mikrogeterogenlik ikki faza orasida strukturasiz zonani paydo bo‘lishi yoki diffo‘zion «emulsion» oralik qatlama hosil bo‘lishi bilan bog‘liq.

Mikrogeterogenlikni paydo bo‘lishiga yana bir asosiy sabab, bog‘lovchi va polimer fraksiyalari komponentlarini sirt faoliylari va sirt tarangliklarini orasidagi farqlarni mavjudligi tufayli yuzaga keladi. Bu kolloid-kimeviy mikrogeterogenlik deb ataladi.

Sirt ta’sirida polimerni to‘ldiruvchisiz hosil kilgan sirt qatlama farq kiluvchi sirtda komponentlar va fraksiyalarni taqsimlanishi yuzaga keladi. Bu esa o‘z navbatida sirt xossalari va molekulyar massalarga bog‘liq bo‘lgan mikrogeterogenlikni yuzaga keltiradi. Mikrogeterogenlikni paydo bo‘lishi sirtki va fazalararo qatlama kogeziya energiyalarini yoki kogezion mustahkamlikni turlichaligidan darak beradi.

Sirtki yoki fazalararo qatlama bir tekis mustahkamlikki ega emas, u mikrogeterogen. Shu mikrogeterogenlikni PKM xosssalarini o‘rganishda xisobga olish zarur. Demak, mikrogeterogenlikni paydo bo‘lishini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Molekulyar mikrogeterogenlik. Bu mikrogeterogenlikni paydo bo‘lishi fazalararo qatlama turli fizik harakteristikalarini o‘zgarishi bilan bog‘liq. Ular polimer zanjirida makromolekulyar tuzilishni

harakterlovchi omillar (termodinamik xossalari, molekulyar harakatchanlik, erkin xajm, joylashish zichligi, molekulalararo ta'sir darajasi kabilar).

2. Strukturaviy mikrogeterogenlik. Bu mikrogeterogenlik makromolekulalarni sirtki va oralik qatlama fazoviy chegaradan turlicha o'zoklikda hamda bir-biriga nisbatan joylashish natijasida yuzaga keladi. Bu mikrogeterogenlik amorf polimerlarda, yaqin masofada tartib va kristall polimerlarda kristallanish darajasi bilan bog'liq.

3. Ustmolekulyar mikrogeterogenlik. Bu mikrogeterogenlik sirtki qatlama va xajmdagi molekulalarning ustkurma strukturasini joylashishi va shakllanish harakteri bilan bog'liq.

4. Kimyoviy mikrogeterogenlik. Bu mikrogeterogenlik polimer molekulasi shakllanishiga bo'linish chegarasini ta'siri bilan bog'liq ravishda yuzaga keladi. Bu mikrogeterogenlik yuqorida keltirilgan mikrogeterogenliklarni vujudga kelishida kushimcha sabab ham bo'la oladi.

Yuqorida keltirilgan mikrogeterogenlikni turi mineral to'ldiruvchilar bilan to'ldirilgan polimer sistemalari uchun harakterli. Shuningdek mikrogeterogenlikni bu 4 turi polimer to'ldiruvchi bilan to'ldirilgan polimer sistemalari uchun ham urinli. Mineral to'ldiruvchi Bilan to'ldirilgan polimer sistemalarida mikrogeterogenlik

faqat polimer - asosdagi fazalararo xodisalar tufayli vujudga kelsa, polimer- to'ldiruvchi polimer sistemalarida mikrogeterogenlik polimer polimer-to'ldiruvchi va polimer komponentlari orasidagi oralik, qatlama xodisalar tufayli vujudga keladi.

5. Kolloid-kimyoviy mikrogeterogenlik. Bu mikrogeterogenlik turli molekulyar massali polimer fraksiyalarini turlicha sirt faolligi va sirt tarangligi tufayli yuzaga keladi.

Mikrogeterogenlikni bu 5 xil turi quyidagi sistemalar uchun harakterli:

1. Dispers mineral to'ldiruvchilar bilan to'ldirilgan polimer sistemalari;
2. Komponentlari diskret yoki uzlusiz tarkalgan polimerlar aralashmasidan iborat ko'p fazali polimer sistemalari;
3. Dispers polimer to'ldiruvchilar bilan to'ldirilgan polimer sistemalari.

Shuningdek polimer yelmlar, krplamalar, armirlangan plastiklar, ya'ni barcha PKM uchun harakterli. Bunda mikrogeterogenlik ba'zi holatlarda dispers muxitda polimer asosda paydo bo'lsa, ba'zi sistemalardan polimer dispers faza va polimer dispers muxitda vujudga keladi.

Polimerlar kimesi ilmiy izlanishlari Hozirgi kunda kelib, polimerlar xossalarni (asosan mexanik), ularning molekulalari ustkurma strukturasidan kelib chikdan xolda tushuntirib berishga ojiz bo'lsa ham mikrogeterogenlik haqidagi bu izlanishlar PKM xossalarni boshqarish ularni shakllanishni tushunishga yordam beradi.

#### Tayanch so'z va iboralar

Sintetik va tabiiy tolalar, polimer to'ldiruvchi va polimer asos, ulardagi fazalararo xodisalar, qo'shimcha mustahkamlik effekty, molekulalararo ta'sir, molekulalararo ta'sirni paydo bo'lishi, struktura shakllanish jarayonini pasayishi, oraliq qatlama paydo bo'lishi, bir polimerni ikkinchisidagi emulsiyasi, mikroemulsiya, kolloid-kimevii tamoyillar, emulsiya, qattiq emulsiya, qattiq suspenziya, qattiq eritma, gamogen holat, mikrogeterogen holat, geterogen holat, to'ldiruvchini sirtki qatlama strukturasini o'zgarishi, tolaning formallah sharoiti, polimer komponentlarni bir-biri bilan kimyoviy bog' hosil qila olishi, mahsulotni shakllash va polimerni sintez qilish jarayonlarini birligida olib borish, to'ldiruvchi sirtining «tozalik » darajasi, sirtni kimyoviy turli tumanligi.

#### Qaytarish uchun savollar

1. PKMda qanday fazalar mavjud, bu fazalarni PKM shakllanishdagi o'rni qanday?
2. Molekulyar mikrogeterogenlik qanday yuz beradi?
3. Strukturaviy mikrogeterogenlik yuzaga kelishini tushuntiring.
4. Ustmolekulyar mikrogeterogenlikni yuzaga kelishi qanday omillarga bog'liq?
5. Mikrogeterogenlikni kolloid-kimyoviy turini tushuntiring.
6. Kimyoviy mikrogeterogenlikni paydo bo'lishi.

## Foydalangan adabiyotlar

1. Lipatov Yu.S. Kompozitsionnye polimernye materialy. Kiev, "Naukova dumka", 1976, 192s.
2. Lipatov Yu.S. Fizicheskaya ximiya napolnennnykh polimerov. M, "Ximiya" 1977g. 305s.
3. Lipatov Yu.S. Budushee polimernykh kompozitsiy. Kiev. "Naukova dumka", 1984g. 135s.
4. Lipatov Yu.S. Mejfaznye yavleniya v polimerax. Kiev, "Naukova dumka", 1980g. 260s.

## 10-MA'RUZA

### *PKMlarni to'ldiruvchilar bilan kuchaytirish mexanizmi. Dispers va mineral to'ldiruvchilar bilan kuchaytirish mexanizmi.*

#### Reja

1. Yuqori elastik holatidagi polimerlarni dispers to'ldiruvchilar bilan kuchaytirish mexanizmi.
2. Reaktor va termoplastlarni kuchaytirish mexanizmi.
3. Tolasimon to'ldiruvchilar bilan kuchaytirish mexanizmi.

To'ldiruvchilarni kuchaytirish harakatlari mexanizmini tushunish, o'rghanish PKM fizik-mexanik xossalarini yaxshilash nuqtai nazaridan juda katta ahamiyatga ega. Kuchaytirish mexanizmmini PKM xossalariga ta'sirini faqat bir nuqtai nazardan bir tomonlama tushuntirish mumkin emas. Bunda material xossalariga ta'sir qiluvchi barcha omillarni: polimer va to'ldiruvchining kimyoviy tabiatini, to'ldiruvchi turini (dispers, tolasimon, mato), polimerning fazaviy holatini, polimerni sirtga adgeziyasini to'ldirilgan polimerni eritmadan yoki suyuqlanmadan shakllash (mahsulot olish) sharoitlarini, suyuq bog'lovchini qotirish sharoitlarini, vulkanlash sharoitlarini va shu kabi omillarni xisobga olish juda muhim. Shuningdek dispers va tolasimon armirlovchi to'ldiruvchilar bilan polimerlarni kuchaytirish mexanizmlari ham bir-biridan tubdan farq qiladi. Shu bilan birga kuchaytirish mexanizmi PKMdan qanday sharoitda foydalanilayotganligi, ya'ni rezina kabi yuqori elastik holatidami yoki ko'pgina termoreaktiv bog'lovchilar va termoplastlar asosida olingen kompozitsiyalarga o'xshash shishasimon yoki kristall holatda foydalanishiga ham bog'liq.

Agar ko'pgicha PKMlarda to'ldirilish darajasini yetarli darajada yuqoriligini xisobga olsak, ularda polimerni ko'proq qismi, ya'ni oraliq qatlamga o'tgan qismini to'ldiruvchi qo'shilmagan qismidan ko'ra boshqacha xossalarga ega ekanligini kuzatish mumkin. Tabiiyki PKM xossalarini to'g'ri tushinish va oldindan bilish uchun bu materiallardagi sirtki qatlam strukturasini o'ziga xos xususiyatlarini, bu strukturaga ta'sir qilayotgan omillarni, zamda bu sirtki qatlam o'zini xossalarni tushinish lozim. Bu omillardan tashqari, PKMni kuchaytirish mexanizmmini o'rganganda avvalo birinchi navbatda polimerni qattiq sirtiga adgeziyasi, ya'ni polimer va qattiq sirt orasidagi chegaradagi bog'lar tabiatini bilish muhim. Chunki polimerni sirt bilan o'zaro (kimyoviy va fizik) bog'lanishi deformatsiya harakterini va to'ldirilgan polimerni buzilishi kabi xossalarni aniqlaydi. Polimerni qattiq faza (to'ldiruvchi) zarrachalari (bo'lakchalari) bilan ta'siri zarrachalari sirtidagi va sirt yaqnidagi kuchlanishlar to'planishlari (konsentratsiyasini) sharoitlarini aniqlaydi. Muxit (polimer) va zarrachalar (to'ldiruvchi) orasidagi chegaradagi kuchlanishlar konsentratsiyasi orasidagi farq material buzilishiga va siljish kuchlanishlarini rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Quyida turli xil holatdagi polimerlarni har xil to'ldiruvchilar bilan kuchaytirish mexanizmlarini kurib chiqamiz.

Yuqori elastik holatdagi polimerlarning dispers to'ldiruvchilar bilan kuchaytirish mexanizmi.

Dispers to'ldiruvchilar bilan kuchaytirish mexanizmi asosan to'ldiruvchini polimer fazadagi miqdori bilan bog'liq. To'ldiruvchi zarrachalarini asta-sekin polimer fazada tarqalishi va ularni polimer molekulalari bilan bog'lanib borishi bilan polimer to'rlarini zichlashishi kuzatiladi. Makromolekulalarni sirt bilan bog'larini tarmoqlangan strukturali turlarni qo'shimcha tarmog'i deb qarash mumkin. Bu qo'shimcha strukturalanish choklanish darajasini ortib borishi bilan to'ldirilgan sistema mexanik xossalarni o'zgarib borishini aniqlaydi. To'ldiruvchini konsentratsiyasini ortib borishi bilan to'ldiruvchi zarrachalarini polimer muhitida zanjirsimon struktura hosil qilib borishi va kuchaytirish qiymatini o'sib borishiga olib keladi. To'ldiruvchini zanjirsimon struktura hosil qilib borish darjasini qancha katta bo'lsa, kuchaytirish effekti shunchalik katta bo'ladi.

Olimlarning olib borgan izlanishlari, kauchuk muxitida aktiv to‘ldiruvchini zarrachalari sirtini energetik turli-tumanligi bilan bog‘liqligini ko‘rsatdi.

Zanjirsimon strukturani kuchaytirish harakati-bu struktura elementi bo‘lib kauchuk molekulalarini orientirlovchi matritsa ekanligidadir.

To‘ldiruvchi zarrachalari va polimer orasidagi bog‘ dastlab tartibsiz holatda bo‘lib, bu bog‘lar deformatsiya jaraenida goh uzilib va qaytadan yangi holatga tiklanib turadi, bunda kuchlanishlarni bir joydagi relaksatsiyasi (mestnaya relaksatsiya) sodir bo‘ladi. Kauchuk va to‘ldiruvchi orasidagi bog‘ qancha mustahkam bo‘lsa, kuchaytirish harakati shunchalik katta bo‘ladi, chunki deformatsiyalar natijasida va undan keyin keladigan makromolekulalar orientatsiyalanishi uzilish uchun yetarli bo‘lgan kuchlanishlarni kuchayishi ro‘y beradi. Shunday qilib, kuchlanishlarni to‘g‘rilanishi zanjirsimon strukturani mustahkam bo‘lib borishi to‘ldirilgan rezinalar mustahkamligini ortishiga olib keladi. Dispers to‘ldiruvchilar bilan to‘ldirilgan kauchuklar mustahkamligini ortib borishiga yana mahsulotni buzilishiga olib keladigan darzlar tarqalish harakterini o‘zgarishi ham sabab bo‘ladi.

Shunday qilib, yuqori elastik holatdagagi polimerlarni kuchaytirishni asosiy omillari: polimer kimyoviy tabiatining o‘ziga xosligi va uni to‘ldiruvchi zarrachalari sirti bilan kuchli molekulalararo ta’siri, shuningdek to‘ldiruvchi zarrachalari bilan ikkilamchi struktura hosil bo‘lishi, materialni tuzilishiga olib kelmaydigan deformatsiya natijasida molekulalar strukturasini qayta qurish to‘r strukturasini buzish ya’ni polimer va to‘ldiruvchi orasidagi bog‘larni uzish, to‘ldiruvchi zarrachalarini shakli va o‘lchami, ularni taqsimlanishi va agregatsiyasi kabilarni xisoblash mumkin.

Termo va reaktoplastlarni dispers to‘ldiruvchilar bilan kuchaytirish mexanizmi.

Shishasimon holatdagagi polimerlarni dispers to‘ldiruvchilar bilan kuchaytirish mexanizmi yuqori elastik holatdagagi polimerlarni kuchaytirish mexanizmidan keskin farq qiladi, chunki shishasimon holatda polimerlar deformatsiyalanishi rezinaga o‘xshab yuqori emas.

Bu holatdagagi kuchaytirishning asosiy omili to‘ldiruvchi zarrachalari orasidagi qattiq qatlamlarda polimer xossalari o‘zgarishidir.

To‘ldirilgan plastiklarda to‘ldiruvchi miqdorini ortib borishi polimerni yupqa sirtki qatlamga o‘tib borishi bilan mustahkamlikni ortib borishi kuzatiladi. Bunday PKMlarda to‘ldiruvchini mustahkamlikka ta’siri nuqsonlarni qattiq sirtda statik taqsimlanishi bilan bog‘liq. Kuchaytirish harakati darzlar chetida sharoitini o‘zgarishi bilan kuchlanishlar relaksiyasi va polimerlarni armirlangan to‘ldiruvchilar bilan kuchaytirish dispers sistemalarda to‘ldirilgan sistemalardan keskin farq qiladi. Bu holatda sistema mustahkamligiga asosan armirlovchi material strukturasini ta’sir ko‘rsatadi.

Armirlovchi element polimer muxitga bog‘liq bo‘lmasa xolda deformatsiya vaqtida kuchni o‘ziga qabul qilib, oluvchi yuqori mustahkamlikka ega bo‘lgan materialdir. Kuchaytirish effekti ko‘pincha armirlovchi materialni o‘zini strukturasini, materialni olinish texnologiyasi kabi omillarga bog‘liq. Lekin shu bilan birga kuchaytirish effektini polimer ishtirokisiz faqat mexanik omillarni xisobga olgan holda tushuntirish ham to‘g‘ri emas. Chunki shishaga o‘xshash qattiq jism bo‘lgan armirlovchini strukturasini faqat bog‘lovchini qayishqoqlik xossalari bilan qo‘shilganda o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi. Chunki bu sistemalarda polimer bog‘lovchi materialga ta’sir qilayotgan kuchlarni bir tekisda taqsimlanishni va armirlangan polimerda hamma tolalarni baravar ishlashini ta’minkaydi.

Shuning uchun bu yerda polimer va to‘ldiruvchining fazalararo chegaradagi o‘zaro ta’siri katta o‘rin tutadi.

Bir tomona yo‘naltirilgan armirlangan tolaga kuchlanish berilganda hamma tolalar cho‘zilib, bir vaqtida ularni kundalang yo‘nalishda siqilishi yuz beradi. Deformatsiya vaqtida polimer sirtiga nisbatan yuqori adgeziyaga ega bo‘lgan tola siqilganda butun sirt bo‘ylab o‘zini o‘rab turgan plenkadan ajralib chiqishi yoki uni ham cho‘zish kerak bo‘ladi.

Shunday qilib, tortishdagi cho‘zilish tortayotgan kuchni yuzaga keltirib, bu tolani cho‘zilishiga qarshilik ko‘rsatadi. Bu kuchlanishlar polimerni o‘zini xossalari va uni sirtga adgeziyasi bilan aniqlanadi. Demak, strukturani deformatsiya davrida buzilishi uchun faqat hamma armirlovchi tolalar mustahkamlik yig‘indisini yengib qolmay, balki ko‘ndalang siqilishga qarshilik qilayotgan kuchlarni ham yengish kerak bo‘ladi.

Armirlovchi tola mustahkamligidan to‘liq foydalanish bog‘lovchini tola bilan birgalikda to‘liq ishlashini ta’minkaychi yuqori adgeziyaga ega bo‘lgan holatda mumkin bo‘ladi.

Tola va polimer qoplamasini birgalikda yuqori kuchaytirish effektiga erishish uchun tola va polimerlarni qayishqoklik modullari 1:10 nisbatda bo'lishi kerak. Shuningdek polimer va tolalarning ham cho'zilishdagi uzilish nisbatlarini hisobga olish zarur.

Agar polimer mustahkam va qattiq bo'lib, cho'zilishdagi uzilish kichik bo'lsa, armirlangan sistemani buzilishi qattiq polimer buzilishi bilan boshlanadi. Chunki deformatsiyada polimerni cho'zilishi tola cho'zilishidan orqada qolib boradi. Agar polimer bog'lovchi elastik bo'lsa va katta cho'zilishga ega bo'lsa, armirlangan sistema ham fursatidan oldin buzila boshlaydi, bu holatda ham ko'pgina tolalarni polimer bilan birgalikda ishlashini ta'minlay olmaydi.

Bog'lovchi muhit toladan ilgari buzilmasligi, kuchlanishlarni taqsimlanish qobiliyatiga ega bo'lmasligi kerak.

Plastiklarni kuchaytirish mexanizmida polimer va to'ldiruvchi orasidagi chegaradagi ishqalanish kuchlari ham katta rol o'ynaydi, chunki bu ishkalanish kuchlari polimerni qotirish jaryonida kirishishi (usadka) natijasida yuzaga keladi. Polimer bog'lovchini sirt bilan kontaktda bo'layotgan qatlamdagagi kuchlanish va qayishqoqligi asosiy o'rinni tutadi.

Armirlangan sistemalarda qattiq jismi mustahkamligini polimerni qayishqoqlik xossalari bilan qo'shilishi yuz beradi. Polimer bog'lovchini vazifasi kuchlanishlarni ko'shni tolalarga uzatib, kuchlanishni to'g'rilash va yana to'ldiruvchini optimal makrostrukturasini yaratish. Bu makrostruktura mahsulotni olish jaryonida yaratiladi. Demak bu yerda asosiy muammo mahsulotni tolalarni qat'iy bir kuch ostida joylashtirish va teng kuchlanishli sistema yaratish, bog'lovchi esa bunda ikkinchi darajali.

Armirlovchi materialni buzilishga polimerni tola sirtidagi chegaraviy qatlama strukturasi va bo'linish chegarasidagi mikroskopik nuqsonlar katta ta'sir ko'rsatadi. Turli g'ovaklar va notekis joylarda kuchlanishlarni to'planishlari yuz berib, shu yerlarda darzlar paydo bo'ladi. Agar polimer va to'ldiruvchi orasidagi bog'ning adgezion mustahkamligi polimer kogezion mustahkamligiga yaqin bo'lsa, tola yuzaga kelayotgan (paydo bo'layotgan) darzni keyinga surib boradi va tolani smola bilan kontakt sirti buzilmay qoladi.

### Tayanch so'z va iboralar

Polimer va to'ldiruvchining kimyoviy tabiatini, polimerni sirtga adgeziyasi, dispers, armirlangan va polimer to'ldiruvchilar asosida olingan PKMlар polimerlarni yuqori elastik holati, ularni dispers to'ldiruvchilar bilan kuchaytirishda to'ldiruvchini miqdori, zanjirsimon struktura hosil bo'lishi, kuchaytirish effekti, kauchuk va to'ldiruvchi orasidagi bog' to'ldiruvchi zarrachalari shakli va o'lchami, to'ldiruvchi zarrachalari orasidagi qattiq qatlama, bu qatlama polimer xossalarni o'zgarishi, to'ldiruvchi zarrachalarni struktura hosil qilishi, armirlangan to'ldiruvchilar, tolani cho'zilishi, armirlangan tola mustahkamligi polimer bilan tolalning optimal nisbatlari, kayishqoqliq moduli, tolalarni bir kuch ostida joylashtirish polimer va to'ldiruvchi orasidagi bog'ning adgezion mustahkamligi, polimer to'ldiruvchilar, komponentlarni termodinamik mos emasligi, oraliq qatlama paydo bo'lishi, to'ldiruvchi zarrachalari o'lchami, to'ldirilgan sistemalarda 3 xil fazaning mavjudligi.

### Qaytarish uchun savollar

1. Polimerni to'ldiruvchilar bilan kuchaytirish deganda nimani tushunasiz?
2. Yuqori elastik holatdagi polimerlarni dispers to'ldiruvchilar bilan kuchaytirish mexanizmini tushuntirib bering.
3. Termo va reaktoplastlarni dispers to'ldiruvchilar bilan kuchaytirish mexanizmi qanday omillarga bog'liq?
4. Armirlangan to'ldiruvchilar bilan to'ldirilgan sistemalarni kuchaytirish mexanizmi qanday?

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lipatov Yu.S. Kompozitsionnye polimernye materialy. Kiev, "Naukova dumka", 1976, 192s.
2. Lipatov Yu.S. Fizicheskaya ximiya napolnennykh polimerov. M, "Ximiya" 1977g. 305s.

3. Lipatov Yu.S. Budushee polimernykh kompozitsiy. Kiev. "Naukova dumka", 1984g. 135s.
4. Lipatov Yu.S. Mejfaznnye yavleniya v polimerax. Kiev, "Naukova dumka", 1980g. 260s.

## 11-MA'RUZA

### ***Polimer to'ldiruvchilar bilan kuchaytirish mexanizmi.***

Reja

1. Polimer-polimer sistemalaridagi kuchaytirish mexanizmlarini dispers to'ldiruvchilar bilan kuchaytirish mexanizmlaridan farqi.
2. Kuchaytirishning fizik-kimyoviy aspektlari.

Dispers polimer to'ldiruvchilar bilan kuchaytirish mexanizmi ko'proq mineral dispers to'ldiruvchilar bilan kuchaytirish mexanizmiga o'xshash. Faqat polimer-polimer sistemalari uchun xos bo'lgan kuchaytirish omili bu bo'linish (sirtlarni ajralish) chegarasida komponentlarni bir-biriga termodinamik mosligi mavjud bo'limgan ham holatda oraliq qatlamni paydo bo'la olishdir. Oraliq qatlam struktura va xossalari polimer to'ldiruvchi ishlatalgan holat uchun kuchaytirishni belgilovchi asosiy omildir. Bo'linish chegarasida yetarli adgeziya bo'lganda va oraliq qatlam hosil bo'lganda to'ldirilgan material deformatsiyaga uchraganda to'ldiruvchi zarrachalarini o'zini deformatsiyalanishini kuzatiladi.

Polimer makromolekullarini deformatsiyalana olish qobiliyati buzilish paydo bo'lishi mumkin bo'lgan joylarda kuchlanishlarni qayta taqsimlanishiga va kritik kuchlanishni ortishiga olib keladi. Deformatsiyalangan polimer makromolekulalarini reaksiyonlarini ham kuchlanishlarni kamayishiga olib keladi.

Polimer to'ldiruvchini kuchaytirish mexanizmi bilan uni qayishqoqlik moduli orasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik bor. Polimer to'ldiruvchilar bilan to'ldirilgan elastomerlarni mustahkamligini ortib borishi kuchaytiruvchi to'ldiruvchilar gisterezis yo'qotishlarini ortishi bilan bog'liq. To'ldiruvchi zarrachalari qanchalik mayda bo'lsa, gisterezis yo'qotishlar shunchalik katta bo'ladi.

Komponentlari bir-biriga unchalik mos bo'limgan sistemalarda oraliq qatlam xuddi uchinchi qatlam bo'lib, kuchlanishlarni qayta taqsimlovchi o'ziga xos to'ldiruvchi vazifasini bajarishi mumkin. Oraliq qatlam bundan tashqari sistema geterogenligini oshirish vazifasini ham bajaradi. Bu omillarning barchasi polimer-polimer sistemasida kuchaytirishga va PKM ko'pgina xossalarni yaxshilashga olib keladi.

#### Kuchaytirishni fizik kimyoviy aspektlari

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan shunday xulosa qilish mumkinki, polimerni to'ldiruvchilar bilan kuchaytirish mexanizmi quyidagi asosiy omillar bilan belgilanadi:

- To'ldiruvchini polimer muxitida struktura hosil qilishi va armirlangan to'ldiruvchini o'z strukturasiga egaligi;
- Sirtki qatlam va chegaraviy qatlam strukturasini;
- Polimer sirti bilan kontakt (bog'langan) joylarida deformatsiyalanishi bugun namunani deformatsiyalanishdan farq qilishi;
- Polimer va to'ldiruvchi orasidagi bog'lanishlar natijasida polimerni tabiatiga bog'liq bo'lgan fizik-kimyoviy va mexanik xossalarni o'zgarishi, to'ldirilgan polimerni sirti va uni olinish sharoitlarini o'zgarishi;
- Chegaraviy qatlamda polimer zanjiridagi makromolekulalar harakatchanligini kamayishi va buning natijasida chegaraviy qatlamda molekulalar taxlanish harakterini o'zgarish kabilalar bilan belgilanadi.

Bu omillarning barchasi bir-biri bilan uzviy bog'liq. Molekulalar harakatchanligini kamayishi, polimerlar relaksatsiya vaqt spektrini o'zgarishiga, o'z-o'zidan butun sistema relaksatsiya vaqtini spektrining o'zgarishiga olib keladi.

Shunday qilib, kuchaytirish effekti faqat kuchlanishlarni taqsimlanish sharoitlariga bog'lik, bo'lmay balki polimerni qattik, sirt ustidagi yupqa qatlamda xossalarni o'zgarishiga ham bog'liq. Har bir to'ldirilgan sistemani 3 xil faza deb qarash mumkin:

- to‘ldiruvchi zarrachalari fazasi;
- uni ustidagi chegaraviy qatlam fazasi;
- xossalari o‘zgarmagan polimer fazasi.

Polimerga qo‘silgan to‘ldiruvchi miqdoriga qarab, xossalari o‘zgargan ya’ni sirtga o‘tgan polimerni, xossalari o‘zgarmagan, ya’ni sirtga o‘tmagan polimerga nisbati qanday o‘zgarishga qarab, PKM xossalari o‘zgarib boradi.

### Tayanch so‘z va iboralar

Polimer va to‘ldiruvchining kimyoviy tabiatini, polimerni sirtga adgeziyasi, dispers, armirlangan va polimer to‘ldiruvchilar asosida olingan PKMlar polimerlarni yuqori elastik holati, ularni dispers to‘ldiruvchilar bilan kuchaytirish to‘ldiruvchini miqdori, zanjirsimon struktura hosil bo‘lishi, kuchaytirish effekti, kauchuk va to‘ldiruvchi orasidagi bog‘ to‘ldiruvchi zarrachalari shakli va o‘lchami, to‘ldiruvchi zarrachalari orasidagi qattiq qatlam, bu qatlamda polimer xossalarni o‘zgarishi, to‘ldiruvchi zarrachalarni struktura hosil qilishi, armirlangan to‘ldiruvchilar, tolani cho‘zilishi, armirlangan tola mustahkamligi polimer bilan tolaning optimal nisbatlari, qayishqoqlik moduli, tolalarni bir kuch ostida joylashtirish polimer va to‘ldiruvchi orasidagi bog‘ning adgezion mustahkamligi, polimer to‘ldiruvchilar, komponentlarni termodinamik mos emasligi, oraliq qatlam paydo bo‘lishi, to‘ldiruvchi zarrachalari o‘lchami, to‘ldirilgan sistemalarda 3 xil fazaning mavjudligi.

### Qaytarish uchun savollar

1. Polimerni to‘ldiruvchilar bilan kuchaytirish deganda nimani tushunasiz?
2. Armirlangan to‘ldiruvchilar bilan to‘ldirilgan sistemalarni kuchaytirish mexanizmi qanday polimer-polimer sistemalari kuchaytirish mexanizmidan qanday farq qiladi?
3. Polimer-polimer sistemalaridagi kuchaytirish mexanizmini so‘zlab bering.
4. Kuchaytirishning fizik-kimyoviy agpektlari xaqida gapirib bering.

### 1. Foydalanilgan adabiyotlar

2. Lipatov Yu.S. Kompozitsionnye polimernye materialy. Kiev, "Naukova dumka", 1976, 192s.
3. Lipatov Yu.S. Fizicheskaya ximiya napolnennnyx polimerov. M, "Ximiya" 1977g. 305s.
4. Lipatov Yu.S. Budushee polimernix kompozitsiy. Kiev. "Naukova dumka", 1984g. 135s.
5. Lipatov Yu.S. Mejfaznye yavleniya v polimerax. Kiev, "Naukova dumka", 1980g. 260s.

### *MA’RUZA № 12 To‘ldirilgan polimerlarni reologik xossalari*

Reja

1. Polimer kompozitsion materiallar reologik xossalarni ularni mustahkamligiga bog‘likligi. Turli sistemalar qovushqoqligini ifodalovchi tenglamalar.
2. Qovushqoqlikka to‘ldiruvchi miqdorini bog‘likligi.
3. Adsorbsion qatlam qalinligi.

To‘ldirilgan polimer qorishmalarini reologik xossalarni o‘rganish ularni qayta ishlash jarayonini optimal sharoitini tanlash uchun katta ahamiyatga ega. Qorishmaning qovushqoqligi va polimerning oquvchanlik harorati to‘ldiruvchi konsentratsiyasiga va uning zarrachalari o‘lchamiga bog‘likdir. Agar qorishmada to‘ldiruvchi zarrachalari asosida struktura hosil bo‘lsa, sistemaning reologik xossalari shu struktura bilan belgilanadi. Polimer muxitining o‘zining reologik xossalari ham turli to‘ldiruvchilar bilan to‘ldirilgan sistemalarni reologik xossalariiga turlicha ta’sir ko‘rsatadi.

Enshteynnning suspenziyalar uchun yaratgan tenglamasi to‘ldirilgan sistemalar uchun qovushqoqlikni ifodalaydi:

F - to‘ldiruvchining xajmiy ulushi.  
Gut tenglamasi esa quyidagi ko‘rinishda

$$\eta = \eta_0 (1 + \alpha \Phi + \beta \Phi^2)$$

Bu yerda  $\alpha$  va  $\beta$  o‘zgarmas kattaliklar.

Agar polimer va to‘ldiruvchi orasida faqat Van-der-vals kuchlari ta’sir qilayotgan bo‘lsa,  $\alpha = 2,5$  va  $\beta = 14,1$  bo‘ladi. Bu tenglamalarda to‘ldiruvchini dispers muhit bilan ta’sirini, suyuqliklarni nyutoncha o‘zini to‘tishini, oqimini laminarligi kabilarni hisobga olmagan holat uchun tuzilgan. Polimer va to‘ldiruvchilar orasida kuchli adsorbsion yoki kimyoviy bog‘lanish bo‘lganda  $\alpha$  va  $\beta$  kattaliklari bu ta’sirlar harakteriga bog‘liq bo‘ladi. Yuqorida keltirilgan tenglamalar asosan to‘ldiruvchini miqdori kam bo‘lgan sistemalar uchun o‘rinli.

PKM tarkibida to‘ldiruvchi miqdori ko‘p bo‘lganda qovushqoqlik MUNI tenglamasi orqali ifodalanadi:

$F_t$ -zarrachalar zich joylashganda to‘ldirlishish darajasi;  
K-Eynshteyn koeffitsienti, sferalar uchun 2,5 ga teng.  
Sferik (sharsimon) bo‘lmagan zarrachalar uchun qovushqoqlik:

Bu yerda  $\alpha$  va  $R$ - zarrachalar shakli koeffitsienti  
( $\alpha=10.5-24.8$  va  $R=1.35-1.90$ )

$f$ -zarracha sirtki qatlam qalinligini uning o‘lchamiga nisbatini ko‘rsatuvchi kattalik.

To‘ldirilgan polimerni reologik xossalari ifodalovchi emperik tenglamalar juda ko‘p, lekin amalda real sistemalar uchun ularni juda ozi qo‘llaniladi. Bunga tekshirilayotgan sistemalarga ko‘pgina holatlarda emperik nuqtai nazardan yondoshilganligi sabab bo‘ladi. Lekin shu bilan birga to‘ldirilgan sistemalarni reologik o‘zini tutishini aniqlovchi bir qancha nazariy tamoillar ham mavjud bo‘lib, ular zarrachalar konsentratsiyasi va shaklini reologik xossalarga bog‘lab tushuntiradi.

Qovushqoq polimerni oqishi va qattiq jism to‘ldiruvchini qayishqoqligi parametrlari orasidagi nazariy tushunchalar, to‘ldiruvchi tutgan, qattiq jismni siljishdagi qayishqoqligiga ega bo‘lgan suyuqliknini qovushqoqligi polimer matritsa uchun quyidagi nisbat bilan aniqlanadi:

### Kerner tenglamasi

Bu tenglamalarni xossalari suyuq holatda ham o‘rganish mumkin bo‘lgan termoplastlar uchun qanday sharoitda qo‘llash mumkinligi tekshirib chiqilgan. Bu tenglamani quyidagi sharoitni saqlagan holda qo‘llash mumkin:

Qovushqoqlik polimer qorishmasini anizotropiyasi sezilmas bo‘lgan holatda, ya’ni siljish kuchlanishini  $10^4$  Pa dan kichik bo‘lgan statsionar oqish sharoitlarida, oqish Nyuton qonunlariga bo‘ysunadigan holatda o‘lchanishi lozim.

Sharsimon bo‘lmagan zarrachali sistemalarda qovushqoqlik to‘ldiruvchi zarrachalari struktura hosil qilmagan oblastlarda o‘lchanishi lozim. Shuningdek zarrachalar o‘lchami 1 mkm dan kichik bo‘lganda, ya’ni polimerni ko‘p qismi zarrachalar bilan adsorbsion kuchlar orqali bog‘lana olishi uchun zarrachalar sirt yuzasi kichik bo‘lishi kerak.

To‘ldirilgan sistemalar reologik xossalari belgilovchi yana bir asosiy omil, bu polimerni to‘ldiruvchi zarachalari bilan adsorbsion ta’sirda bo‘lganda polimer muxiti xossalari o‘zgarishi va adsorbsion qatlamda zanjirdagi molekulyar xarakatchanlikni chegaralanib qolishi.

Shunday qilib, sistema qovushqoqligi faqat gidrodinamik effektlar bilan aniqlanmay, balki to‘ldiruvchi bilan ta’sirlashganda polimer matritsa mexanik kuchlanishi bilan ham aniqlanadi. Yuqorida

keltirilgan ma'lumotlardan, muhitning qovushqoqligini nisbatan o'zgarishi, to'ldirilganda  $T_{sh}$ -shishalanish haroratini yuqori harorat tomonga siljishi mumkin degan taxminga olib keladi. Shishalanish haroratidan yuqori bo'lganda qovushqoqlikni haroratga bog'liqligi VLF tenglamasi orqali shishalanish haroratini siljishi orqali ifodalanadi:

$T_{sh} < T < T_{sh} + 100^{\circ}S$  uchun. Agar polimerni kompozitsiyasidagi xarakteristik harorati  $T_{s,n}$  va toza polimerniki  $T_{s,o}$  bo'lsa, u holda

Bu yerda  $\eta$ -to'ldiruvchi zarrachalari ta'sirida molekulyar harakatchanligi kamaygan matritsani o'zgargan qovushqoqligi;

$\eta_o$ -to'ldiruvchisiz sistema qovushqoqligi.

Bu yerda o'zaro ta'sirida bo'lgan komponentli suspenziyaning qovushqoqligi quyidagiga teng:

$$\eta_{nisb} = \eta_{n,p} / \eta_o = \eta_{n,p} \cdot \eta / \eta \eta_o$$

$\eta_{n,p}$  – kompozitsion material qovushqoqligi

Bu yerda shuni ta'kidlab o'tish lozimki, to'ldiruvchi tutgan polimerlarni oqishi ko'pgina xollarda dispers fazaning sferik zarrachalari uchun keltirib chiqarilgan tenglamalariga bo'yunsa xam, bu polimer va to'ldiruvchi zarrachalari orasida o'zaro ta'sir yo'q degan fikrni keltirib chiqarmaydi. Ko'pgina xolatlarda oqish to'ldiruvchi zarrachalarini polimer adsobsion qatlami qoplaganda, buning natijasida dispers faza xajmini ko'payishi sodir bo'layotgan sistemalarda yuz beradi. Misol: poliizobutilen va butadien kauchuklarini aktiv (qurum) va noaktiv (mel) to'ldiruvchilarini turli nisbatlarida va turli xaroratlarda qovushqoqligi teshirilganda, qurumni 10 – 15% miqdorda olganda sistema qovushqoqligi Enshteyni suspenziyalar qovushqoqligi uchun yaratgan qonuniga bo'y sunishi ko'rsatilgan. Bunda qurum effektiv o'lchamlari uning polimer bilan sirti qoplanib olgan faktik o'lchamidan katta deb hisoblanadi.

Bunday qatlamning mavjudligi to'ldiruvchi zarrachalarining kauchuk molekulalari bilan kuchli ta'sirda bo'lishi natijasida yuz beradi deb qarash mumkin. Bu yerda polimerga to'ldiruvchi qo'shilganda qovushqoqlikni tez ortib ketishi qovushqoqlikni xarorat koeffitsentini o'zgartirmasligi uzatilgan. Shundan kelib chiqqan xolda to'ldirilgan va to'ldirilmagan polimerlarni oqish mexanizmi analogik (o'xhash) ya'ni, oqish mobaynida polimer va to'ldiruvchi orasidagi bog'lar uzilmaydi deb taxmin qilish mumkin. Polimer bilan to'ldiruvchini o'zaro ta'siri xatto tarkibida dispers zarrachalari bo'lgan suyultirilgan eritmalar qovushqoqligiga xam ta'sir ko'rsatadi.

Polimer eritmasida to'ldiruvchi xajmiy ulushini nisbatan ortib borishida adsorbsion qatlam qalinligini aniqlash uchun xam foydalanish mumkin. Bu yerda suspenziya qovushqoqligini dispers faza qovushqoqligiga bog'lovchi yuqoridagi biror tenglamadan dispers fazani extimollik (kajushiysya) xajmini topish mumkin. Zarrachalarni xaqiqiy va extimollik xajmlari orasidagi farq adsorbsion qatlamni effektiv xajmini ko'rsatadi. Bundan esa qatlamni o'rtacha qalinligini xisoblash mumkin.

Ma'lumki, eritmada adsorbsiyalab olingan adsorbsion qatlam strukturasi erituvchisiz xosil bo'lgan qatlamga o'xshamaydi. Shuning uchun eritmagan xosil bo'lgan adsorbsion qatlam bilan erituvchisiz xosil bo'lgan adsorbsion qatlamlarni qalinligini aniqlash natijalarini solishtirish qiziqarli. Buni yuqori oquvchan xolatida katta bo'lmagan qovushqoqligiga ega bo'lib, yuqori molekulalari birikma xossalariiga ega bo'lgan oligomerlar misolida bo'lish mumkin. Olimlar tomonidan epoksid smolasi (ED -

20) va uni eritmalarini qovushqoqlik xossalari o'rganilgan. Molekulyar og'irligi 500 atrofida bo'lgan shisha kukuni bilan 17% to'ldirilgan ED-20 asosida olingan PKM ni ED-20 smolasi bilan solishtirib ko'rilganda, ED smola va kompozitsion sistema siljish tezligi  $\gamma$   $10^{-2}$  dan  $10^{-1}$  s bo'lgan diapozonda Nyuton suyuqliklariga o'xshash xossalari namoyon qilgan, ya'ni qovushqoqlik deformirlash rejimiga bog'liq bo'lмаган, то'ldiruvchi tutgan sistemaning qovushqoqligi то'ldiruvchi miqdori ortib borishi bilan o'sib borgan.

Shu bilan birga shisha kukun dispersiyasini DMFA dagi va uni ED-20 va DMFA ishtirokidagi eritmalarini qovushqoqligi tekshirilganda, qovushqoqlikni siljish tezligiga bog'liq ekanligi kuzatilgan.

Shisha kukuni sirtidagi oligomer adsorbsion qatlami qalinligini ( $\Delta r$ ) quyidagi formula orqali topiladi:

$$F_s = F \cdot (1 + \Delta r / r)^3$$

$F_s$ -zarrachalar zinch joylashganda to'ldirilish darajasi

F-to'ldiruvchini hajmiy ulushi

r-shisha kukuni uchun zarracha radiusi 0.4 mkm ga teng.

To'ldiruvchi sirtidagi oligomer qatlami qalinligi shisha ,kukunining ma'lum solishtirma yuzasi uchun quyidagi formula orqali hisoblash mumkin:

$\Delta r = \Delta F / F S_p$  S – shisha kukuni solishtirma yuzasi

$\rho$  – shisha kukuni zichligi

$\Delta r$  va  $\Delta r'$  ning tekshirilgan sistemalar uchun turli xaroratlarda olingan qiymatlari 1-jadvalda keltirilgan.

Adsorbsion qatlami qalinligini harorat, konsentratsiya va dispers faza miqdoriga bog'liqlik jadvali.

Sistema	$T^o, S$	$F$	$F_s$	$F$	$R, mkm$	$R, mkm$
<i>ED-20</i>	25	0,075	0,125	0,050	0,075	0,090
	25	0,110	0,193	0,083	0,085	0,100
<i>ED ning 80%li eritmasi</i>	25	0,075	0,132	0,057	0,085	0,100
	25	0,110	0,200	0,090	0,090	0,100
<i>ED-20 ning 60%li eritmasi</i>	25	0,075	0,127	0,052	0,080	0,095
	25	0,110	0,207	0,097	0,095	0,120
	40	0,110	0,219	0,109	0,100	1,130
	60	0,110	0,215	0,105	0,100	1,125
	80	0,110	0,216	0,106	0,100	1,125
<i>ED-20 ning 30%li eritmasi</i>	25	0,075	0,137	0,062	0,090	0,110
	25	0,110	0,216	0,106	0,100	0,125

Jadvaldan ko'rinishib turibdiki, shisha kukun yuzasidagi oligomer adsorbsion qatlami qalinligi epoksid smolasi konsentratsiyasiga bog'liq emas.

To'ldiruvchi - eritmaning bir-biriga nisbatlarini adsorbsion qatlami qalinliginga ta'sirini tekshirganda dastlab adsorbsion qatlami qalinligi kamayib borib, to'ldiruvchi miqdori 50 % dan oshganda qatlami kalinligi to'ldiruvchining eritmadagi miqdoriga bog'liq bo'lmay qoladi.

To'ldirilgan oligomerlarni qovushqoqligini xaroratga bog'liqligi tekshirilganda qovushqoqlik logarifmini xaroratning teskari qiymatiga bog'liqligi grafigi to'g'ri chiziq emasligi kuzatildi. Qovushqoqlikni Arrenius tenglamasidan chetga chiqishi Foil-Tamman tenglamasi orqali ifodalanadi:

$$\ln \eta = A + B/T - T_0$$

Bunda  $T_0$  va B to'ldiruvchi bilan bog'lanmagan polimer ulushiga chiziqli bog'liq.  
Bundan aktivlanish energiyasi

Ko'rinishida ifodalanadi. Xaroratni pasayishi aktivlanish energiyasini pasayishiga olib keladi.

## Tayanch so‘z va iboralar

Polimer qorishmalar, reologiya, to‘ldiruvchi zarrachalari o‘lchami, polimer muhitining reologik xossalari, to‘ddirilgan sistemalar qovushqoqligi, Eynshteyn tenglamasi, Muni tenglamasi, sferik bo‘lmagan zarrachalar uchun qoqvushqoqlik tenglamasi, qayishqoqlik modulini qovushqoqlikka bog‘liqligi, Nyuton suyuqliklari, adsorbsion qatlamda polimer xossalari o‘zgarishi, shishalanish xarorati, polimer eritmasida to‘ldiruvchi xajmiy ulushini ortib borishi, adsorbsion qatlam qalinligi, shisha kukuni, ED-20 asosida olingan turli sistemalarda adsorbsion qatlam qalinligi va qovushqoqlikni o‘zgarishi, Arrenius tenglamasidan chetga chiqish.

Qaytarish uchun savollar.

1. Polimer qorishmaning qovushqoqligi qanday parametrlerga bog‘liq va qorishmaning reologik xossalari o‘rganish qanday ahamiyatga ega?
2. Polimer qorishmalar, to‘ldirilgan sistemalar uchun Eynshteyn, Gut va Muni tenglamalarini keltiring va tushuntirib bering.
3. Kerner tenglamasini qanday sharoitlarda qo‘llash mumkin?
4. Polimer qorishmalarini oqishida to‘ldiruvchi miqdori o‘zgarib borishi bilan qovushqoqlikni harorat koefitsienti qanday o‘zgaradi?
5. To‘ldiruvchi miqdori ortib borishi bilan adsorbsion qatlam qalinligini ED-20 smolasi misolida tushintiring.
6. Adsorbsion qatlam qalinligini aniqlash formulalarini keltiring va tushintirib bering.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lipatov Yu.S. Kompozitsionnye polimernye materialy. Kiev, «Naukova dumka», 1976, 192s.
2. Lipatov Yu.S. Fizicheskaya ximiya napolnennyx polimerov. M, «Ximiya» 1977g. 305s.
3. Lipatov Yu.S. Budushee polimernyx kompozitsiy. Kiev. «Naukova dumka», 1984g. 135s.
4. Lipatov Yu.S. Mejfaznye yavleniya v polimerax. Kiev, «Naukova dumka», 1980g. 260s.

## *MA’RUZA № 13* *PKM lardan mahsulot yaratishni o‘ziga xos xususiyatlari* Reja

1. PKMlarni yangi turlari.
2. PKMlarning mashinasozlik tarmoqlari bo‘lgan havo suv va yer transportlarida qo‘llanilishi.
3. Qurilishda qo‘llaniladigan PKMlar.

Hozirgi kunga kelib choklangan chiziqsimon polimerlar asosida dispers yoki armirlangan to‘ldiruvchilar bilan to‘ldirilgan PKMlar yaratilgan bo‘lib, ular xalq xo‘jaligini turli tarmoqlarida, aviatsiyada, avtomobilsozlikda, mashinasozlikda, transportda, qurilishda, qishloq xo‘jaligida, meditsinada, kimyo sanoatida qo‘llanilyapti.

Bugungi kun tartibida yuqori mustaxkamlikka ega bo‘lgan, yonmaydigan PKMlar yaratish muammosi turibdi. Hozirgi kunga kelib dunyoning ko‘pgina davlatlarida xom ashyoning mavjudligi tufayli shishaplastlar ishlab chiqarish va qo‘llash o‘sib bormoqda. Bunday PKMlarga talabni o‘sib borishi bunday materiallarni olishda kam energiya sarfi va ular xossalaring turli tumanligi bilan bog‘liq. Shuningdek hozirgi kunda qurilish industriysi, metallurgiya korxonalarini va boshqa korxonalarda chiqqan chiqindilar asosida turli-tuman yangi dispers to‘ldiruvchilar sintez qilinmoqda. PKMlarni qo‘llanilishi qulayligini yana bir tomoni shundaki, boshqa an‘anaviy texnologiyalardan farqli

materialni olish va undan maxsulot tayyorlash jarayonlari vaqt bo'yicha bo'linmay, bиргаликда оlib boriladi.

PKMlar yaratish va qo'llashda asosiy yo'naliш ularni kattaroq solishtirma mustaxkamlikka ega ekanligi va solishtirma mustaxkamlikni ta'sir qilayotgan kuchga optimal taqsimlana olishi bilan bog'liq. PKMlarni aynan shu xossasi, ya'ni yuqori solishtirma mustaxkamlikka egaligi va "texnologichnost" kabi xossalari bilan boshqa an'anaviy konstruksion materiallardan ustun turadilar.

PKMlardan konstruksiyalar yaratish ko'pgina tamoyillarni amalgalash bilan bog'liq. Bu tamoyillar esa ishlatilayotgan materialni o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq. Shuning uchun PKMlar yaratishni loyihalashtirish asosida mahsulot konstruksiyasi yoki konfiguratsiyasiga emas (masalan, silindrli korpus chuqurligi), balki materialni o'zini konstruksiyalashga bog'liq (armirlash tarmoqlari, qatlamlari nisbati, turli armirlovchi materiallarni bir-biri bilan qo'shila olishi bilan bog'liq). Metall konstruksiyalaridan farqli PKMlarni yaratishni loyixalashtirishda (ya'ni optimal armirlash) va texnologik jarayonni o'zini ishlab chiqish kabilalar bir vaqtida qarab chiqish kerak bo'ladi. Bu jarayonni asosiy etapi mustaxkamlik xossalari optimal tarqatilishini o'z aksini topadi.

PKMlarni qo'llash faqat ularni yaratish vazifalari bilan bog'liq bo'lmay, balki ulardan maxsulot yaratishni konstruksiyalashdagi xossalari xisoblash muammolarini hal qilish bilan ham bog'liq.

PKMlar eng ko'p ishlatiladigan soha avtomobilsozlik, kemasozlik, samolyotsozlik, aerokosmik texnika kabi tarmoqlarni olgan mashinasozlik sanoatidir. Sanoatni bu sohasida ilgaridan poliefir shishaplastlar keng ishlatilib kelingan, shu bilan birga hozirgi kunga kelib, bu soxada ishlatiladigan PKMlarni assortimenti tobora kengayib bormoqda.

PKMlarni mashinasozlik sanoatida metallarni o'rnini bosib borishi bu sohada mehnat unumdarligini oshishiga olib kelmoqda.

PKMlardan eng qiyin konstruksiyali detallarni ham yasashni osonligi, kam mehnat talab qilinganligi, ulardan yasalgan detallarni yengilligi uchun ham ular tobora metallar o'rnini egallab bormoqda. Chunki metallardan farqli PKMlar reologik xossalari yaxshiligi uchun pressformalarni tez va aniq qilib to'ldirib, juda kam miqdorda chiqindi chiqadi. PKMlardan xatto katta o'lchamli, shakli murakkab bo'lgan avtomobil korpuslarini tayyorlashda bir muncha kam mehnat sarf bo'lib, chiqindiga kam chiqadi (kam yo'qotiladi).

Hozirgi kunga kelib, ishlab chiqarishni yuqori texnik iqtisodiy ko'rsatkichlarini ta'minlovchi yuqori samaradorli formallah (shakl berish) jarayonlari ishlab chiqilgan.

Masalan, avtomobil qurilma taxtasini (pribornaya doska) poliefir shishaplastdan tayyorlaganda jihozlash sarfi po'latdan tayyorlanganligiga qaraganda 8 marta kam. Avtomobil korpuslarini tayyorlashda shishaplastlardan tashqari aromatik poliamidlardan tayyorlangan tolalar, yuqori modulli uglerod tolalari asosida olingan PKMlar keng qo'llaniladi. Hozirgi kunda poliefir shishaplastlardan avtobuslar va o't o'chirish mashinalar uchun panellar, hatto neft maxsulotlarini tashish uchun avtotsisternalar tayyorlanmoqda. Avtomobil qismlarini shishaplastlardan tayyorlashi an'anaviy materiallardan korroziyaga uchramasligi, nisbatan yengilligi bilan afzallikka ega. Poliefir shishaplastlar boshqa ko'pgina transport qurilmalarida ham ishlatiladi. Masalan asbob-uskunalar uchun qutilar, isitgich korpuslari, dvigatellar qopqoqlari shular jumlasidandir. Shisha va orgonoplastiklardan avtomashinalar qanotlari va tomlari ham tayyorlanmoqda.

PKMlardan avtomobilsozlikda qo'llashning afzalliklardan biri yuqorida aytib o'tganimizdek, ulardan tayyorlangan detallarni yengilligidir.

1) Maxsulotni yengilligi yuk ko'tarishini oshishi, yoqilg'i sarfini kamayishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida mehnat unumdarligini ortishi va maxsulot tannarxini pasayishiga olib keladi. Shuningdek yuqoroi komfortga olib keladi.

2) PKMlardan yaratilgan avtomobillar issiqlik o'tkazuvchanligini afzalligi, ya'ni janubiy rayonlarda avtomobil salonida haroratni mo'tadil ushlab turadi, mashina harakati vaqtida shovqin kam bo'ladi.

3) Avtomobilsozlikda PKMlardan foydalinish avtomobilarni sozlashda ham qulaylik tug'diradi. Chunki zarar ko'rilgan joyga bog'lovchi bilan shimdirilgan shisha mato quyiladi va bog'lovchi qotganidan so'ng, avtomobilni o'sha yeriga bo'yoq purkaladi.

PKMlardan dengiz transportida foydalanish, ya’ni qo’llash ham quruqlikdagi transportlarda PKMlardan foydalanishga o’xshaydi. Poliefir va epoksid shishaplastlardan kemalar korpuslari, qayiqlar, shuningdek murakkab shaklli kema konstruksiyalari yasaladi.

PKMlarni kemasozlikda qo’llashdagi asosiy muammo va talab shishaplastiklarni suv yurituvchanligini pasaytirishi. Chunki kemasozlikda ishlatiladigan materiallarga asosiy talab ularni suvni shimmasligidir. PKMlardan dengiz xizmatidagi katerlar uchun korpuslar ( $L = 25\text{m}$ ), dengiz yordami, qutqarish xizmati va baliqlarni himoya qilish uchun turli xil materiallar yaratildi.

Hozirgi kunga kelib avtomobilsozlik, qishloq xo’jalik mashinalari yaratishda, shuningdek kimyo sanoatida ugleplastlar juda keng qo’llanilmoqda. Bunday PKMlar qattiqligi va yuqori solishtirma mustahkamlikka egaligi, termik zarbga va agressiv muhitga chidamliligi bilan boshqa PKMlardan ustun turadilar.

Mashinasozlikda asosan armirlangan plastiklar ya’ni armirlangan to’ldiruvchilar bilan to’ldirilgan PKMlar juda keng qo’llaniladi. Shu bilan birga alohida detallar va konstruksiyalar, intererni pardozlash asboblari, elektr jihozlari uchun dispers to’ldiruvchilar bilan to’ldirilgan PKMlar ishlatiladi.

Hozirgi kunga kelib mashinasozlikni ko’pgina tarmoqlarida, kimyo sanoatida ishlatiladigan detallarni va jihozlarni qayta ishlash oson bo’lgan, yengil, arzon polimer materiallarga almashtirib borilmoqda. Bunday detallarni yasashda hozirgi kunda polimerlar aralashmasi asosida olingan PKMlardan foydalanish mahsulot sifatini oshirib, narxini pasaytiradi. PKMlardan uchuvchi apparatlarni yasashda ham keng qo’llaniladi.

Aerokosmik texnikada PKMlarni eng zamonaviy turlari, hatto qimmat bo’lishiga qaramay juda keng qo’llanilib kelinmoqda. Chunki PKMlarni eng zamonaviy turlari polimer-polimer sistemalarini misol qilish mumkin. Sanoatning bu tarmog’ida paydo bo’ladigan barcha talablarni qondiradi.

Avitsiya texnikasida yuqori mustaxkamlikka ega bo’lgan boro – va ugleplastlar juda keng qo’llaniladi.

Uchuvchi apparatlar boshqarish korpuslari, lyuklar kopqoqlari, asosiy agregatlar, eleronlari, rullari, eng qiyin detallar, pol panellari PKMlardan yasaladi. PKMlarda aviaqurilishda ishlatilishi ayrim yuqori yuk moslamalarini konstruksiyalarini og’irligini 10-20% ga pasaytiradi.

Boro- va ugle- plastlarni aviatsion texnikada ishlatilishi yuqori mustaxkamlik va qatgiklik talab qilinadigan metall konstruksiyalarni mustaxkamlashda keng ko’llanilmoqda. Bularga panellar, bashnyalar kiradi. Hozirgi kunga kelib, PKMlar samolyotlarini konstruksiyalarida qo’llash ham keng rivojlanmoqda. Buna zamonaviy armirlovchi tolalar va boshqalar ishlatiladi.

Kosmik texnikada PKMlar raketalarni bosh qismi issiqdan ximoya qilish joylarida ishlatiladi. Bunday PKMlar qatoriga fenol-formaldegid qatronlari (smolalari) kiradi. Bu fenol-formaldegidlar armirlangan poliamid va asbest tolalar bilan to’ldiriladi.

Shuningdek, transport aviatsiya kosmik texnika organoplastlar ham keng ko’llaniladi. Organoplastlardan samolyotlar ichki va ustki qismlarini pardozlashda alyuminiyli komponentlarni almashtirishga, boshqarish richaglarni, tomlarni jihozlashda ishlatiladi. «Boing» firmasi organoplastlardan samolyot detallari, eshik panellari, polni koplamalarini tayyorlanadi. Shuningdek, organoplastlardan vertolyotlar uchun gorizontal stabilizatorlar, stoykalar tayyorlanadi. Armirlovchi organik va uglerod tolalar asosida olingan kompozitsiyalar orgonoplastlarga qaraganda yuqori qattiklikka, ugleplastlarga qaraganda arzonlikka egaligi bilan ustun turadilar.

Yuqorida bir turdagisi xil armirlovchi tolalar bilan to’ldirilgan plastiklar xaqida gapirib o’tdik, shuningdek turli xil dispers to’ldiruvchilar bilan to’ldirilgan plastiklar keng qo’llaniladi. Oxirgi yillarda ikki yoki uch xil polimerlar aralashmasi asosida olingan kompozitsiyalar ham keng qo’llaniladi. Ulardan rul g’ildiraklari, mayda detallar tayyorlanadi. PKMlar yaratishni nazariy asoslarini o’rganganimizda plastmassalarni legirlash bilan ya’ni polimer matritsaga kam miqdorda boshqa turdagisi polimer qo’shish bilan qo’shimcha mablag’ sarflamasdan texnologik jarayonlarni o’zgartirmasdan turib, yaratilayotgan PKMlarni ekspluatatsion va texnologik, mustaxkamlik xossalalarini o’zgartirish, yaxshilash mumkin. Legirlangan plastmassalarni qo’llash qaytashda ishlashda energiya sarfini kamligi, mahsulot sifatini yaxshiligi bilan boshqa plastmassalardan ustun turadilar.

PKMlarni zarbiy mustaxkamlikka chidamliligi, yuqori mustaxkamlikka egaligi, tebranishga chidamliligi bilan daryo va dengiz flotida keng qo'llanilmoqda. Bunday PKMlarni metallar bilan birgalikda qo'llanilishi ularni xossalarini yanada mustaxkamlaydi.

Bunday PKMlar qurilishda ham keng qo'llaniladi. PKMlarni quri-lishda ishlatilishi ularni yengilligi, atmosfera ta'siriga chidamliligi, tiniqligi bilan bog'liq. Poliefir bog'lovchilar bilan shimdirilgan shisha matolardan (steklomat) yarim tiniq matolar olinadi. Sanoatda turli rangli tekis gofrirlangan listlarni ishlab chiqarilmoqda. Shishaplastlar va orgona-plastlardan deraza romlari, eshiklar, metallar tayyorlashda, vaqtinchalik yoki bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish mumkin bulgan vagon-uylar tayyorlashda foydalanilmoqda. Shuningdek shisha tolali anizatrop materiallardan katta o'lchamli panellar, devor uchun plitalar, beton uchun armaturalar, plintus, karniz, vannalar, rakovina kabi sanitarni texnik jixozlar tayyorlashda foydalanilmokda.

Oddiy va anizotrop PKMlar qurilishda fitishlar va trubalar, neft va kimyoviy maxsulotlar saqlash uchun sig'imlar (emkosti) tayyorlashda foydalaniladi.

Qurilishda termoreaktiv bog'lovchilar shimdirilgan g'ovak materiallar ham keng ishlatiladi. PKMlar yog'ochni mustaxkamligini oshirishda ham ishlatiladi. Betonlarni polimerlanuvchi monomerlar va oligomerlar bilan shimdirish betonni mustahkamlik xossalarini yanayam oshiradi. PKMlar qurilishda ishlatilishini ularni ochiq xavoda xech qanday himoyaga muxtoj emasligi, pardozlash ishlariда mexnat sarfini kamligi an'anaiy qurilish materiallaridan ustunligidir.

### Tayanch suz va iboralar

PKMlarni boshqa an'anaviy kompozitsion materiallardan ustunligi, PKMlarga talab, PKMlarni mustaxkamlik xossalarini yaxshiligi, PKMlarni olish va ulardan mahsulot yaratish jarayonlari, avtomobilsozlik, kemasozlik, samolyotsozlik, raketasozlik kabi tarmoqlardagi PKMlar asosida olingan detallar va jixozlar, qurilishda ishlatiladigan PKMlar, ularning afzalliklari.

### Qaytarish uchun savollar

1. PKMlarni yangi turlarini yaratish qanday muammolar bilan bog'liq?
2. PKMlarni qaysi turlari mashinasozlik sanoatida ishlatiladi?
3. Mashinasozlik sanoatida ishlatiladigan PKMlar qanday talablarga javob berishi kerak?
4. Qurilishda qo'llaniladigan PKMlar an'anaviy kompozitsiyalardan qanday afzallik tomonlari bor?
5. Qurilishda PKMlarni qanday turlari ishlatiladi?

### Foydalangan adabiyotlar

1. Lipatov Yu.S Kompozitsionnye polimernye materialy. Kiev, "Naukova dumaka", 1976, 192s.
2. Lipatov Yu.S. Fizicheskaya ximiya napolnennnyx polimerov. M, "Ximiya" 1977g. 305s,
3. Lipatov Yu.S. Budushee polimernyx kompozitsiy. Kiev. "Naukova dumka", 1984g. 135s.
4. Lipatov Yu.S. Mejfaznne yavleniya v polimerax. Kiev, "Naukova dumka", 1980g. 260s.

### 14-ma'ruza

*PKMlarni qo'llanilishi. Antifriksion va friksion PKMlar.  
PKMlar va xalq iste'mol mollari sifatida.*

Reja:

1. Antifriksion PKMlar.
2. Friksion PKMlar.
3. PKMlar xalq iste'mol mollari sifatida.

PKMlardan mashina uzellarida antifriksion va friksion materiallar sifatida keng qo'llaniladi. PKMlar asosan ko'p ishqalanadigan detallar va tarmoqlarda shesternalar, g'ildiraklar, tormoz qurilmalarida,

xarakatlantiruvchi kamarlar (remni), podshipniklar kabi joylarda ko‘p ishlatiladi. Bunday PKMlarni yaratish polimer to‘ldiruvchilar ko‘shib ishqalanish koeffitsientini kamaytirish bilan bog‘liq. Antifriksion xossalarga ega bo‘lgan PKMlarni olish asosan termoplastlarga grafit kukuni yoki molibden disulfidi qo‘shishga asoslangan. Matritsa-asos sifatida politetraftoretilen

(teflon), poliamidlar (naylon, kapron) kabilardan foydalaniladi. Bunday materiallar kerakli fizik-mexanik kompleks xossalarga egaligi bilan birga, ular uncha qimmat emas. Agar podshipniklar sifatida to‘ldirilgan termoplastlar ishlatilsa, bronzaga qaraganda yemirilish tezligini pastligi, yurishini tekisligi (avtomobil) va ekspluatatsiya vaqtida moylanmaslik kabi xossalari bilan ustun turadilar.

Ko‘pgina holatlarda PKMlar ishqalanish tarmoqlarida yarim podshipnik sifatida po‘lat asosga qoplanadilar. Bunday podshipniklar metall podshipniklar o‘rnini to‘la egallaydi. Hozirgi kunda politetraftoretilendan olingan tolalar va kompleks iplar katta ahamiyat kasb etmoqda. Buning uchun dastlab organik, metall yoki shisha tolali mato olinadi. Olingan mato metall yoki shishaplast qattiq joyga yelimlanadi.

Tolalar asosida olingan antifriksion qoplamlar sharnirli birikmalar va vtulkalar sifatida samolyotsozlikda, mashinalarda boshqarish rullari sistemalari, shuningdek yuqori yoki katta kuchlanishlarni past sirpanish tezliklari bilan qo‘shilgan joylarda ishlatiladi.

Armirlangan reaktoplastlar asosida olingan PKMlar keskin burilish talab qilinadigan joylarda dengiz transportida keng qo‘llanilmoqda.

Yuqorida biz PKMlarni texnikada va kuriishda keng qo‘llanishi haqida fikr yuritdik. PKMlar shuningdek elektronika, radio va elektrotexnika, antikorrozion qoplamlar, irrigatsiyada, gidroizolyasiyada va boshqa ko‘plab joylarda ham keng ko‘llanilib kelmoqda.

PKMlar shuningdek xalq iste’mol mollari sifatida va meditsinada ham keng qo‘llaniladi.

Xalq iste’mol mollari va mebellar mashinasozlik va qurilish kabi tarmoqlarga o‘xshab materiallarga katta talab ko‘ymaydi. Lekin bu yerda talablar turli-tuman. Masalan mebellarning ayrim turlari oz vaqtida 200 kg va uzoq vaqtida 100 kg yukka chidamli, zarbga chidamli va uzoq ishlatilish muddatiga ega bo‘lishi kerak. Mebellarni PKMlardan konstruksiyalash belgilangan talablardan chetga chiqishini talab qiladi. Masalan, krovatlar korpuslarini PKMlar barcha turlaridan yasash mumkin. Lekin bu krovatlar burchaklariga oyoqchalar o‘rnatganda polimer materialarni kerakli qattiqlikni hamisha ta’minlab bera olmaydilar. Shuning uchun bu yerda asosiy vazifa materialni va konstruksiyani to‘g’ri tanlashdir. Xalq iste’mol mollari sifatida qo‘yilgan to‘ldirilgan kompozitsion materiallar va tolasimon to‘ldiruvchilar bilan to‘ldirilgan PKMlar keng ishlatiladi. To‘ldirilgan reaktoplastlardan (press - poroshoklar) radiopriborlar korpuslari elektro xo‘jalik asboblari tayyorlanadi. Asbest bilan to‘ldirilgan materiallar esa xo‘jalik elektr asboblari ruchkalari, knopkalar, elektrisitkichlar, rostlash ruchkalari yasaladi.

Press materiallardan podnoslar, kuldonlar, soat korpuslari yasaladi. To‘ldirilgan polimerlar yuvinish xonalarini jihozlashda ham ishlatiladi. Ko‘pgina qatlam plastiklar mebellarga bezak berishda, pollar sifatida ishlatiladigan koplamlar uchun yashiklar (kusilar), stollar tayyorlashda ishlatiladi.

Hozirgi kunga kelib qimmatbaho tabiiy materiallar o‘rnini bosuvchi PKMlar yaratilmoqda. Bunga misol qilib, sun’iy terini olish mumkin. Matolar bilan armirlangan termoplastlar mebel sanoatida sun’iy charm sifatida ishlatilmoqda. Polivinilxlorid va poliuretanlar agar bir tomonlama mato bilan armirlansa, poyafzal kiyim va galanteriya maxsulotlari tayyorlashda ishlatiladi. Suv bilan to‘ldirilgan to‘yinmagan poliefirlarni xossalari polimer matritsa bilan suyuq dispers fazasi hosil qilib yog‘ochni xossalariiga juda yaqin bo‘lib qoladi. Bunday mahsulotdan juda qiyin shaklli buyumlar yasash mumkin. Ular mustaxkam va qattiq. Bunday materiallar tashqi tuzilishi xossalari bilan yog‘ochga o‘xshash, lekin arzon. Ishlab chiqarilgan maxsulotlar tarkibida 50 dan 70% gacha suv bo‘ladi. Bunday materiallarni bir dan-bir kamchiligi ularni tarkibidagi suvni parlanib ketishi va buning natijasida maxsulotni darz ketishi va buzilishidir.

PKMlardan polimer aralashmalari, AVS-plastiklar maxsulotni qadoqlashda, saqlashda foydalaniladi (masalan, qog‘oz bilan dublirlangan polietilenden sutni qadoqlash uchun paketlar yasaldi).

PKMlarni meditsinada tutgan o‘rni ham juda katta. Ulardan meditsina uchun turli texnika asboblari, apparaturalari yasashda foydalaniladi.

Oxirgi yillarda PKMlar yaratishni nazariy asoslariga, sirt xodisalari, fizik-kimyofiga asoslanib turli tuman PKMlar yaratilmoqda. Oxirgi yillarda yaratilayotgan PKMlarni quruq va xo'1 metall sirtiga qoplash mumkin. Bir-biriga turlari o'tuvchi polierlar asosida olingan PKMlar barcha xossalari jihatidan an'anaviy konstruksion materiallardan ustunlik qilmoqda.

Tayanch so'z va iboralar.

PKMlar, friksion va antifriksion xossalari, mashina ishqalanish uzellari, tormoz qurilmalari, podshipniklar, tolalar asosida olingan antifriksion qoplamlar, PKMlar xalq iste'mol mollari sifatida, PKMlardan tayyorlangan sun'iy teri, mebelsozlikda ishlatilayotgan PKMlar, PKMlardan tayyorlangan meditsina texnika asboblari.

#### Qaytarish uchun savollar

1. Antifriksion PKMlarga misol keltiring. Ularni afzallik tomonlari nimada?
2. Friksion PKMlarga misol keltiring.
3. PKMlar xalq iste'mol mollari sifatida.
4. PKMlarni meditsinada tutgan o'rni qanday?

#### Foydalangan adabiyotlar

1. Lipatov Yu.S. Kompozitsionnye polimernye materialy. Kiev, "Naukova dumaka", 1976, 192s.
2. Lipatov Yu.S. Fizicheskaya ximiya napolnennix polimerov. M, "Ximiya" 1977g. 305s.
3. Lipatov Yu.S. Budushee polimernix kompozitsiy. Kiev. "Naukova "dumka", 1984g. 135s.
4. Lipatov Yu.S. Mejfaznne yavleniya v polimerax. Kiev, "Naukova dumka", 1980g. 260s.

### 2.3.Laboratoriya mashg'ulotlari

#### **Laboratoriya ishi №1** *Stirolni miqdoriyani aniqlash.*

<b>Stirol</b> (vinilbenzol) umumiyo ko'satkichlari	kattaliklar
Molekulyar og'irligi	104,14
Zichligi	0,906
Sindirish ko'satkichi	1,5469
Suyuqlanish xarorati	-30,63 °S
Qaynash xarorati	145,2 °S

Ushbu laboratoriya ishini bajarishdan maqsad polistirol olish uchun asosiy xom a'shyo bo'lgan stirolni aniqlash. Ushbu usul stirolni kimyoviy analiz qilish, ya'ni uni vinil guruxlari reaksiyalariga asoslangan. Ularni ichida eng ko'p tarqalgani: bromlash usuli, bromid-bromat usuli va Kaufman usuli.

**Bromid-bromat usuli.** Bu usul bromid-bromat aralashmasi oksidlanguanda ajralib chiqayotgan bromni stiroldagi ko'shbog'larga birikishiga asoslangan.

*Xom-a'shyo:* KVg - KVChO<sub>3</sub>-0,1 n eritmasi 50 ml, 50% li sirkal kislotsasi- 10-15ml, xlorid kislotsasi HCl,  $\rho = 1,19$ , 10 % li kaliy yodid- eritmasidan 10 ml, 0,1% li natriy tiosulfat eritmasi , 1% li kraxmal eritmasi.

*Jihozlar:* 100 ml sig'imli kolba, 500 ml sig'imli, og'zi jilvirlangan kolba, 10 ml li pipetkalar, 10 ml li silindr

*Ishni bajarish tartibi:* O'lchami 100 ml bo'lgan kolbagaga 10-15 ml sirkal kislotsasi, 0,0002 g aniqlikda tortib olingan 2gr stirol solinib, kolba o'lchamigacha sirkal kislotsasi bilan to'ldiriladi. Keyingi 500ml li kolbagaga shu tayyorlangan monomer eritmasidan pipetka yordamida 10

ml, silindr yordamida 50 ml kaliyni bromid-bromat eritmasidan, xamda 10 ml xlorid kislota solinadi. Hosil bo‘lgan aralashma usti berk xolda 20 minutga qorong‘i joyga qo‘yib ko‘yiladi. So‘ngra shu aralashmaga silindr bilan 10 ml kaliy yodid eritmasidan solinadi. Hosil bo‘lgan aralashma  $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$  bilan kraxmal ishtirokida titrlanadi. Bir vaqt ni o‘zida nazorat uchun ikkinchi kolbaga monomer o‘rniga 10 ml sirkas kislotasi solib, uni ham analiz qilinadi.

Stirolni miqdori quyidagi formula orqali hisoblanadi.

$$X = \frac{(V_1 - V_2) \times F \times 0,0052 \times 100}{\Delta}$$

bu yerda:

$V_1$  - nazorat uchun olingan kolbadagi aralashmani titrlash uchun sarf bo‘lgan 0,1 n li  $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$  eritmasi, mikdori, ml.

$V_2$  - stirol solingan kolbadagi aralashmani titrlash uchun sarf bo‘lgan 0,1 n li  $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$  eritmasi mikdori, ml.

F-0,1n li  $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$  eritmasini keltirilgan koeffitsenti, 0,0052 - konsentratsiyasi 0,1 n bo‘lgan  $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$  eritmasiga mos bo‘lgan stirol mikdori, gr.

O‘lhash va hisoblash natijalari quyidagi jadval bo‘yicha to‘ldiriladi:

Moddalar	Kolbani dastlabki massasi, gr	Kolbani Keyingi massasi, gr	Kolbani modda bilan birligida massasi, gr	Modda massasi, gr	Sarf bo‘lgan $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$ xajmi, ml	Olingan natijalar

### Topshiriq

1. Stirolni kimyoviy analiz qiling.
2. Stirolning miqorini xisoblang.

### Laboratoriya ishi №2

#### *Spirtlarni miqdoriy aniklash.*

Ushbu laboratoriya ishini o‘tkazishdan maqsad, etilenglikolni miqdoriy aniqlash orqali uning tozaligini o‘rganish.

**Xom-ashyo:**  $\text{K}_2\text{Sg}_2\text{O}_7$  – eritmasidan 25 ml,  $\text{H}_2\text{SO}_4$  -1,25 ml, KJ 10% li eritmasidan 20 ml,  $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$  0,1 eritmasi , kraxmalning 1% li eritmasi

**Jixozlar:** 500 sig‘imli kolba, 25, 50 ml li pipetkalar, 250 ml sig‘imli konussimon kolbalar, voronkalar, 50;25 ml o‘lchamli silindrlar, 750 ml sig‘imli kolbalar.

### *Bixromat usuli.*

Bixromat usuli etilenglikolni bixromat kaliyni nordon eritmasida sovutib, uglerod oksidi va suv ajralib chiqishiga asoslangan.

Miqdori 0,0002 g aniqlikda o‘lchang 2 g etilenglikol, sig‘imi 500 ml bo‘lgan o‘lchamli kolbaga tortib solinib, kolba aniqlash chizig‘igacha distillangan suv bilan to‘ldiriladi. Yaxshilab aralashtirilgan eritmadan pipetka yordamida 25 ml olib sig‘imi 250 ml bo‘lgan kolbaga solinadi. Shu kolbaga pipetka yordamida 25 ml  $\text{K}_2\text{Sg}_2\text{O}_7$  eritmasidan, 50 ml li silindr yordamida  $\text{H}_2\text{SO}_4$  solinadi. Hosil bo‘lgan aralashma suv hammomida og‘zi voronka yordamida berkitilgan holatda 2 soat davomida qizdiriladi.2 soatdan so‘ng aralashma olib, sovitiladi, kolba ichidagi o‘lchovli kolbaga solinib, o‘lchov

chizig‘igacha distillangan suv bilan to‘ldiriladi. Hosil bo‘lgan bu aralashmadan pipetka yordamida 50 ml olib, sig‘imi 750 ml bo‘lgan kolbaga solinadi. So‘ngra unga silindr yordamida 20 ml KJ eritmasidan solib, kolbani og‘zi rezina qopqoq. bilan berkitiladi. Oradan 5 minut o‘tgandan so‘ng aralashma 400-500 ml suv bilan suyultirilib, hosil bo‘lgan aralashmadan ajralib chiqayotgan yod kraxmal ishtirokida  $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$  eritmasi bilan titrlanadi. Bir vaqtini o‘zida 2 ta namuna analiz qiliinadi. Kolbalar biriga etilenglikol o‘rniga 25 ml distillangan suv solinadi. Etilenglikol mikdori quyidagi formula yordamida xisoblanadi.

$$X = \frac{(V_1 - V_2) \times F \times 0,0052 \times 100}{\Delta}$$

Bu yerda:

$V_1$  - etilenglikol solingen namunani titrlash uchun sarf bo‘lgan 0,1 n li  $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$  ni xajmi, ml.

$V_2$  - etilenglikol o‘rniga distillangan suv solingen namunani titrlash uchun sarf bo‘lgan 0,1 n li  $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$  ni xajmi, ml.

$F$  - 0,1 n li  $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$  ni keltirilgan koeffitsienti.

0,0006207 0,1 n li  $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$  eritmasini 1 ml ni titrlash uchun sarf bo‘lgan etilenglikol mikdori.

$g$  - etilenglikol og‘irligi

O‘lchash va xisoblash natijalari quyidagi jadval buyicha to‘ldiriladi

Moddalar	Kolbani birinchi massasi, gr	Kolbani ikkinchi massasi, gr	Kolbani modda bilan massasi, gr	Modda massasi, gr	Ketgan $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_7$ xajmi, ml	Olingan natijalar

### Topshiriq

- Etilenglikolning fizik va kimyoviy xossalalarini o‘rganing.
- Etilenglikol mikdorini formula yordamida xisoblang.

### Laboratoriya ishi № 3 Plastifikatorlar sovunlanish sonini aniklash.

Laboratoriya ishini o‘tkazishdan maqsad, polimerlarni qayta ishlashni pastrok xaroratda olib borish va mo‘rtligini kamaytirish, elastikligi yuqori-roq. bo‘lgan buyumlar olish, maqsadida polimer kompozitsiyalariga qo‘shiladigan plastifikatorlarni sovunlanish soni orqali ularni tozalik darajacini aniq-lash.

Ko‘pgina xollarda polimer materiallarni buyumlarga qayta ishlashda polimerlarni oldindan plastifikatsiyalanganda qayta ishlash jarayoni yengillashadi. Bu effektga polimerlar tarkibiga plastifikatorlar deyiluvchi maxsus qo‘srimchalar kiritilishi xisobiga erishiladi. Plastifikatorlar sifatida kuyi molekulyar, yuqori xaroratda qaynovchi, polimerlar bilan aralashuvchi suyuqliklar ishlatiladi. Polimerlar plastifikatorlar bilan aralashtirilganda unda bo‘kadilar. Natijada polimerlarni kovushqoqligi va shishalanish xarorati kamayadi. Polimerlar qovushkokligini kamaytirish ularni nisbatan past xaroratda qayta ishlash imkonini beradi. Kimyoviy tarkibiga ko‘ra plastifikatorlar murakkab efirlar, uglevodorodlar va ularni xosilari, o‘simliklik moylari va ularni modifikasiyalash maxsulotlari kabilarga bo‘linadilar.

Plastifikaarga misol qilib, butilbenzilftalat, dibutilftalat, di (2-geksil) adepinat, di(2-etylgeksil) ffilat, trikrezolfosfat, trifenilfosfat kabilarni ko‘rsatish mumkin.

Plastifikatorlarga kuyidagi asosiy talablar qo‘yiladi.

- a) polimer bilan aralashib, ekspluatatsion barkarorlikka ega bo‘lgan sistema xosil qilish;
- b) kam uchuvchanlik;
- v) rangsizlik;
- g) xidsizlik;
- d) kimyoviy bardoshlik va boshqalar.

Plastifikatorlar sifatida murakkab efirlar ishlatilishi, ularni mikdoriy analiz kilishda murakkab efirlar sovunlanish sonini aniqlash orqali topishga imkon yaratadi.

### ***Sovunlanish sonini aniklash.***

**Sovunlanish soni.** 1 gr tekshirilayotgan moddadagi murakkab efirlarini sovunlash uchun sarf bo‘lgan ishkor-KON mikdori (mg) geterozanjirli poliefirlarni sovunlashda destruksiya asosiy zanjir bo‘ylab amalga oshadi:

Murakkab efir guruxlari tutgan polimerni sovunlanishi quyidagicha bo‘ladi.

Sovunlash uchun ishqordan ko‘proq olinadi. Reaksiyaga kirishmay kolgan ishqor kislota bilan titrlanadi.

**Xom-ashyo:** KON ning 0,5 n li spirtli eritmasi, NS1 0,5 n li eritmasi, fenolftalein 1% li spirtli eritmasi.

**Jixozlar:** Sigimli 250 ml bo‘lgan sovutgich o‘rnatilgan kolbalar. Natron momig‘i(natronnaya izvest) o‘rnatilgan naychalar, 25 ml li pipetkalar.

### ***Ishni bajarish tartibi.***

Sig‘imi 250 ml bo‘lgan kolbaga 0,0002 gr aniqlikda tortib olingan 0,5-1,0 gr tekshirilayotgan modda ( PE-1 ) solinib, unga 25 ml 0,5 n li ishqor eritmasidan solinadi. Hosil bo‘lgan aralashma qaytar sovutgich yordamida 3 soat davomida kaynatiladi. Bu trubkalar kolba ichiga xavodan uglerod oksidi tushishini oldini oladi.

Kolbalar qizdirilib bo‘lgandan, so‘ng sovumasdan oldin NCI ni 0,5 n li eritmasi fenolftalein ishtirokida titrlanadi.

Bir vaqtini o‘zida nazorat uchun 2 chi kolba ham qo‘yiladi.

Sovunlanish soni kuyidagi formula orkali topiladi.

bu yerda:  $V_1$  -nazorat uchun olingan kolbani titrlash uchun sarf bo‘lgan 0,5 n li NS1 eritmasi xajmi, ml.

$V_2$ - murakkab efir solingan kolbani titrlash uchun sarf bo‘lgan 0,5 n li NS1 eritmasi xajmi, ml.

F-0,5n li NS1 eritmasi uchun keltirilgan koeffitsent

0,028- 1 ml 0,5 n li NCI eritmasi to‘g‘ri keladigan KON mikdori

g - analiz uchun olingan modda mikdori.

O‘lhash va xisoblash natijalari quyidagi jadval bo‘yicha daftarga yoziladi

Moddalar	Kolbani birinchi Massasi, gr	Kolbaii ikkinchi massasi, gr	Kolbani modda bilan massasi, gr	Modda massasi, gr	Ketgan $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_7$ xajmi, ml	Olingai natija lar

### Topshiriq.

- 1.Sovunlash sonini aniqlang.  
2.Plastifikatorlar sifatida qanday murakkab efirlar ishlataladi.

2.

### Laboratoriya ishi № 4.

#### *CHoklovchi agentlar sifatini baxolash.*

Ishdan maqsad, choklovchi agentlar tabiatini va choklash sharoitini o‘zgartirib to‘rsimon polimerlar xossalari sezilarli o‘zgartirish.

CHoklovchi agentlar qayta ishslashning ma’lum bosqichida chiziqsimon makromolekulalarni yagona uch o‘lchamli turli choklash uchun polimer kompozitsiyalar tarkibiga kiritiladi. Rezina sanoatida choklovchi birikmalarni vulkanlovchi agentlar, choklanish jarayonini vulkanlash deyiladi. Masalan, epoksid qatronlarini qotirishda turli choklovchi agentlar poliamin, dikarbon va polikarbon kislotalari, ularni angidridlari, fenol-formaldegid, karbamid, kremniy organik qatronlar va boshqalarni qo’llash hisobiga shishalanish xaroratlari, kayishqoklik modullari, mustaxkamligi turlicha bo‘lgan polimer materiallar olish mumkin. Ta’sir qilish xarakteriga qarab choklovchilar qotiruvchilarga, qotirish initsiatorlariga va katalizatorlariga bo‘linadilar. Qotirish initsiatorlari choklashda ishtirok etadigan erkin radikallarga parchalanadigan moddalar bo‘lsa, katalizatorlar oligomerlarni bir-biri bilan yoki qotiruvchilar bilan reaksiyasini tezlashtirivchi moddalardir. Qotiruvchilar turini polimer kimyoviy tabiatiga va sistemaning berilgan xossalariiga qarab tanlanadi.

**Xom-ashyo:** To‘yinmagan poliefir (PN-1), qotiruvchi sistema: metiletilketon perekisi (PMEK)-tashabuskor sifatida, naftenatni kobaltli tuzi-katalizator jadalashtiruvchi sifatida, qotiruvchi agentni to‘yinmagan poliefirni eritmasi og‘irligiga nisbatan 0,2; 0,6 va 1,2 % miqdorida olinadi.

**Jixozlar:** Termoshkaf, koliplar, 100 ml sig‘imi kolbalar. Qoliplar davlat standartlari asosida bo‘lib, o‘lchamlari kuyidagicha: Balandligi 15 mm, Uzunligi 120 mm, Eni 10 mm

### Ishni bajarish tartibi.

To‘yinmagan poliefirni stioldagi 40% li eritmasi tayyorlanadi. 150 gr poliefir 100 gr stiolda eritiladi. Olingan aralashma 3 kismga bo‘linadi. Ajratilgan 3 ta namunaga poliefir eritmasi massasiga nisbatan 0,2 ; 0,6 va 1,2 % miqdorida qotiruvchi qo‘shiladi. Hosil bo‘lgan aralashma tayyor qoliplarga kuyiladi. Qotirish xarorati 100°С bo‘lgan termoshkaflarda 3 soat davomida amalga oshiriladi. Qotirilgan namunalarni tashqi ko‘rinishi, zarbiy qovushqoqligi, mustaxkamligi, termomexanika egri chiziklari kabi fizik-mexanik xossalari orqali baxolanadi.

### Topshiriq

1. Rezina sanoatida choklovchi agentlarni axamiyatini tushuntiring.
2. Qotiruvchilar turini polimer kimyoviy tabiatiga va sistemaning berilgan xossalariiga qarab tanlang.

## Laboratoriya ishi № 5

### O'simlik moylari rangini iod eritmasi bo'yicha aniqlash.

**Ishdan maqsad:** O'simlik moylarini rafinatsiyalash jarayonida tozalanish darajasini o'rganish.  
**Xom-ashyo:** (% hisobida): Har xil usulda tozalangan o'simlik moylari.  
**Asboblar va jixozlar:** Iodning etalon probirkalarini.

**Ishni bajarish:** O'simlik moylarining rangini har xil intensivlikka ega bo'lgan sariq rangli moylar rangini yod eritmasi rangi bo'yicha aniqlanadi. Bu usul sinalayotgan moylar rangi intensivligini standart iod eritmalari rangi bilan solishtirishga (taqqoslash) asoslangan. Moyning rangi (yoki rang soni) 100 ml iod suvli eritmasining kaly ioddagi ozod iod milligamm soni orqali ifodalanadi, bu eritma rangi 1 sm qalinlikda sinalayotgan moy rangi intensivligiga ega bo'ladi.

Iodning suvdagi standart eritmasini tayyorlash uchun stakanda 0.26-0.27 g iod, 0.0002 g aniqlikda ikki baravar miqdorda KJ tortib olinadi va taxminan 10 ml distillangan suvda eritiladi; eritmani 250 ml sig'imli o'lchagich kolbaga quyiladi, belgigacha suv bilan to'diriladi va chayqatiladi. Tayyorlangan eritma konsentratsiyasi  $\text{Na}_2\text{SO}_3$  ning 0.01 n. eritmasi titri  $\text{K}_2\text{Cr}_2\text{O}_7$  (GOST 4240-48) ning 0.01 n. eritmasi bilan aniqlanadi. Tayyorlangan eritmaga standart eritma 100 ml da 100 mg iod bo'lgunicha miqdorda hisoblab distillangan suv quyiladi. Standart eritma tiqin (probka) bilan yopilgan qorong'u rangiga idishda salqin va qorong'u joyda saqlanganda 2.5 oy davomida yaroqli bo'ladi.

Rangli shkala tayyorlash uchun ichki diametri 10 mm rangsiz shishadan yasalgan probirkaga dastavval xlorid kislotaning 10 % - li eritmasida qaynatiladi va keyin yuviladi va bug'da tutiladi, unga pipetka bilan iodning standart eritmasi solinadi va byuretka orqali jadvalda ko'rsatilgan miqdorda distillangan suv quyiladi.

Probirkalarning toraygan qismi ehtiyyotlik bilan kavsharlanadi va ularga 100 ml eritmadagi iodning milligamm soni qalam bilan yoziladi.

Iod etalonlari (probirkalar) qorong'u joyda saqlanishi lozim va har 6 oyda tekshirilishi shart.

Rang soni quyidagicha aniqlanadi. Rangsiz shishadan yasalgan ichki diametri 10 mm bo'lgan probirkaga o'simlik moyi solinadi va uning rang intensivligi standart eritmalari rangi bilan solishtiriladi. Sinov ishlari 20°S haroratda kunduzgi yorug'lik yoki xira elektr chirog'i yorug'ligida olib boriladi. Moy rangiga etalon rangi mos kelishi sinalayotgan moy rangiga teng deb qabul qilinadi.

### Topshiriq.

1. Turli xil o'simlik moylari formulalarini yozing.
2. Rangning standart shkalasini tayyorlang.
3. Moylarni tozalashning turli usullarini tushuntirib bering.
4. Turli moylarning shkala bo'yicha rang sonini aniqlang.

## Laboratoriya ishi № 6

### O'simlik moylarining kislota sonini aniqlash.

**Ishdan maqsad:** O'simlik moylari tarkibidagi ozod yog' kislotalar miqdorini aniqlash.  
**Xom-ashyo:** (% hisobida): O'simlik moylari – 3-5 g; etil spirti – 50 ml; 0.1 n KOH yoki NaOH titrlovchi eritmasi.

**Asboblar va jixozlar:** Titrlash uchun byuretkalar, konussimon kolbalar.

**Ishni bajarish:** Kislota soni moyning 1g dagi ozod yog' kislotalarni neytrallash uchun zarur bo'lgan o'yvchi kaliyning milligamm miqdorini ko'rsatadi.

Kislota sonini aniqlash uchun konussimon kolbaga 3-5 g moy tortib olinadi, unga 50 ml etil spirti qo'shiladi va chayqatiladi. Bunda, agar moy erib ketmasa, u xolda suv xammomida yengil chayqatib turib qizdiriladi va keyin 15-20°S haroratgacha sovutiladi.

Olingen eritmani muntazam chayqatib trib 0.1 n KOH yoki NaOH eritmasi bilan aniq rang o'zgargunicha titrlanadi, bunda indikator ishtirok etadi.

Moy kislotaliligi 6 mg dan yuqori bo'lsa moy namunasi 2 g atrofida olinadi va uni 40 ml etil spirtida eritiladi.

KOH yoki NaOH ning 0.1 n eritmasi bilan titrlashda neytrallangan aralashma yoki spirt miqdori sovun eritmasi gidrolizlanmasidan 5 baravar bo'lishi lozim.

Moyning kislota soni quyidagi formuladan hisoblanadi:

Bu yerda:  $M$  - KOH yoki NaOH uchun 5.611 ga teng;

$V$  – 0.1 n KOH yoki NaOHeritmasining titrlash uchun sarf bo'lgan hajmi, ml;

$A$  – moy namunasi miqdori, g.

Yakuniy natija sifatida ikki parallel aniqlashning o'rtacha arifmetik qiymati qabul qilinadi, bunda natijalar o'rtasidagi tafovut xom moylar uchun 0.1 mg dan, rafinirlangan moylar uchun esa 0.06 mg dan oshmasligi lozim.

Agar moyning kislotaliliginı % da ifodalash talab qilinsa, (olein kislotaga nisbatan) u holda topilgan kislota sonini 0.503 ga ko'paytiriladi.

### Topshiriq.

1. Turli xil o'simlik moylarining formulasini yozing ular tarkibiga kiruvchi yog' kislotalarni keltiring.
2. O'simlik moylarining sovunlanish reaksiyasini yozing. Reaksiya mexanizmini tushuntiring.
3. O'simlik moylaridagi ozod yog' kislotalar miqdorini aniqlang.

## Laboratoriya ishi № 7

### Etilensiangidrindan akril kislota olish.

Ishdan maqsad, laboratoriya sharoitida akril kislota olishning asosiy usullari bilan tanishish.

**Xom-ashyo:** etilensiangidrin – 71g; sulfat kislota ( $\rho = 1,84$ ) -98g; atseton – 140g, gidroxinon – 0,5g; mis varog'i – 2g.

**Jixozlar:** germetik tiqincha o'rnatilgan aralashtirgich, qaytar sovtgich, tomizdirgichli varonka va termometr bilan ta'minlangan to'rt og'izli kolba (Rasm - 37); sovuq suvli xammom; vakuumda xaydash asbobi, ajratish varonkasi.

### Ishni bajarish tartibi.

To'rt og'izli kolbaga etilensiangidrin va 2 gr ga yaqin mis varog'i tushiriladi. Kolba aralashtirilganda va muz xamda tuz bilan aralashmasida sovutilgan vaqtida konsentrangan sulfat kislotani yarim soat davomida tomizg'ichli varonka orqali qo'shib turiladi. Undan keyin kolbaga 18ml suv solinadi va sovutgichdagi suv yoqib qo'yiladi.

Aralashma asta-sekin suvli xammomda qizdiriladi.  $80^0S$  xaroratida reaksiya jadallahadi, natijada xarorat  $130-140^0S$  gacha ko'tarilib ketishi mumkin. Reaksiya  $95^0S$  xaroratida 1 6soat davom etadi. So'ng reaksiyon aralashma sovutiladi va ammoniy gidrosulfatining kristallari yarim qattiq massasida ajratish varonkasi yordamida akril kislotani atseton bilan ajratish varonkasida ekstragirlanadi. Atseton tarkibidagi 0,5g gidroxinon bo'ladi.

Atseton xaydaladi, toza akril kislota esa vakuum ostida fraksion xaydash orqali ajratib olinadi. Olingen maxsulotning qaynash xarorati  $132-141^0S$ . Chiqishi nazoratdan 68% ni tashkil etadi.

## Topshiriq

Vakuum ostida fraksion xaydash orqali ajratib olingan toza akril kislotani fizik va kimyoviy xossalarini aniqlang.

### Laboratoriya ishi №8

#### Metilakrilatdan akril kislotasini olish

Ishdan maqsad, akril kislota olishning eng qo'lay usuli bu chumoli kislotasini akril kislotaning metil efirining o'zaro ta'sirida katalizator sifatida sulfat kislotasi qo'llanilishi.

Reaksiya qo'yidagi sxema bo'yicha ketadi:

**Xom-ashyo:** Akril kislotaning metil efiri – 516g; chumoli kislotasi – 92g; gidroxinon-5g; Sulfat kislota(kons) - 1ml;

**Jixozlar:** sig'imi 11 bo'lgan sharsimon kolba unda distillyat ajralishini boshqaradigan balandligi 100sm bo'lgan diflegmator o'rnatilgan bo'lishi kerak.

#### Ishni bajarish tartibi.

Akril kislotaning metil efirida gidroxinon eritiladi va bu eritma distillyat ajralishini boshqaruvchi deflegmator bilan ta'minlangan sharsimon kolbaga tushiriladi. Keyin unga chumoli kislotani va konsentrangan sulfat kislota ( $\rho = 1,84\text{g/sm}^3$ ) qo'shiladi. Aralashma, deflegmatorning yuqori qismidagi xarorati  $32^\circ\text{S}$  tushguncha qaynatiladi. (CHumoli kislotaning metil efiri qaynash xarorati). Xosil bo'lgan chumoli kislotaning metil efiri xaydaladi, bunga 8-12soat talab qilinadi. Efir xosil bo'lishi to'xtaganda, ortib qolgan akril kislotaning metil efiri vakuum ostida ( $18,7\text{kPa}$ )  $35^\circ\text{S}$  da xaydaladi. So'ng akril kislota ajratilib,  $56^\circ\text{S}$  va  $3,3 \text{ kPa}$  da qaynaydigan fraksiyasi yig'ib olinadi. Maxsu-lot chiqishi nazariydagidan 88% ni tashkil etadi. Akril kislotani tozalash. Akril kislota vakuum ostida xaydash bilan tozalanadi (jadval - 1). Xaydash Klayzen kolbasida gidroxinon stabilizatori ishtirokida bajariladi. Gidroxinon akril kislotasiga xaydaladigan maxsulot massasidan 5% miqdorda qo'shiladi.

*Jadval 1*

Toza akril kislotasining qaynash xarorati bilan bosimiga bog'liqligi

Bosim		T. erish, ${}^\circ\text{S}$	Bosim		T. erish, ${}^\circ\text{S}$
kPa	mm.sm.ust.		kPa	mm.sm.ust.	
101,3	760	141	1,9	15	48,5
100,4	753	140	1,8	15	42
33,2	249	100	1,5	12	39,5 – 40,2
6,66	50	71	1,2	7,7	20
3,9	30	70	-	-	-

#### Topshiriq

CHumoli kislotaning metil efirini xaydash usuli bilan tozalang.

### Laboratoriya ishi №9

#### Pentaeritrit miqdorini aniqlash.

**Ishdan maqsad:** Kraft usulida monopentaeritrit miqdorini aniqlash.

**Xom a'shyo:** (g. hisobida): Yangi xaydalgan benzaldegid, etil spirti – rektifikat, HCl rN = 1.19

**Asboblar va jixozlar:** Sig'imi 100 ml shliflangan tinqinli konus kolbalar; sig'imi 10 ml o'lchagich silindr; sig'imi 2 va 5 ml tomchilatgichlar; Shott filtri; Bunzen kolbasi.

**Ishni bajarish.** Bu usul pentaeritritning benzoy aldegidi bilan o‘zarota’sirlashuviga asoslangan, buning natijasida nordonmuhitda dibenzolpentaeritrit hosil bo‘ladi:

0.0002 g aniqlikda o‘lchab tortib olingan 0.5 g pentaeritrit 10 ml distillangan suvda eritiladi, kolbagacha 10 ml etilspirti, 2 ml konsentrangan xlorid kislota va 2 – 2.5 ml benzoy aldegidi qo‘shiladi. So‘ngra aralashtiriladi va 24 soat xona haroratida saqlanadi. Cho‘kkani kristallarni Shott filtrida tozalanadi, neytral reaksiyagacha sovuq suvda yuviladi va 105 - 110°S haroratda termostatda quriladi.

Ikkita namuna tahlil qilinadi va natija sifatida o‘rtacha qiymat qabul qilinadi. Pentaeritrit miqdori X (%) quyidagi formuladan hisoblanadi:

Bu yerda:  $G$  – dibenzolpentaeritrit miqdori, g;

$0.4539 - 1$  g dibenzolpentaeritritga eruvchanligi uchun tuzatish koeffitsienti;

$0.0377$  - dibenzolpentaeritritga eruvchanligi uchun tuzatish koeffitsienti;

$g$  – pentaeritrit namunasi og‘rligi, g.

### **Ilova.**

1. Ishlatilayotgan suv, etilspirti va xlorid kislota aralashmasida dibenzolpentaeritrit qisman eriydi. Agar 0.0377 tuzatish koeffitsienti e‘tiborga olinmasa, u xolda natija o‘rtacha 2.5 % ga pasayadi.

2. Bu usuldan toza pentaeritritni hamda dipentaerit va pentaeritritning boshqa kondensatsiya mahsulotlari bilan qo‘shilib ketgan pentaeritritni ham aniqlashda foydalanish mumkin.

### **Topshiriq.**

1. Ko‘p atomli spirtlar formulalarini yozing.
2. Ko‘p atomli spirtlar va ko‘pasosli kislotalarning o‘zaro ta’sirlashuv mexanizmini tushuntiring.
3. Asosiy modda miqdorini aniqlang.

## **Laboratoriya ishi № 10**

### **Ftal angidridi miqdorini aniqlash.**

**Ishdan maqsad:** Ftal angidrididagi karbon kislotalar angidridi miqdorini aniqlash.

**Dastlabki moddalar:** (g. hisobida): 0.5 n natriy gidroksidi eritmasi; metilspirti; fenolftaleinning spirtdagi 1 % - lieritmasi.

**Asboblar va jixozlar:** Namuna uchun byuks; sig‘imi 250 ml shlifflangan sharikli sovutgich o‘rnatalgan konus kolbalar.

**Ishni bajarish.** Ftal angidridining massa miqdorini aniqlash. Bu usul ftal kislotaning dimetil efiri hosil bo‘ladigan eterifikatsiya reaksiyasiga asoslangan:

Texnik mahsulot biroz miqdorda ftal kislotasi saqlagani uchun ftal angidridining haqiqiy miqdorini aniqlashda sinalayotgan namuna bilan ikkita titrlash o‘tkaziladi. Eterifikatsiyagacha ftal angidridi va ftal kislotasini titrlash uchun etirifikatsiyadan keyin – faqat ftal angidridi uchun natriy gidroksidi eritmasi hajmi aniqlanadi.

Ftal angidridi uchun natriy gidroksidi eritmasi sarfini aniqlash uchun ikkala holatda hom titrlovchi natriy gidroksidi eritmasini tahlil uchun olingan moddaning 1 g miqdoriga nisbatan hisoblash zarur. Keyin kattaliklar farqi bo‘yicha ftal angidridining hatsitsiy massa ulushi aniqlanadi.

Ftal angidridining  $S_8N_4O_3$  molyar massasi uning mol massasi yarmi (0.5) ga teng.

Ftal angidridining kattaligi 1 dan 1.2 gacha bo‘lgan ikkita namunasi olinadi.

Birinchi namunani ( $M_1$ ) 80 ml yangi qaynatilgan suvda eritiladi,  $SO_2$  dan holi holda sovutiladi va fenolftalein ishtirokida 0.5 n natriy gidroksidi eritmasi bilan titrlanadi ( $V_1$ ).

Ikkinci namunani ( $M_2$ ) 20 ml suvsiz metil spirtida eritiladi, qaytar sovutgich ulangan konus kolbada 1 soat davomida asta – sekin qaynatiladi. Keyin sovutiladi va 0.5 n natriy gidroksidi eritmasi bilan fenolftalein ishtirokida titrlanadi ( $V_2$ ). Natriy gidroksidi eritmasi sarfi ikkala holatda xam tahlil uchun olingen moddaning 1 grammiga hisoblanadi. Buning uchun ikkala titrlashda sarf bo‘lgan natriy gidroksidi xajmini aynan o‘sha aniqlashga olingen namuna miqdoriga bo‘linadi:  $V_1 / M_1$  va  $V_2 / M_2$ . So‘ngra ftal angidridining massa ulushi X (%) xisoblanadi:

$$X = (V_1 / M_1 - V_2 / M_2) K \cdot 0,0375 \cdot 100$$

Bu yerda:  $K$  – natriy gidroksidining 0.5 n eritmasi uchun tuzatish koeffitsienti;  
 $0,0375$  – agar ftal angidridi reaksiysi 22.4 % gacha borganda, aniq 1  $\text{sm}^3$  0.5 n natriy gidroksidi eritmasiga to‘g‘ri keladigan ftal angidridi massasi;

### Topshiriq.

1. Ba’zi ko‘p asosli kislotalar formulasini yozing.
2. Ko‘p atomli spirtlar va ko‘p asosli kislotalarning o‘zaro ta’sirlashuv mexanizmini tushuntiring.
3. Asosiy modda miqdorini aniqlang.

### Laboratoriya ishi № 11

#### Noorganik pigmentlarning umumiylah tahsil usullari.

**Ishdan maqsad:** Bu ishlar ko‘pgina noorganik pigmentlarga xos bo‘lgan ayrim umumiylah tahlil turlariga tegishli.

**Xom a’shyo:** (g. hisobida): Turli xil pigmentlar; distillangan suv.

**Asboblar va jixozlar:** Namuna olish uchun byuks; chini tigel № 2; indikatorlar quritgich, pech, tomchilatgich, konus kolbalar, filtrlar.

**Ishni bajarish.** Namlik miqdorini aniqlash. Yon tomonlari pastroq bo‘lgan byuksda aniq tortib olingen pigment namunasi 105°S haroratda 1 - 2 soat davomida o‘zgarmas (doimiy) og‘irlikkacha quritiladi.

Namlikning protsent miqdori quyidagi formuladan hisoblanadi.

Bu yerda:  $a$  – pigment namunasi og‘irligi, g;;

$b$  – pigment bilan byuksning birgalikda quritilgunicha bo‘lgan og‘irligi, g;

$s$  – ... qurigandan keyingi og‘irligi, g.

*Qizdirilgandagi yo‘qotilishini aniqlash.* Aniq (1–5 g) pigment namunasi chinni tigelga №2 solinib 600–700°S haroratda doimiy og‘irlikkacha qizdiriladi.

Qizdirilgandagi yo‘qotishni protsentda quyidagi formuladan hisoblanadi:

Bu yerda:  $a$  – pigment namunasi og‘irligi, g;;

$b$  – tigelning pigmenti bilan birgalikda qizdirilgunicha bo‘lgan og‘irligi, g;

$s$  – ... qizdirilgandan keyingi og‘irligi, g.

*Suvda eruvchan tuzlar miqdorini aniqlash.* Aniq (3 - 5 g) pigment namunasi, 100 ml distillangan suvda aralashtiriladi, qaynatilgunicha qizdiriladi va 5 minut qaynatiladi. Stakancha ichidagi sovigach, sig‘imi 300 ml o‘lchagich kolbaga o‘tkaziladi, ko‘rsatilgan belgigacha distillangan suv qo‘siladi, aralashtiriladi va tindirib quyiladi. Dastlabki 25 – 50 ml aralashmani to‘kib tashlab, tingan eritmaqruq kolbaga filtrlanadi. Kolbadan tomchilatgich bilan 100 ml eritmani olinadi va avvaldan tortib o‘lchangan chinni idishchaga quyiladi. Idishcha ichidagi eritma qurigunicha bug‘lantiriladi va 100 – 105°S haroratda

doimiy og'irlikkacha quritiladi. Suvda eruvchan tuzlarning protsent miqdori quyidagi formuladan hisoblanadi:

Bu yerda:  $a$  – pigment namunasi og'irligi, g;;

$b$  – idishcha bilan cho'kmaning quritilganidan keyingi og'irligi, g;

$s$  – ... idishcha og'irligi, g.

$V$  – o'lchagich kolba xajmi, ml.

$o$  – tomchilatgich xajmi, ml.

Suv "tortish" reaksiyasini aniqlash. Idishda 3 g pigment va 300 ml distillangan suv solib qizdirilgan eritma filtrlanadi, unga bir bo'lakcha qizil va ko'k lakmus qog'ozni tashlanadi. Qizil qog'ozning ko'karib qolishi ishqoriy reaksiya, ko'k qog'ozning qizil rangga o'tib qolishi kislotaviy reaksiyani ko'rsatadi.

### **Topshiriq.**

1. Pigmentlarning sinflanishi.
2. Pigmentlarning asosiy tavsiflari.
3. To'ldiruvchilar va pigmentlar orasidagi farqni tushuntiring.

### ***Yuqori molekulalari birikmalar sintezi***

Polimerlar kuyi molekulyar moddalardan ikki xil uslubda sintez kilib olinadi: polimerlanish va polikondensatsiyalanish. Polikondensatsiyalanishda monomerlar funksional guruxlar buyicha reaksiya tufayli birikadilar. Bunda reaksiyaning kuyi molekulyar maxsuloti ajralib chikadi. Polimerlanishda makromolekulalar tuyinmagan bog'larni yoki xalqani ochilishi hisobiga hosil buladi.

#### **Radikal polimerlanish**

Radikal polimerlanishda aktiv markaz erkin radikaldir. Radikal polimerlanish barcha zanjir reaksiyalar kabi uch bosqichdan iboratdir: aktiv markazni xosil bo'lishi, zanjir o'sishi va zanjir uzilishi.

Aktiv markazni hosil bo'lishi. Aytib o'tilganidek aktiv markaz sifatida erkin radikallar yuzaga chiqadi. Ular tashki elektron qobig'ida juftlanmagan elektronlar bo'lishi xisobiga elektrofil xossalarni namoyon qiladi. Bu aktiv zarrachalar  $\pi$ - va  $\sigma$ - bog'larni elektron juftlari bilan ta'sirlashib, uni erkin radikalga aylantiradi:

Radikalni hosil qilishga qancha kam energiya sarf qilinsa, u shuncha oson xosil bo'ladi va turg'un bo'ladi.

Radikal polimerlanishda aktiv markazni xosil kilishni bir necha xil usullari bor: termik initsirlash, fotokimeviy initsirlash, radiatsion initsirlash, kimeviy insirlash.

**Termin initsirlash.** 100°C dan yukorida sezilarli darajada ketadi. Aksariyat xollarda turli qo'shimchalarning termik parchalanishi hisobiga sodir buladi. Shu kunga kelib faqat stirol va metilmekrilat monomerlarini o'zi initsirlab, termik polimerlanishi isbot qilingan.

**Fotokimeviy initsirlash.** Radikallar monomerni ultrabinafsha nur ( $X = 400$  nm) bilan nurlantirilganda quyidagi sxema bo'yicha hosil bo'ladi:

$M^*$  - monomerning ko'zg'algan molekulasi

Ultrabinafsha nurlarni to'kin uzunligi oblastida monomer nurlarni yutmasa radikal hosil qilish uchun fotosensibilizatorlar, ya'ni qo'zg'olish energiyasini monomer molekulasiga beruvchi birikmalar qo'llaniladi.

Fotosensibilizatorlar sifatida  $\pi$ -elektronlari oddiy bog' bilan oralatib (sopryajenie) kelgan birikmalar ishlatiladi, masalan benzofenon  $S_6N_5S O S_bN_5$ .

**Radiatsion initsirlash.** Radioaktiv, nurlanish ta'sirida monomer, erituvchi molekulalari yoki kushimchalar elektron yo'qtib ionlanadilar va keyingi o'tishlar xisobiga radikallar hosil bo'ladi.

Agar qo‘zg‘olish energiyasi bog‘ energiyasidan yuqori bulsa qo‘zgolgan molekula radikallarga parchalanadi.

**Kimeviy initsirlash.** Aktiv markaz hosil qilish uchun erkin radikallar hosil qilib oson parchalanadigan moddalar qo‘llaniladi. Bu moddalar turkumiga peroksidlar, gidroperoksidlar, azo- va di-azobirikmalar, oksidlanish-qaytarilish sistemalari kiradi.


**Zanjir o‘sishi.** Makromolekula hsil bulishiga olib keladigan radikal polimerlanishning asosiy boskichidir. To‘yinmagan monomer-ning aktiv markazga xar bir birikishida monomerning  $\pi$ -bogi uziladi va erkin radikalning juftlanmagan elektrshi bilan  $\sigma$ -bog‘ xosil buladi. Bunda  $\pi$ -bogshng ikkinchi elektroni juftlanmay qoladi va aktiv markaz tuzilishi saklanib koladi.

Zanjir o‘sishi makroradikalni aktiv markazini  
monomerni va  $\pi$ -bog‘i tasirlashishi bilan boradi. Natijada  
yangi uglerod-uglerod bog‘ hosil bo‘ladi. Juftlanmagan elektron  
esa birikkan monomerning oxirgi uglerodiga ko‘chadi. Tartibli tuzilishga ega bo‘lgan polimerni radikal  
polimerlanish bilan olish  
mushkuldir.

**Zanjir uzilishi.** Polimerlanish jarayoning yakuniy elementar bosqichidir. Zanjir uzilishi o‘saetgan ikkita makroradikalning to‘qnashishi hisobiga sodir bo‘ladi. Bu reaksiya butun polimerlanish jarayonida ketadi, lekin sistema qovushqoqligi kichik bo‘lgan boshlangich etaplari uchun eng xarakterlidir. Zanjir o‘sishi hisobiga ma’lum uzunlikdagi makromolekulalar hosil bo‘ladi. Zanjir uzilishi reaksiyasining tezligi zanjir o‘sishi reaksiyasining tezligidan ancha yuqori bo‘lib, uning aktivlanish energiyasining qiymati nolga yakindir. Zanjir uzilishi rekombinatsiya va disproporsiyalanish hisobiga amalga oshadi.

Kinetik zanjirni uzatilish reaksiyasi deb, radikalni noaktiv molekula bilan reaksiyaga kirishib, noaktiv makromolekula, noaktiv molekuladan esa kinetik zanjirni davom ettirish kobiliyatiga ega radikal xosil bo‘lish reaksiyasiga aytildi.

Agar zanjirni uzatilishi reaksiyasi natijasida zanjirni o‘sishiga olib kelmaydigan mahsulot hosil bo‘lsa, u xolda AN ingibitor deb ataladi.



### **Ion polimerlanish**

Bu turdagи polimerlanishda aktiv markaz vazifasini o‘saetgan zanjir uchidagi ionlar bajaradi va u qarama-qarshi ion bilan ion juftini hosil kiladi. Ion polimerlanish kation va anion polimerlanishga bo‘linadi. Ion pojmerlanishga S = S, S = O, S ≡ N bog‘lar saqlovchi va geteroxalqali birikmalar uchraydi.

### **Ion-koordinatsion polimerlanish**

Ion-koordinatsion polimerlanishning oddiy ion polimerlanishdan farqi shundaki, bu polimerlanishda aktiv markaz hosil bo‘lishida monomer molekulasi katalitik sistema ishtirokida yoki katalizator sirtida ma’lum bir fazoviy holatni egallaydi. Qo‘llanilayotgan katalizator, monomer tabiatiga qarab ion-koordinatsion polimerlanishning anion-koordinatsion polimerlanish va Sigler-Natta katalizatorlari ishtirokidagi polimerlanish turlari mavjud.

### **Sopolimerlanish**

Ikki yoki undan ortik monomerlarni birqalikda polimerlanishi sopolimerlanish deyiladi. Sopolimerlanish ko‘p tonnajli polimerlarni xossalarni modifikatsiya qilishning qulay va samarali uslubi bo‘lgani uchun amalda keng qo‘llaniladi. Sopolimerlanishda sopolimer tarkibi monomerlar aralashmasining tarkibiga mos kelmaydi.

### **Polikondensatsiyalash**

Yuqori molekulali birikmalarini polifunksional birikmalarini funksional guruhlari reaksiyalari hisobiga hosil bo‘lish reaksiyasi polikondensatsiya deyiladi. Polikondensatsiya quyi molekulyar birikmalar ajralib chiqishi bilan boradi.

Polikondensatsiya reaksiyasi hisobiga yuqori molekulyar birikmalar xosil bo‘lishining asosiy sharti bu dastlabki monomerlarning tarkibida eng kamida ikkita funksional guruxining

mavjudligidir. Aksariyat xolatlarda polikondensatsiyalanish hisobiga yuqori molekulyar birikmalar hosil bo‘lish reaksiyalari kartyardir.

## Laboratoriya ishi № 12

### Metil metakrilatning suspenziyada polimerlanishi

#### Reaktivlar:

Metilmekrilat 25 m  
Stabilizator (retseptura bo‘yicha)  
Initsiator (retseptura bo‘yicha)  
Distillangan suv (retseptura bo‘yicha)

#### Jixozlar:

Suspenzion polimerlanish ustanovkasi  
Bunzena kolbasi  
Byuxnera voronkasi  
Petri chashkasi yoki soat oynasi  
Stakan 300 ml

#### Suspenziyada polimerlanish uskunasi.

- 1- reaksiya olib borish uch og‘izli kolba;
- 2- sovutgich; 3 – naycha; 4- mexanik aralashtirgich.

**Tajriba o‘tqazish:** Stabilizatorni  $60^{\circ}\text{S}$  da reaksiya kolbasida suvda eritiladi, kolbaga azot bilan purkaladi va kuchli aralashtirish davomida monomerda eritilgan initsiator qo‘shiladi. Haroratni  $70^{\circ}\text{S}$  gacha oshiriladi va polimerlanish intensiv aralashtirish davomida berilgan rejim bo‘yicha o‘tkaziladi. Polimerlanish yakunlangandan keyin massani sovuq suvli stakaniga quyiladi. Cho‘kmaga tushgan cho‘kmani dekantatsiya stakanida yuviladi. 1ml yuvilgan suvni bug‘lantirilgandan keyin soat oynasida cho‘kma qolmasa yuvish yakunlanganligini bildiradi.

Donachalar tortib o‘lchanadi va Petri chashkasida solinib avval xavoda quritiladi, so‘ngra termostatda  $50-60^{\circ}\text{S}$  da doimiy massaga kelgunicha quritiladi.

#### Jadval 1

Komponentlar	Retsepturani tartib raqami				
	1	2	3	4	5
Metilmekrilat	100	100	100	100	100
Distillangan suv	250	250	250	250	250
DAK	-	-	1	1	1
Polivinil spirti	5	-	5	-	-
Solvar (12-14% atsetat gruppasi)	-	0,3	-	-	-
Bentonit	-	-	-	-	10

#### Topshiriq:

1. Jadvalda 1 ko‘rsatilgan retseptura bo‘yicha metilmekrilat polimerizatsiyasini bajaring.

Qo‘yidagi tartib bo‘yicha:  $70^{\circ}\text{S}$  – 2 soat

$80^{\circ}\text{S}$  – 1 soat

$80 + 85^{\circ}\text{S}$  – 1 soat

2. Polimer chiqishini aniqlang (gr. va %).

3. Xarakteristik qovushqoqligini aniqlang va molekulyar og‘irligini xisoblang.

4. Yumshalish xaroratini va Vika usuli bo‘yicha issiqlik bardoshligini aniqlang.

## Laboratoriya ishi № 13

### Mipora ko‘pik plastigini olish.

Ishdan maqsad, amino-aldegid oligomerlari asosida olinadigan mipora ko‘pik plastigini ishlab chiqarish texnologik jarayoni bilan tanishish.

**Xom ashyo:** karbamid – 30g; formalin – 72,2; natriy gidroksidi – 0,1 N eritma; fosfor kislotasi – 60% li 45g; nekal (izobutilnaftalinsulfokislota) – 4g; glitserin – 25g; rezorsin – 0,8g.

**Jixozlar:** qaytar sovitgich, aralashtirgich va termometr bilan jixozlangan 250 ml. li uch bo‘yinli kolba (Rasm.1), RN – metr, suv xammomi; 11.li forfor stakan; ko‘piklantiruvchi aralashtirgich; qog‘oz yoki kartondan shakl; termostat.

Kolbaga karbamid, glitserin va avvaldan natriy gidroksidi eritmasi yordamida RNi 5,8–6,0 ga keltirilgan formalin solinadi. Aralashma qaytar sovitgich va aralashtirgichni ishlatilgan xolda 3 soat 90 – 95°S da qizdiriladi (suv xammomi yordamida). Reaksiya tugagach sovitilib, 0,1 N.li natriy gidroksidi yordamida neytrallanadi.

Ko‘pikni olish maqsadida 11.li forfor stakaniga fosfor kislotasi, rezorsin, nekal 26 ml. distillangan suv solib, bir xil eritma xosil bo‘lgunicha aralashtiriladi. So‘ngra katta tezlikdagi aralashtirgich yordamida barqaror ko‘pik xosil qilinadi. Ko‘pikli stakanga tezlikda olingan oligomer eritmasi va 25 ml. suv quyib, aralashma yana 10 min. davomida ko‘piklantirib turiladi. Xosil bo‘lgan ko‘pikni qog‘oz shaklga quyib olinadi. Xona xaroratida 1,5 – 2 soat ichida ko‘pik qotadi. Qotgan ko‘pik plastik shakldan chiqarib olib 4 kun davomida sekin – asta xaroratni 40 dan 60°S gacha ko‘tarib quritiladi. Quritish va quritish davomida ko‘pik plastikni xajmi 20% gacha qisqaradi. Xosil bo‘lgan ko‘pik plastik oppoq, mo‘rt g‘ovakli material bo‘ladi.

#### Laboratoriya ishi № 14

##### Xlorlangan polietilen olish.

Ishdan maqsad, tayyor polimerlarni turli reaksiyalar yordamida modifitsirlash reaksiya va texnologiyalari bilan tanishish.

Polietilenni xlorlash quyidagicha ifodalanadi:

**Xom a’shyo:** past bosimli polietilen yoki past molekula massali polietilen – 50g; xloroform – 100 ml; etil spirti – 500 ml; uglerod to‘rtxloridi – 400 ml; xlor va azot to‘ldirilgan balonlar (xlorni kaliy permanganatiga HCl tomizib olish xam mumkin).

**Jixozlar:** xlorlash idishi (Rasm); reometr; qaytargich sovitgich; simobli lampa; suv hammomi; tarozi; termostat.

Барботер (хлорлаш идиши)

1. хлор киритиш найчаси;
2. газ чиқариш найчаси;
3. хлорловчи идиши.

Maydalangan polietilen xlorlash idishiga solingach, uglerod to‘rt xloridi bilan xlorform aralashmasi quyiladi. Reaksiya muxitiga azot yuborilib kisloroddan tozalangach, sekin – asta 45°S gacha qizdiriladi (suv xammomida). Ushbu xaroratda konsentrangan  $H_2SO_4$  da quritilgan xlor o‘tkazish boshlanadi (0,5l/ min. tezlikda). Xlorlash idishi simobli lampa bilan yoritilib turadi. Reaksiya boshlanganidan 3-4 soatdan keyin xaroratni 65°S gacha ko‘tariladi. So‘ngra vaqt – vaqt bilan kolbadagi qo‘srimcha og‘irlilik tortib boriladi (reaksiya boshlanishidan avval barcha moddalar solingan xlorlash idishi tortib olingan bo‘lishi kerak). Reaksiya muhitga nisbatan og‘irlikni ortishi 15 – 20% ni tashkil

etganda, xlor berish to‘xtatiladi va xlorni va xlorvadorodlarni ortiqcha qismini xaydash maqsadida azot o‘tkaziladi.

Tayyor polimer dekontatsiyalab suyuqliklardan ajratib olingach, spirt bilan bir necha marotaba yuvilib, termostatda quritib olinadi.

### Topshiriq

1. Xlorlangan polietilenni chiqishini aniqlang.
2. Xlorlangan polietilen tarkibidagi xlor miqdorini aniqlang.

### Laboratoriya ishi № 15

#### Yog‘och qipig‘idan sellyuloza olish.

*Ishning maqsadi:* yog‘och qipig‘idan sellyuloza olish.

*Reaktivlar:* yog‘och qipig‘i, 3%li nitrat kislota eritmasi,, natriy gidroksidning 3 %li eritmasi.

*Jihozlar:* 200 ml li stakan, Byuxner voronkasi.

*Ishning bajarilishi:* 200 ml li stakanga 60 ml 3%li nitrat kislotasi eritmasi va 3 gr yog‘och qipig‘i solinib, aralashma 1 soat davomida qaynatiladi. So‘ngra stakandagi kislota eritmasi to‘kib tashlanib, sellyuloza bor namuna Byuxner voronkasidan o‘tkaziladi va 50 ml qaynoq distillangan suv bilan 4-5 marta yuviladi. Keyin u yana stakanga solinib, ustiga natriy gidroksidning 3%li eritmasidan 60 ml quyib, 1 soat davomida qaynatiladi. Shundan keyin ishqor eritmasi to‘kib tashlanib, olingen sellyuloza qaynoq distillangan suv bilan elyuat neytral muhitga kelguncha yuviladi va  $105^{\circ}\text{Sda}$  doimiy og‘irlikka kelguncha quritiladi. Ko‘pincha olingen sellyulozaning miqdori daslabki namuna miqdorining 40-43%ini tashkil qiladi.

### Topshiriq

1. Olingen sellyulozaning mis-ammiak eritmasida eruvchanligi va uning unumi (%) aniqlansin.

#### PKMlardagi fazalararo hodisalarining fizik-kimyoviy nazariyasi.

Polimer kompozitsion materiallar yaratishning nazariy asoslari quyidagi asosiy qismlardan iborat:

- Polimerlarni to‘ldiruvchi sirtidagi adsorbsiyasi va adgeziyasi nazariyalari.
- Polimerlarni oraliq va fazalararo qatlama hosil qilish nazariyalari.
- Polimerlarni to‘ldiruvchilar bilan kuchaytirish nazariyasi.

YUMB asosida PKM yaratish polimer va qattiq jism (asosan to‘ldiruvchi) orasidagi sirt xodisalarining fizik-kimyosiga asoslangan. Bu sirt hodisalariga polimer bog‘lovchi va to‘ldiruvchi orasidagi adsorbsiya, namlanish, adgeziya xodisalari kiradi.

PKMlar xossalari tushinishda polimerni dispers to‘ldiruvchi sirtidagi yupqa ustki qatlama ustidagi yoki armirlangan tola ustidagi xatti-harakatlarini o‘rganish muhim o‘rin tutadi.

Adabiyottlardan ma’lum bo‘lishicha polimer bilan to‘ldiruvchi orasidagi hosil bo‘lgan qatlamlar ustidagi polimerni xossalari uni aynan o‘zining ya’ni hajmdagi xossalardan farq qiladi, Modomiki, PKMlarda polimer fazaning katta qismi sirtki qatlama holatida ekan, chegaraviy qatlama strukturasini o‘rganish PKMlar fizik-kimyosining asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. Bu masalani tushunish uchun biz avvalo shu chegaraviy qatlama hosil bo‘lishini o‘rganishimiz kerak.

PKMlar yaratishda birinchi texnologik jarayon bu to‘ldiruvchi sirtini (ustini) polimer bog‘lovchi bilan namlash jarayoni hisoblanadi. Bunda polimer bog‘lovchi molekulalarini to‘ldiruvchi bilan adsorbsion bog‘lanishi va to‘ldiruvchi sirtida polimer adsorbsion qatlamini vujudga kelishi yuz beradi. Demak, polimer adsorbsion qatlaming hosil bo‘lishi, ya’ni polimer adsorbsiyasi PKMlar shakllanishining dastlabki akti bo‘lib, u polimerni to‘ldiruvchi yuzasiga adgeziyasida va sirtqi qatlama hosil bo‘lishida asosiy omil hisoblanadi.

Polimer adsorbsiyasi faqat chegaraviy qatlama xususiyatlarini emas, balki adgezion ta'sir xarakterini va yaratilayotgan PKMlар mustahkamligini ham belgilaydi. Polimer makromolekulalarini qattiq sirtidagi adsorbsiyasi QMBlар adsorbsiyasidan o'ziga xos ravishda va tubdan farq qiladi.

Adsorbirlangan molekulalarda molekulalararo ta'sirni mavjudligi va uni adsorbirlangan bog'lar konformatsiyasiga ta'siri, makromolekulalarning egiluvchanligini adsorbsiyaga ta'siri kabilar YUMBlar adsorbsiyasini QMBlар adsorbsiyasidan farq kiluvchi birinchi tomonidir.

Polimerlar adsorbsiyasining yuqorida keltirilgan o'ziga xos xususiyatlari suyuq polimer smolalarini (bog'lovchilarini) qotguncha sirt bilan bevosita ta'siri uchun ham o'z ahamiyatini saqlaydi. Chunki har qanday smola, har qanday polimer individual modda emas, u doimo turli molekulyar massaga ega bo'lgan fraksiyalar yig'indisi, buni QMB lardagi YUMBlar fraksiya eritmasi deb qarash mumkin. Shuning uchun biz bunday adsorbsiyani eritmalardan adsorbsiyalanishi deb qarashimiz mumkin.

PKM olishda polimer bog'lovchilar faqat polidispers bo'libgina kolmay, balki ko'p komponentli ham bo'lishi mumkin. Ular tarkibiga ko'pgina turli turdag'i kushimchalar reaksiyani jadallovchilar, qotiruvchilar kabi komponentlar kirishi mumkin. Bunday ko'p komponentli polidispers bog'lovchilar ishlatilganda qotirish jarayonigacha sirtda qandaydir komponentlar aralashmasini adsorbsiyasi sodir bo'ladi. Ma'lumki, avvalo katta aktivlikka ega bo'lgan komponentlar adsorbsiyalanadi. Bunday adsorbsiyalanish natijasida qotirilayotgan polimer sirti yaqinida komponentlar taqsimlanishi o'zgaradi. Ayni vaqtida sirtki qatlamning turli zonalarida komponentlarning tarqalishi turlicha bo'lganligi uchun bog'lovchini qotirishda katnashayotgan komponentlar bilan boradigan reaksiya sharoitlari ham o'zgaradi. Bundan tashqari reaksiya borishi mobaynida reaksiyaga kirayotgan moddalar va hosil bo'layotgan polimer molekulalari sirt bilan turlicha bog'lanadilar, bu esa reaksiya tezligiga ta'sir ko'rsatadi. Bu tezlik esa PKMlар olishda xal kiluvchi asosiy omildir. Adsorbsion ta'sir natijasida reaksiya tezligini o'zgarishi, selektiv adsorbsiya natijasida sirtidan komponentlarni turli o'zoklikda bo'lishi polimer strukturasiga ta'sir qiladi ya'ni, bir xil sharoitda (harakat, bosim, komponentlar nisbati, katalizator konsentratsiyasi) olingan polimer strukturasi va reaksiya borish sharoitlari xuddi shu sharoitda lekin to'ldiruvchisiz olingan polimer strukturasidan farq qiladi. Demak, PKMlар shakllanishida, polimer matritsa ko'p komponentli bo'lganda komponentlarni selektiv adsorbsiyasi asosiy rol uynaydi. Bu omillarni barchasi to'ldiruvchi bilan polimer matritsa orasida hosil bo'layotgan chegaraviy qatlamda polimer matritsa strukturasini o'zgarishiga olib keladi, bu esa o'z navbatida PKMlarni barcha xossalariiga ta'sir ko'rsatadi.

Demak, adsorbsiya PKMlар shakllanishi sharoitlari va xossalariini belgilovchi muhim omil ekan.

### ***Turli tarkibli polimer kompozitsion materiallar olishga doir tajribalar***

#### **Laboratoriya ishi № 16**

#### **Laboratoriya sharoitida polimer kompozitsion materiallar olish**

Ishning maqsadi: Laboratoriya sharoitida turli tarkibli polimer kompozitsiyalar olish.

Reaktivlar: polivinilxlorid polimeri kukuni, turli xil stabilizatorlar, to'ldiruvchi.

Jihozlar: Laboratoriya qorishtirish uskunasi (blender), analitik torozu, laboratoriya xovonchasi.

Ishning bajarilishi: Tarkibiga xech qanday qo'shimchalar qo'shilmagan toza polivinilxlorid kukunidan 2 gr analitik torozuda 0,0000 aniqlikda tortib olinadi. Unga 0,5-1% miqdorda turli hil barqarorlovchilar qo'shiladi. Avval laboratoriya xavonchasi yordamida, so'ngra laboratoriya qorishtirgichi yordamida aralashma yaxshilab aralashtiriladi. Aralashtirish xarorati 40-50 °S.

Topshiriq

1. Olingan kompozitsiyalarda destruksiya harorati va barqarorlovchilar miqdorini destruksiya xarorati va vaqtiga ta'siri aniqlansin.

#### **Laboratoriya ishi № 17**

#### **Novolok oligomerlaridan press – kukun olish**

Fenol – formaldegid oligomerlari asosida press – kukun yoki boshqa holdagi plastik massalarni olishda bir necha usullardan foydalaniladi: quruq komponentlarni valslash, lok va suv – emulsiya usullari.

Press kukunlarni asosiy komponenti bog‘lovchi polimer bo‘lib u kukun, lok, suvdagi emulsiya ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Bog‘lovchidan tashqari kompozitsiya tarkibiga kukun ko‘rinishidagi to‘ldirgichlar; mineral (kvars uni, kaolin, maydalangan slyuda, mikroasbest) va organik (yog‘och uni, maydalangan koks, grafit, gidroliz lignini) kiradi.

Qotirgich sifatida novolok oligomerlari uchun ko‘pincha geksametilentetramin, surkaluvchi modda sifatida – stearin, Sa yoki Va stearatlari, olein kislotasi ishlatiladi. Press – kukunlarni barcha xillari bo‘yalgan holda ishlab chiqarilganligi sababli kompozitsiya tarkibiga bo‘yoqlar va pigmentlar xam qo‘shiladi.

**Xom ashyo:** quruq novolok – 50g; yog‘och uni – 50g; urotropin – 7g; mo‘miyo – 5g (nigrozin ishlatish xam mumkin); kalsiy yoki sink stearati – 0,5g.

**Jihozlar:** maydalagichli farfor hovoncha yoki sharli tegirmon; laboratoriya valsulari; qotish tezligi xamda oquvchanligini aniqlash uchun plastometr (Rasm.30) yoki Rashig press – shakli (Rasm.25); sekundomer.

Novolok oligomeri laboratoriya sharli tegirmonida yoki farfor hovonchada mayda kukun ko‘rinishida maydalab olinadi. So‘ngra to‘ldirgich, pigment va surkaluvchi moddalarni yaxshilab aralashtirib olingach, old vali  $110^{\circ}\text{S}$ , orqa vali  $70^{\circ}\text{S}$  bo‘lgan valsda 1 -1,5 min. valslanadi. Press –massa valslardan varaq ko‘rinishida, bukilgan yeri yaltiroq holga kelganida qirqib olinadi. Uzoq valslash mumkin emas, chunki unda kompozitsiyani oquvchanligi kamayib ketadi.

Valslangan material sharli tegirmonda geksametilentetramin qo‘shilib bir soat davomida xona haroratida maydalananadi.

### Topshiriq

1. Press – kukun namligini aniqlang.
2. Rashig press shaklida (Rasm.25) va Kanavets plastometri yordamida (Rasm.30) press – kukunni oquvchanligi va qotish tezligini aniqlang.
- 3.

### Laboratoriya ishi № 18

#### Melamin – mochevina - formaldegid oligomerlari va ular asosida press – kukun xamda qatlam plastik olish.

Melamin – formaldegid oligomerlarini suvdagi eritmasini bir sutkadan ortiq saqlab bo‘lmaydi. Shuning uchun ushbu oligomerlar olinishi bilan darrov biron – bir plastik massa ishlab chiqarishda ishlatilishi kerak. Qatlam plastiklar olishda qog‘oz, paxtali mato, shisha matosi va boshqa varaqsimon to‘ldirgichlar ishlatilishi mumkin.

**Xom ashyo:** melamin – 63g; mochevina – 30g; uchetanolamin – 10g; formalin (37%li) – 290g; 10% li kalyi hidroksidi yoki natriy karbonati.

**Jihozlar:** polikondensatlanish o‘tkazish jihizi (Rasm.8); probirkalar; shimdirish vannasi; termostat.

Uch bo‘yinli 500 ml.li kolbaga formalin, melamin solib aralashtiriladi va melamin eriganidan so‘ng karbamid solinadi. Bir necha tomchi ishqor eritmasidan qo‘shib muxit rNini 8-9ga keltiriladi. Qaytar sovitgichni ishlatib, aralashtirib turib  $80 - 100^{\circ}\text{S}$  o‘rtasida 1,5 – 2 soat ushlanadi.

Eritmadan probirkaga olib suv qo‘shilganida quyqalanish xosil bo‘lishi reaksiyani tugaganligini ko‘rsatadi. Buni bilish maqsadida reaksiya boshlanganidan 1 – 1,5 soat o‘tgach probirkaga 1 ml.

kondensat solinadi va unga 10 ml. suv qo'shilib quyqa xosil bo'lishi kuzatiladi. Keyingi tajribalarni xar 10 – 15 minutda qaytariladi.

Hosil bo'lgan oligomer eritmasi 0,015 – 0,02 Pa·s qovushqoqlikka ega bo'lishi kerak.

Melamin – mochevina – formaldegid oligomeri eritmasi asosida **press – kukun olish uchun** melamin va karbamidni umumiy massasiga nisbatan 70% selluloza yoki yog'och uni qo'shiladi. Aralashma farfor idishida 30 min davomida yaxshilab aralashtirilganidan so'ng, isitish shkafida 70 – 75°С da material quruq va qattiq holga kelgunicha quritiladi (3,5 – 4 soat). Olingan press – kukunni namligi 3%dan oshmasligi kerak.

Bo'yagan press – kukun olish uchun, selluloza to'ldirgich sifatida ishlatilganida suvda yoki spirtda eruvchi organik bo'yoqlar ishlatiladi. Bo'yoqni suvdagi yoki spirtdagagi eritmasi kolbaga reaksiya boshlanishidan avval, melamin bilan karbamidni formalinda eritib, kerakli rN o'rnatib olinganidan so'ng solinadi. To'ldirgich sifatida yog'och uni ishlatilganida esa mineral bo'yoq (pigment) ishlatiladi. Mineral bo'yoq (mo'miyo) oligomer eritmasi bilan to'ldirgichni aralashtirishda (melamin va karbamidni umumiy massasini 10%ni miqdorida) qo'shiladi.

Oligomerni eritmasi qatlam plastik olishda ishlatiladigan bo'lsa (masalan tesktolit yarim maxsuloti olishda), paxtali mato 170 x 320 mm. qilib qirqib olinadi va shmdirilish vannasida oligomer eritmasi bilan shmdiriladi. So'ngra shmdirilgan mato avvaliga 110°С da so'ngra 80°С da quritiladi. Quritish jarayonida (isitish shkaf ichida osib qo'yilgan holda) suv, bo'sh formaldegid uchib ketadi va oligomerni polikondensatlanishi davom etib, oligomer oquvchanligini kamaytiradi. Shmdirib quritilgan matodagi bog'lovchi miqdori 50 – 55%ni, namlik miqdori 4 – 5%ni tashkil etishi kerak.

Shmdirib quritilgan matolar 150 x 150 mm. kattalikda qirqilib, 10 qavat qilib taxlanadi va laboratoriya pressida 125 – 140°С da 10 – 12 MPa bosimda 60 – 90 min. davomida presslangach, bosim ostida pressda sovitilib, so'ngra pressdan chiqarib olinadi.

### Topshiriq.

1. Oligomer eritmasidagi quruq qoldiq miqdorini aniqlang.
2. Press – kukun tarkibidagi namlik va oligomer miqdorini aniqlang.
3. Shmdirilgan mato tarkibidagi namlik va oligomer miqdorini aniqlang.
4. Presslab olingan namunalarni fizik-mexanik xossalariini aniqlang.

## Laboratoriya ishi № 19

### Ftal angidridi va pentaeritrit asosida poliefir olish

Pentaeritrit to'rtta birlamchi gidroksil guruxlariga ega. Shuning uchun xam avvaliga eruvchan va suyuqlanmaga o'tuvchan oligoefir sintez qilinadi. So'ngra oligoefir tikilgan holga yuqori haroratda o'tkaziladi.

**Xom ashyo:** pentaeritrit – 40,8g; ftal angidridi – 44,4g; erituvchilar aralashmasi (toluol – butilatsetat 1:1) yoki nefras.

**Jihozlar:** Rasm.10 dagi jihoz; oq tunuka plastinalari; 500 ml.li kolba; termostat.

Pentaeritrit va ftal angidridining aralashmasini kolbaga solib, qaytar sovitgich, aralashtirgichlarni ishlatiladi va sekin – asta haroratni 180°С gacha ko'tariladi. Shunda massa bir hil holga o'tadi, so'ngra esa kristall holiga o'tmaydigan siropga aylana boshlaydi. Polikondensatlanishda ajragan suv Din – Stark tutqichiga xaydaladi.

Qizdirish boshlanganidan 2 soat o'tgach, har 10 – 20min. da shisha tayoqchada namuna olinib, uni soviq atsetonda erishi yoki xona haroratida qattiq holga o'tishi tekshirib boriladi. Suyuqlanma xona haroratida qattiq holga o'tishi bilan, isitish to'xtatiladi va issiq suyuqlanma tunuka ustiga quyib sovitiladi. Rangsiz qattiq oligomer hosil bo'ladi.

### Topshiriq

1. Ubbelode bo'yicha tomchi tushish xaroratini aniqlang ( $80 - 90^{\circ}\text{S}$  atrofida bo'lishi kerak.).
2. Oligomerni ftal angidridiga nisbatan chiqishini aniqlang.
3. Olingan oligomerdan toluol – butilatsetat (1:1) aralashmasida 50% li lok tayyorlang.

## **Laboratoriya № 20**

### **«Kam yog'li» gliftal poliefiri sintezi.**

**Xom ashyo:** zig'ir moyi – 20,0g; ftal angidridi -55,0g; glitserin-20,0g; qo'rg'oshin (II) oksidi (moy miqdoriga nisbatan 0,1 %); etilenglikol -5,0g.

**Jihozlar.** qurilma (Rasm.10); konussimon kolbalar (250 ml), 3 dona; probirkalar bilan shtativ; iodometrik shkala

Kolbaga zig'ir moyi, glitserin, etilenglikol va qo'rg'oshin (II) oksidi solinadi, mexanik aralashtirgich ishlatib kolba asta - sekin  $200^{\circ}\text{S}$  gacha qizdiriladi. Shu haroratda spirt-rektifikat bilan 1:10 nisbatda eriydigan mahsulot olingunicha moy pereeterifikatsiyasi o'tkaziladi. (namuna har 15 minutda olinadi). Keyin reaktorga asta – sekin ftal angidridi solinadi va kislota soni (k.s.)~45-50 bo'lgan poliefir olingunicha polieterifikatsiya jarayoni o'tkaziladi (namunani ftal angidridi erib ketishi bilan darhol olinsin, so'ngra har 20 minut o'tgach).

### **Topshiriq.**

1. Poliefir xosil bo'lish reaksiyasini yozing.
2. Polieterifikatsiya kinetikasini reaksiya jarayonida k.s. bo'yicha o'zgarishini o'rganish va k.s. ni vaqt bo'yicha o'zgarishi grafigini quring.
3. Krioskopik metod bilan poliefir molekulyar og'irligini aniqlang.
4. Poliefirni organik erituvchilarda eruvchanligini aniqlang va lok olish uchun erituvchi tanlang.
5. Konsentratsiyasi 50 % li lok tayyorlang va 3 -5 % miqdorida sikkativ qo'shing. So'ng lokning qovushqoqligi va rangini aniqlang.
6. Olingan lokdan temir va shisha plastinalari yuzasida quyish usulida qoplama olib, 20 va  $100^{\circ}\text{S}$  haroratda qoplamaning qurish vaqtini aniqlang.
7. Olingan qoplamaning qattiqligi, zarbga va egilishga mustahkamligini aniqlang.

## **Laboratoriya ishi № 21**

### **Kompozitsyaning gel holigacha qotish tezligini aniqlash**

Kompozitsyaning gel holigacha qotish tezligi ma'lum haroratda qizdirish va shpatel bilan aralashtirish natijasida uning eruvchan holatdan erimaydigan va suyuqlanmaydigan holatga o'ta boshlashi uchun ketgan vaqt bilan xarakterlanadi. Qotish alomatlari: kompozitsiya shpatelga yopishmaydi yoki uqalanib ketadi.

Sinash ishlari o'lchamlari 160 X 160 X 20 mm yoki diametri 16 – 20 mm qalinligi 20 mm va yon tomonida termometrning simobli uchi kirib turadigan teshikchasi bo'lgan metall plitkada olib boriladi. Kompozitsyaning gel xoligacha qotishi uchun ketgan vaqt sekundomerga qarab belgilanadi.

Plitka ( $150\pm2$ )°S gacha qizdiriladi va xaroratni rostlagich orqali kuzatiladi. 1 g kukunsimon kompozitsiyani olib plitkaning o'rta qismiga tashlanadi va darhol sekundomer yurgizib yuboriladi. Kompozitsiya plitka yuzasida bir tekisda taqsimlanib shpatel yordamida uzunasiga va ko'ndalangiga aralashtirib turilib, vaqt – vaqt bilan shpatel ko'tarib turiladi. Bunda avval kompozitsiya yumshaydi, so'ngra rezinaga o'xshash cho'ziluvchan ip holiga o'tadi va nihoyat oxirida qotish boshlangach uzuluvchan yoki uqalanib ketadigan holga o'tadi. Kompozitsyaning gel xoligacha qotishi uchun ketgan vaqt sekundomerni to'xtatish bilan belgilab olinadi.

Sinash natijasi sifatida parallel o'tkazilgan uchta tekshirishning o'rtacha arifmetik qiymati olinadi. Bunda parallel olib borilgan tajribalarning qiymati bir – biridan 5 s dan ko'p farq qilmasligi kerak.

## Laboratoriya ishi № 22

### Oq va och – jigarrang rangli pentaftal emallarini tayyorlash

**Xom ashyo:** % larda

Oq rangli emal

1chi pigment pastasi ..... 44,5  
Pentaftal loki (PF) ..... 50,5  
Sikkativ ..... 3,0  
Nefras yoki uayt spirti ..... 2,0

1 chi pigment pasta

Titan ikki oksidi (rutil Ro-2) ..... 68,6  
Lok PF ..... 17,7  
Nefras yoki uayt spirti ..... 6,8  
Solvent ..... 6,9

3 chi pigment pasta

Apelsin rangli kron ..... 55,5  
Lok PF ..... 27,0  
Uayt spirit yoki nefras ..... 17,5

Och jigarrang rangli emal

2chi pigment pastasi ..... 41,0  
3 chi pigment pastasi ..... 1,3  
4 chi pigment pastasi ..... 3,0  
Lok PF ..... 50,0  
Sikkativ ..... 2,7  
Nefras yoki uayt spirti ..... 2,0

2 chi pigment pasta

Limon rangli kron ..... 75,0  
Lok PF ..... 23,5  
Nefras yoki uayt spirti ..... 1,5

4 chi pigment pasta

Qora qurum ..... 35,0  
Olifa ..... 65,0

**Jihozlar:** laboratoriya aralashtirgichi; bo'yoq tayyorlash mashinasi; farfor stakan; aralashtirgich; metal elak – 1600 teshik /sm<sup>2</sup>; viskozimetr VZ – 4; sekundomer; qoplama hossalarini aniqlovchi jihozlar.

Emallarni tayyorlashdan oldin, emal pastalari, undan keyin emallarni o'zi tayyorlanadi.

#### Pigment pastalarini olish

Laboratoriya aralashtirgichi yoki aralashtirgichli farfor stakaniga pigment, lok va erituvchi solib, bir xil massa hosil bo'lguncha aralashtiriladi. So'ngra massa bo'yoq tayyorlash mashinasi yoki farfor idishga solinib, yaxshilab ishqalab aralashtiriladi (ishqalanish (peretir) darjasи 10 – 20 bo'lguncha).

#### Emalni olish

Aralashtirgichli farfor stakaniga pigment pastasini solib, aralashtirgich ishga tushiriladi va oz – ozdan lok, erituvchi qo'shiladi. Hamma lok va erituvchi solib bo'linganidan keyin yana 5 – 10 min aralashtirib turilgach, elakdan o'tkazib olinadi.

#### Topshiriq

1. Emalni qovushqoqligini aniqlang (VZ - 4)
2. Emalni qurish vaqtini xona xaroratida aniqlang.
3. Uch kun xona xaroratida qotirilgan emal qoplamani zarbiy mustaxkamligi, elastikligi va qattiqligini aniqlang.

## **Polimerlarni xossalari aniqlashga oid tajribalar**

### **Laboratoriya ishi № 23**

#### **Polimerlarning molekulyar massasini viskozimetrik usulda aniqlash.**

Ishning maqsadi: turli xil konsentratsiyali polimer eritmalari qovushqoqligini aniqlab, molekulyar massani hisoblash.

Reaktivlar: poliakrilamid, polivinilpirrlidon, polistirol, polimetilmekrilit

Jihozlar: termostat, modifikatsiyalangan Ubbelode viskozimetri, sekundomer, pipetka, rezina nok, rezina naycha.

Ishning bajarilishi: Ushbu tajribalar termostatda ma'lum bir xaroatda amalga oshiriladi. Toza quritilgan viskozimetrga naychani berkitib turgan holda rezina nok yordamida toza erituvchi sharchaning yuqori qismigacha ko'tariladi. Naycha ochilgan vaqtida suyuqlik sharchaning pastki qismiga qarab oqa boshlaydi. Sharchaning yuqori qismidagi belgidan to pastki qismidagi belgigacha suyuqlikning oqib o'tish vaqt o'lchanadi. O'lchanish 3-4 marta takrorlanadi. O'lchanishi lozim bo'lgan eritmaning 4 xil konsentratsiyali eritmalari (1%; 0,5%; 0,125%; 0,25%;) tayyorlanadi. O'lchanish konsentratsiyasi eng kichigidan boshlanadi. Olingan natijalar quyidagi jadvalga kiritiladi.

Nº	Eritmaning konsentratsiyasi C	Toza erituvchining oqish vaqt, sek. $\tau_0$	Eritmaning oqish vaqt, sek. $\tau$	$\eta_{nisb} = \tau_1/\tau_0$	$\eta_{sol} = \tau_1/\tau_0 - 1$	$\eta_{kel} = \eta_{sol}/C$

Vazifa: 1. olingan natijalardan  $\eta_{kel}$  qovushqoqlikning konsentratsiyaga bog'liq grafigi chiziladi. Grafikdan xarakteristik qovushqoqlik topiladi va polimerning molekulyar massasi topiladi.

### **Laboratoriya ishi № 24**

#### **Polimer loklari va emallaridan olingan qoplama yaltiroqligini aniqlash**

Qoplama yaltiroqligi fotoelektrik yaltiroqlikni o'lchagich FB-2 asbobida o'lchanadi. Uning umumiyo'ki 'rinishi va sxemasi rasmda ko'rsatilgan. Asbob shkalasi izlanayotgan kattalikni to'g'ridan – to'g'ri ko'rsatib beradi. Yaltiroqlikni o'lchagich asbobi komplektida etalon sifatida ishlataladigan plastinka bo'lib (ultrabinafsha nularni o'tkazuvchi qora rangli shisha), uning yaltiroqligi shu asbob bo'yicha 65% ni tashkil etadi.

Qoplamaning yaltiroqligini fotoelektrik usul bilan aniqlashda qoplamaning sirtidan qaytaruvchi nurlar tarami fotoelementning nurga sezgir qatlamiga tushadi va bunda hosil bo'ladigan fototok miqdori o'lchanadi.

Yaltiroqlikni o'lchagich FB – 2 asbobi (Rasm.44), sxemani sozlovchi moslama 6 dan iborat. Tekshirish o'tkazishdan oldin, asbobning shkalasi 65 raqamini ko'rsatib turadigan qilib shisha plastinka yordamida rostlab olinadi. Namunalarni sinovga tayyorlash (lok yoki emal surkash yo'li, qatamlar soni, quritish usuli va qoplama qalinligi) ishlari shu lok – bo'yoq material uchun mos texnikaviy shart yoki standartlarda ko'rsatilgan. Buning uchun lok – bo'yoq material o'lchami  $40 \times 60 \times 1$  mm li shisha plastinka ustiga surkab chiqiladi.

Yaltiroqligi o'lchanadigan parda namunalarning sirti silliq, tekis, begona jismlardan va mexanik nuqsonlardan xoli bo'lishi kerak. Yaltiroqlikni o'lhash asbob sozlanganidan keyin sinash namunalarining har xil joylarida tekshirib ko'rildi. Uning son qiymati o'rnida asbob shkalasidan foiz hisobida olinadigan miqdorlarning o'rtacha arifmetik qiymati olinadi. O'tkazilgan ikkita parallel tekshirishning o'zaro farqi 2% dan ortmasligi kerak.

Qoplamaning 1chi yaltiroqligi shartli ravishda quyidagi 6 hilga bo'linadi:

Qoplamaning yaltiroqligi 60% dan ko'p bo'lgan yuqori yaltiroqlik; 2 – yaltiroq (yaltiroqlik 59 ÷ 40%) 3 – yarim yaltiroq (yaltiroqlik 39÷25%); 4 – yarim xira (yaltiroqlik 24÷10%); 5 – xira (yaltiroqlik 9÷3%); 6 – o'ta xira (yaltiroqlik 3% dan kam).

## Laboratoriya ishi № 25

### **Qoplamaning egilishga bo'lgan mustahkamligini aniqlash**

Qoplamaning egilishga bo'lgan mustahkamligi elastiklikning bilvosita xarakteristikasi bo'lib, u elastiklik shkalasi – ShG deb nomlangan asbobda aniqlanadi. Bunda qoplalmali asos ma'lum diametrli sterjenga o'ralganda buzilmasligi (sinish, yorilish, darz ketish) va ko'chmasligi kerak. Asbob plastmassa taglikka o'rnatilgan va vintlar bilan mahkamlangan vertikal o'qdan iborat bo'lib, unga har xil diametrli sterjen gorizontal ravishda biriktirilgan bo'ladi (Rasm.45).

Sinaladigan lok – bo'yoq material qalinligi 0,2 ÷ 0,3 mm bo'lgan tunuka plastinka ustiga surkaladi. Quriganidan keyin (nitroloklar uchun qurish vaqt 24 soat, moyli bo'yoqlar uchun 72 soat) undan 20 mm va uzunligi 100 mm li tasmalar qirqib olinadi. (Barcha lok – bo'yoq materiallaridan olingan qoplamani qotirish shart – sharoitlari berilgan bo'ladi). Keyin tasmalardan biri qoplalmali tomonini yuqoriga qilib diametri 20 mm bo'lgan sterjen atrofida 180° ga egiladi.

Egish ( $20\pm5$ )°S harorat va qisqa vaqt (2÷3s) ichida amalga oshiriladi. Agar qoplama sirtida egishdan so'ng lupa yordamida ko'rindigan singan yoki darz ketgan joylar bo'lmasa, egishni diametri 15 mm, 10 mm va hokazo sterjenlarda, ya'ni qoplama sirtida yoriqlar (darz ketish va qatlam – qatlam bo'lib ko'chish) paydo bo'lguncha davom ettiriladi.

Qoplamaning egilishga mustaxkamligi shu qoplamani egishda shikastlanmay qolgan sterjenning eng kichik diametri bilan ifodalanadi. Masalan: "Elastiklik 15" deyilganda, qoplama – diametri 20 va 15 mm bo'lgan sterjen atrofida egilganda o'zgarmaydi deb tushuniladi; ammo diametri 10 mm li strejenda u buziladi va yoriqlar bilan qoplanadi. "Elastiklik 1" deganda esa, parda hamma diametrli sterjenlarga o'ralganda ham buzilmaydi.

Agar qoplama – diametri 20 mm bo'lgan sterjen atrofida egilganda yorilgan joy yoki ko'chib ketish xollari ro'y bersa, u xolda qoplama "elastik emas" ya'ni mo'rt deb baholanadi.

## Laboratoriya ishi № 26

### **Mayatnikli asbob yordamida qoplama qattiqligini aniqlash**

Qattiqlik shartli ko'rsatkich bo'lib, u mayatnikli asbob yordamida aniqlanadi. U lok bo'yoq qoplamasini ustiga o'rnatilgan mayatnikning so'nuvchi tebranish vaqtining fotoynali plastinka ustiga o'rnatilgan shu mayatnikning so'nuvchi tebranish vaqtiga nisbatli bilan topiladi (Rasm.46).

Mayatnikli asbob M-3 rasmida ko'rsatilgan bo'lib, u ishga tushirish mexanizmi 1, shkala 2, strelkali mayatnik 3, stolcha 4, tutashtirish plankasi 5, ramka 6, po'lat sharchalar 7 va shovun 8 dan iborat. Asbob shkalasi graduslarda darajalangan bo'lib, uning o'rtasida nol belgisi turadi. Asbobning ish qismini havo ta'siridan himoya qilish uchun u oynali g'ilof ichiga joylashtirilgan. Sinaladigan materialni tekshirishdan oldin asbobning "shisha soni" topiladi. Uni topishda xuddi qoplama qattiqligini aniqlashdagi kabi ish ko'rildi (bu haqda keyinroq gap boradi). Asbobning "shisha soni" ( $440\pm6$ )s. Agar "shisha soni" bu

interval oralig‘ida bo‘lmasa, mayatnik uzunligi bo‘yicha osib qo‘yilgan yukni yuqoriga yoki pastga surish orqali u kerakli xolga keltiriladi.

O‘lchamlari  $90 \times 120$  mm bo‘lgan shisha plastinkaga sinaladigan lok – bo‘yoq material surkaladi. Surkash usuli, qurish vaqtqi, qatlamlar soni va qalinligi lok – bo‘yoq material uchun tegishli bo‘lgan texnikaviy shartlarda yoki standartlarda berilgan.

Lok – bo‘yoq qoplama qatlami qurigandan keyin, shisha plastinkani qoplamlali tomonini yuqoriga qilib po‘lat sharchalar ostiga qo‘yiladi. Sharchalar qoplama yuziga shunday o‘rnataladiki, mayatnik shkalanining nol belgisi yaqinida tursin. So‘ngra ramka yuqoriga ko‘tariladi, unga tutashtiruvchi planka siqiladi va mayatnik nolga keltirib qo‘yiladi. Tutashtirish plankasini ushlab turib, mayatnikni ishga tushirish mexanizmi yordamida planka ehtiyyotlik bilan shkalanining chap tomonidagi  $5^\circ$  belgigacha suriladi. So‘ngra ramka joyiga qo‘yiladi, mayatnik qo‘yib yuboriladi va sekundomer ishga tushiriladi. Mayatnikning tebranish amplitudasi  $2^\circ$  ga tushib qolishi bilan sekundomer to‘xtatiladi. Pardaning qattiqlik miqdori X shartli birliklarda quyidagicha topiladi:

$$\tilde{O} = \frac{t}{t_1};$$

bu yerda  $t$  – sinalayotgan qoplama uchun mayatnik xarakatining  $5^\circ$  dan  $2^\circ$  gacha so‘nish vaqtisi,  $s$ ;  $t_1$  – fotoshisha plastinkasi ("shisha soni") uchun mayatnik harakatining  $5^\circ$  dan  $2^\circ$  gacha so‘nish vaqtisi,  $s$ .

Ish natijalari sifatida o‘tkazilgan ikki tekshirishning o‘rtacha arifmetik qiymati olinadi. Bunda ularning farqi 3% dan ortmasligi kerak.

## Laboratoriya ishi № 27

### Lok – bo‘yoq qoplamasining zarbiy kuch ta’siriga chidamlilikini aniqlash

Lok – bo‘yoq qoplamasining zarb bilan tushadigan yuk ta’siridan buzilmaslik xossasi *zarbiy kuch ta’siriga chidamlilik* deb ataladi. U lok – bo‘yoq qoplamasini bilan qoplangan metall plastinka ustiga ma’lum balandlikdan tushirib yuborilgan yuk (tosh) zarbi natijasida deformatsiya qiymatini topishga asoslangan. Bu kattalik U-1A, U-1 va ayrim hollarda U-2 asbobi yordamida aniqlanadi (Rasm.47).

U-1 va U-1A asboblar bir – biridan faqat yukni ushlab turuvchi va qo‘yib yuboruvchi detallar konstruksiyasi bilan farq qiladi. U-2 asbob U-1A bilan aynan o‘xhash bo‘lib, undan diametri 8 mm li sharcha o‘rniga 15 mm li sharcha va shunga mos ravishda sandon ish qismining 15 mm li diametri o‘rniga 26 mm bo‘lishi bilan farq qiladi.

Sinaladigan lok – bo‘yoq material o‘lchamlari  $90 \times 100$  mm yoki  $70 \times 150$  mm li metall plastinka ustiga surkaladi. Bo‘yoq qoplama qurigan plastinkalarning qoplama tomonini yuqoriga qo‘yib U-1A asbobining sandoni 10 va muhra 8 orasiga qo‘yiladi. So‘ngra ushlab turuvchi vint 3 yordamida ma’lum balandlikda qotirilgan yuk 7 knopka 4 ni bosish orqali qo‘yib yuboriladi. U muhraga erkin tushib, sharchasi orqali sandon ustida yotgan pardali plastinkaga zarb beradi. So‘ng yukni ko‘tarib turib plastinka chiqarib olinadi va uning holati 4 yoki 10 marta kattalashtirib ko‘rsatiladigan lupa yordamida tekshiriladi. Agar parda sirtida buzilish alomatlari (yorilgan joy, qoplamaning ko‘chib ketishi) bo‘lmasa sinash qaytadan yangi namunalarda davom ettiriladi. Bunda yuk tushish balandligi 50 sm ga yetguncha asta sekin oshirib boriladi. Odatda har bir mahsulot uchun texnikaviy shart yoki standartlarda qoplama mustahkamligi ko‘rsatiladi. Shuning uchun yukni to‘g‘ridan to‘g‘ri berilgan balandlikka ko‘tarib sinash o‘tkazish mumkin.

Qoplamaning zarbga bo‘lgan mustahkamligi yuqoridaan  $10N$  (1kgk) yukni erkin tashlab yuborganda lok – bo‘yoq qoplamlali metall plastinka yuzida deformatsiya paydo qilmaydigan eng yuqori balandlik (sm hisobida) bilan ifodalanadi.

## Laboratoriya ishi № 28

## **Lok – bo‘yoq qoplamaning qalinligini mikrometr yordamida o‘lchash**

Bu usul bilan lok – bo‘yoq qoplamaning qalinligini o‘lchash uning bir butunligini o‘lchashga asoslangan, u MK-0,25 xildagi mikrometrda (Rasm.48) o‘lchanadi.

Mikrometr MK-0,25 xalqa 1 dan iborat bo‘lib, uning bir uchiga o‘lchovchi tekislik 2, ikkinchi uchiga esa mikrometrik vint 3 mahkamlangan. Vint vtulka bo‘ylab harakatlanadi. Mikrometrik vintning uchi ikkinchi o‘lchovchi tekislik vazifasini o‘taydi.

Mikrometrik vint o‘ziga o‘zgarmas bosim berib turuvchi shiqildoq 5 va 0,01 mm shkalali baraban 4 bilan biriktirilgan. Barabanning bir marta to‘liq aylanishi mikrometrik vintning 0,5 mm ga oldinga siljishiga mos keladi. Xalqaning bo‘linma chiziqlari 0,5 mm ga teng bo‘lgan chiziqli shkala bilan ta’minlangan.

Sinaladigan qoplama qatlami ustida diametri  $5 \div 6$  mm ga teng bo‘lgan uchastkalar tanlanadi va u asos tomonidan yumshoq grafit qalam (2M) bilan belgilab qo‘yiladi. Qoplama plastinka mikrometrning o‘lchovchi tekisliklari orasiga qo‘yiladi va shiqildoqni soat strelkasi yo‘nalishda burab, plastinkaning belgilangan uchastkasi o‘lchovi tekisliklar sirti bilan to‘qnashiriladi. To‘qnashish momenti shiqildoqning xarakterli tovushi bilan belgilanadi. Chiziqli shkala va barabandagi shkala ko‘rsatkichlarining yig‘indisiga qarab, plastinkaning parda bilan birqalikdagi qalinligi (mkm hisobida) topiladi.

So‘ngra o‘lchangan qismidan pichoq tig‘i (mexanik usul) yoki erituvchi yordamida lok – bo‘yoq qoplamasini olib tashlanadi va shu yerdagi plastinka qalinligi (mkm) hisobida o‘lchanadi.

Xudi shunday o‘lhashlar qoplama hosil qilingan materialning 5 – 10 qismida qaytariladi. Koplama qalinligi t (mkm yoki mm) ikkita ko‘rsatkichning ayirmasiga teng:

$$t = d - h;$$

bu yerda: d – qoplamaning taglik bilan birqalikdagi qalinligi; h – taglik qalinligi.

O‘lhash natijalari sifatida o‘tkazilgan 5 – 6 tekshirishning o‘rtacha arifmetik qiymati olinadi.

Sinov vaqtida yo‘l qo‘yilgan o‘rtacha absolyut va nisbiy xatoliklar quyidagi formulalardan topiladi:

$$\delta = \frac{1}{n} \sum_{1}^n (t_n - t_1) = \frac{(t - t_1) + (t - t_2) + \dots + (t - t_n)}{n}; \quad A = \frac{\delta}{t} \cdot 100;$$

bu yerda A – nisbiy xatolik, %;  $\delta$  - o‘rtacha absolyut xatolik;  $(t - t_1)$ -absolyut farq.

Sinov natijalari daftarga jadval ko‘rinishida yozib boriladi.

## **Laboratoriya ishi № 29**

### **Elimlash mustahkamligini aniqlash**

Elimlash mustahkamligini aniqlash uchun

49-rasmida keltirilgan metall namunalari

ishlatiladi.

Buning uchun uchxloretilen yoki boshqa yog‘larni erituvchi suyuqlik bilan yaxshilab artilib, jilvirlangan metall standart namunalari yuzasiga  $250 \pm 50$  mkm qalinligidagi yelim qavati surtiladi. So‘ngra ochiq havoda 20 min ushlab turilgach, bir necha yelimlangan metall namunalari Rasm.50da keltirilgan jihozga joylanadi va vint yordamida namunalar yuzasiga  $5 \text{ kg.k/sm}^2$  miqdorida bosim bilan siqiladi.

Namunalarni jihozda qiyshayib ketishini oldini olish maqsadida, namunalar (3) stakanga (2) joylanadi. Bunda stakanni ichki diametri metall namunalarining eng keng joyidan 2mm katta qilib olinadi (Rasm.50).

Namunalar o‘rnatilgan jihoz issiqlik shkafiga joylashtiriladi va kerakli haroratda berilgan vaqt ushlab turilgach, isitish shkafida xona haroratigacha sovitiladi.

Stakandan chiqarib olingan namunalar xona haroratida 24 soat ushlab turilganidan so‘ng tekshirish o‘tkaziladi. Tekshirishni o‘tka-zish uchun yelimlangan metall namunalari 51-rasmida kelti-rilganidek

moslamalar yorda-mida uzish mashinalariga o'rnatiladi. Tekshirish o'tkazi-layotgan vaqtida ushlagichlarni harakatlanish tezligini 10 mm/min deb qabul qilish tavsiya etiladi. Yelimlanish mustaxkamligi quyidagi teng-lama orqali hisoblanadi:

$$\sigma_y = \frac{P}{S}$$

bu yerda:  $\sigma_u$  – uzilishdagi mustaxkamlik (elimlanish mustaxkamligi), kg.k/sm<sup>2</sup>

R-yelim qavatiga perpendikulyar bo'lgan uzish kuchi kattaligi, kg.k;  
S-0,01 mm<sup>2</sup> aniqlikgacha o'lchangan yelimalsh yuzasi, sm<sup>2</sup>.

## **Polimerlarni xossalari aniqlashga oid tajribalar**

### **Laboratoriya ishi № 30**

#### **Lok-bo'yoq materiallar adgeziyasini aniqlash**

Ishning maqsadi: Lok-bo'yoq materiallarni sirtga adgeziyasini aniqlash.

Lok-bo'yoq materiallar adgeziyasi ikki hil usul bilan aniqlanadi: panjarali kesish usuli, paralel kesish usuli.

Panjarali kesish usuli (metod reshetchatogo nareza) ma'lum sirtga qoplangan plenkani ustidagi chizilgan panjaralaridan ko'chib tushgan yacheykalari sonini aniqlashga asoslangan. Ikkinci usul yopishqoq lentani qoplama surtilgan sirtdagি plenkani ko'chirib olishga asoslangan.

Reaktiv va materiallar: metall plastinkalar, PF-115 emali, solvent, uayt-spirit, polietilen lenta.

Jihozlar: metall chizg'ich, skalpel, mikrometr MK-025, ITP-1 qalinlik o'lchovchi asbob (tolshinometr), VZ-4 viskozimetrik, bo'yoq purkagich, quritish pechi.

#### **Reshetkali kesish usuli**

Oldindan tayyorlab qo'yilgan lok-bo'yoq materiali qoplangan namunadagi qoplama qalinligi aniqlab olinadi. Ushbu namunadagi qoplama ustiga skalpel yordamida kichik o'lchamlarda paralel chiziqlar kvadrat shaklida chizib chiqiladi. Chiziqlar tortib olinganidan so'ng ko'chib tushgan qoplama zarrachalari mo'yalan yordamida tozalab olinadi. Adgeziya ballar yordamidabaholanadi.

Vazifa: olingen namunalarni quyidagi shkala bo'yicha baholang:

Baholash ko'rsatkichlari	Ball
Har bir hosil qilingan kvadratlarni chetlari tekis	1
Kvadratlarni chetlari bilinar bilinmas darajada salgina ko'chgan	2
Har bir kvadrat sirtida 35% gacha ko'chishni yaqqol kuzatish mumkin	3
Kvadratlarni ayrimlari batamom ko'chib tushgan. Har bir kvadrat ichi 35% dan ziyod ko'chgan	4

#### **Paralel kesish usuli**

Tekshirish uchun namunalar yuqoridagi ishdagi kabi tayyorlab olinadi. Ushbu namuna ustiga metall chizg'ich va skalpel yordamida chiziqlar tortiladi. Ushbu namuna ustiga perpendikulyar ravishda 10x100 o'lchamdagи polietilen lenta yopishtiriladi. Shundan so'ng chaqqon xarakat bilan lenta qoplama ustidan ko'chirib olinadi.

Vazifa: olingen namunalarni quyidagi shkala bo'yicha baholang:

Baholash ko'rsatkichlari	Ball
--------------------------	------


Har bir hosil qilingan kvadratlarni chetlari tekis	1
Kvadratlar bo‘yiga va eniga salgina darajada ko‘chgan	2
Qoplama ko‘chib tushgan	3

#### **2.4. Modul bo‘yicha keyslar to‘plami, amaliy topshiriqlar, ishlanmalar.**


##### **2.3.1. Modul bo‘yicha keyslar to‘plami**

**O‘quv predmeti: “Yuqori molekulalii birikmalar asosida polimer kompozitsiyalar yaratishning nazariy asoslari”**

**“FSMU” metodi**




**“Baliq skeleti” metodi**



**”Rezyume” metodi**

Muammo			
1-usuli		2-usuli	
Afzalliklari	Kamchiliklari	Afzalliklari	Kamchiliklari
<b>Xulosa:</b>			

**“Ven diagrammasi” metodi**



**“ASSESMENT” namunasi**

Var.Nº1	“Yuqori molekulali birikmalar asosida polimer kompozitsiyalar yaratishning nazariy asoslari” fanini o’quv moduli boyicha ASSESMENT		
<b>1.TEST</b>		<b>3.QIYOSIY TAHLIL</b>	
<b>2.SIMPTOM</b>		<b>4.AMALIY KO’NIKMA</b>	

**Tuzuvchi:**

**Lutfullayev S.Sh.**

**TESTLAR**

Monomer deb..... aytildi	Segment	*Polimer hosil qiluvchi moddalar	Suv.	Etilen.
Elementar zveno deb ataladi	Monomer qoldig'i	Segment	Makromolekula	*Qaytarilayotga n atomlar gruppasi
Qo'yidagi reaktsiyada o'suvchi zanjir manfiy zaryadlangan bo'ladi	Kation polimerlanish	Zanjirli polimerlanish	Initiatorli polimerlanish	*Anion polimerlanish
Monomerlarni navbatma-navbat o'sayotgan aktiv markazga birikish reaktsiyasi ..... reaktsiyalari deyiladi	Polimerlanish	Polikondensatlani sh	Polimeranalogik o'zgarish	*O'rIN olish
Aktiv radikallar hosil bo'lishi bilan ketadigan reaktsiya ..... reaktsiyalari deyiladi	O'rIN olish	Birikish.	Polikondensatlani sh	*Polimerlanish
Ingibitor deb ..... aytildi	Polimerlanish reaktsiyasini tezlatuvchi modda.	Polimerlanish reaktsiyasiga ta'sir etmaydigan modda	*Polimerlanish reaktsiyasini to'xtatib qo'yuvchi modda	Depolimerlanish reaktsiyasini tezlatuvchi modda
Qo'yidagi reaktsiyada o'suvchi zanjir musbat zaryadlangan bo'ladi	Radikal polimerlanish	*Ionli polimerlanish	Kationli polimerlanish	Tirik polimerlanish
Bir hil atom gruppalarining ko'p martabalab qaytarilishi natijasida hosil bo'lgan yuqori molekulali birikmalar ..... deb ataladi.	Monomerlar	Spirtlar	*Polimerlar	Elementar zveno
Polimerlanish issiqligini, polimerlanish muhitidan olib chiqib ketish qiyin bo'lgan polimerlanish usuli	Eritmada polimerlanish	*Massada polimerlanish	Suspenziya polimerlanish	Ikki aralashmaydigan erituvchi chegarasida polimerlanish
Polimerlar kukun ko'rinishida quyidagi usulda olinganida hosil bo'ladilar.	Massada	Cuspenziyada	*Emulsiyada	Ikki aralashmaydigan erituvchi chegarasida
Sopolimerni tarkibi monomerlar tarkibiga to'g'ri, hamda zvenolarning taqsimlanishi statistik bo'lishiga to'g'ri keladigan holat	r1 >1; r2 <1 yoki r1 <1; r2>1	*r1=r2=1	r1>1; r2>1;	r1<1; r2 <1
Bir turdag'i monomer qatnashgan polikondensatsiya nima deb ataladi	Geteropolikonden satsiya.	To'rsimon polikondensatsiya lanish	*Gomopolikonde nsatsiya.	Polirekombinatsiya.
Asosan monomer xosil	Termodestruktsiy	Fotodestruktsiya	Depolimerlanish.	*Radikal

bo'lishi bilan beradigan makromolekulalarni parchalanish reaktsiyasi	alanish			polimerlanish
Destruksiyalanishi HCl ajralib chiqishi, polien ketma-ketliklar xosil bo'lishi bilan boradigan, ajralib chiqqan modda destruksiyalanishini tezlashtiradigan polimer qanday polimer	Polivinilatsetat	Politetraftoretilen	POLIVINILXLO RID.	*Poliamidlar.
Polimerlar molekulyar massasi turlicha bilgan bir turdag'i makromolekulalardan tarkib topgan	*Polimerlar aralashmasi	Molekulyar massa	Polidisperslik	Izomerlanish
Ikkita xolat energiyalarining farqiga bog'liq va issiqlik harakati hisobiga zanjirning bukilish qobiliyatini xarakterlovchi ko'rsatkich nima	*Kinetik egiluvchanlik	Aylanishning tormozlanganligi	Termodinamik egiluvchanlik	Issiqlik o'tkazuvchanlik
Polimerlar qo'ydag'i agregat holatlarda bo'lishi mumkin	*Kattiq, suyuq	Shishasimon, suyuqlanma, qattiq	qovushqoq oquvchan, yuqori elastik, gazsimon	Kristall, gazsimon, suyuq
Makromolekulalarni turlicha tashchlanishi katijasida xosil bo'lgan struktura nima deb ataladi	Polidisperslik	Kimyoviy.	Ion.	*Nadmolekulyar struktura
Amorf polimerlar uchun qo'ydag'i nadmolekulyar strukturalar turi xosdir	Sferolitlar	Globulalar	Domenlar	*Monokristalla'r
Erituvchi yoki uning bug'lari bilan kontaktda bo'lgan polimer massasi va xajmini ortishi qanday xodisadir	Erish.	Bo'kish	Relaksatsiya.	*Deformatsiyal'anish
Bo'kish turlarini ko'rsating	Chegarali	Qaytar	Qaytmas	*Qo'yiq qovushqoqli
Bo'kish darajasi qaysi formuladan aniklanadi	$\alpha = \frac{m - m_o}{m_o}$	$* \alpha = \frac{m \cdot n}{n}$	$\alpha = \frac{V - V_o}{V_o}$	$\alpha = \frac{V \cdot V_o}{V_o}$
Makromolekula uzunligini uning eniga nisbatan juda ham kattaligi faqat makromolekulalar uchun hos kanday xususiyat beradi	*Kristallik.	Egiluvchanlik	qattiqlik	Yumshoqlik
Funktional gruppalarini reaktsiyaga kirishishi natijasida hamda past	*Polimerlanish	Sopolimerlanish.	Destruksiya.	Polikondensatlanish

molekulali birikmalarni ajralib chiqishi bilan ketadigan polimer hosil bo'lish reaktsiyasining nomlanishi				
Polimerlanish darajasi deb ..... aytildi	Uglerod atomlari soni	Makromolekulada gi elementar zvenolar soni	*Polimerdag'i makromolekulalar soni	Makromolekula dagi segmentlar soni
Kimyoviy tarkibi bo'yicha polimerlar bo'linadi ...	Spirtlar, kislotalar, ishqorlar	Sintetik, tabiiy, organik	Sintetik, kristall, amorf	*Organik, anorganik, elementoorganik
Zanjirli polimerlanishni asosiy bosqichlari	Zanjirni o'sishi, zanjirni uzatilishi, zanjirni uzelishi.	Aktiv markaz hosil bo'lishi, zanjirni o'sishi, zanjirni uzelishi	Aktiv markazi hosil bo'lishi, aktiv markazni uzatilishi, aktiv markazni uzelishi	*Aktiv markazni uzatilishi, aktiv markazni zilishi, zanjirni uzelishi
Ikkita makroradikalni birikib bitta makromolekula hosil qilish reaktsiyasi ..... reaktsiyasi deyiladi.	Birikish	O'r'in olish.	Rekombinatsiya.	*Disproportsiy alashish.
Kationli polimerlanish katalizatorlari bo'lib xizmat qiladi	Ishqorlar.	Ishqoriy er metallari	Lyuis kislotalari	*Amidlar.
Anionli polimerlanish katalizatorlari bo'lib xizmat qiladi	Lyuis kislotalari	Tsigler-Natta katalizatorlari	*Spirtlar.	Ishqoriy metallarning amidlari.
O'sayotgan makrokationga monomerni birikish reaktsiyasi ..... reaktsiyasi deyiladi	Zanjirni uzelishi	*Zanjirni o'sish	zanjurni uzatilish	Initiash.
Polivinil spirtining olish reaktsiyasi qanday	Polimerizatsiya.	Polikondensatsiya .	Sopolimerlanish.	*Polimeranalog ik o'zgarishlar
Funktsional guruhlar xisobiga yuqori molekulyar birikmalar ishtirokida polimerlanish darajasi izgarmay beradigan reaktsiyalar nima deb ataladi	Choklanish	Destruktsiyalanish	Polimeranalogik o'zgarishlar	*Birikish.
Cho'zilgan zanjir atomlarining bog'lari va burchaklari o'zgarmas bo'lgan xolda o'zaro joylashishi nima deb ataladi	Konfiguratsiya	Konformatsiya	*Egiluvchanlik	Nadmolekulyar struktura
Zanjir konfiguratsiyasini o'zgartirish uchun nima qilish kerak	*Polimerni suyuqlantirish	Polimerni eritish	Kimyoviy bog'ni uzish	G-bog' atorfda ichki aylanish

Makromolekula shakli va o'lchamlarini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlardan birini ko'rsating	*Kalava radiusi	kalava uzunligi	Zanjir uchlari orasidagi masofaning o'rtacha kvadrati	Kalava xajmi
Zanjirning bir konformatsiyadan ikkinchi konformatsiyaga o'tish tezligini belgilovchi ko'rsatkichni ko'rsating	Kinetik egiluvchanlik	Aylanishning tormozlanganligi	Termodinamik egiluvchanlik	*Issiklik o'tkazuvchanlik
Kristall polimerlar uchun qo'yidagi nadmolekulyar strukturalar turi xosdir	Domenlar.	Pachkalar	Tasma strukturalar	*Monokristallar
Polimer qanday fizik xolatlarda bo'lishi mumkin	Suyuq, gazsimon, qattiq	Kristall, shishasimon, gazsimon	Shishasimon, yuqori elastik, qovushqoq oquvchan	*Shishasimon, gazsimon, oquvchan
Aktiv radikallar hosil bo'lishi bilan ketadigan reaksiya ..... reaksiyalarini deyiladi	O'rinc olish	Birikish.	Polikondensatlani sh	*Polimerlanish
Polimerlanish reaksiyalarini (past zichlikli polietilen olishda) tezligini oshirishga olib keladi	Temperaturani oshirish, bosimni kamaytirish	Temperaturani kamaytirish, bosimni oshirish	*Temperaturani oshirish, bosimni oshirish	Temperaturani kamaytirish, bosimni kamaytirish
Ishlab chiqarish usuliga qarab polimerlar bo'linadi	*Organik, anorganik, elementooragnik	Metal saqlovchi, uglerodli, silikat	Sintetik, tabiiy, suniy	Sintetik, suniy, amorf
Polimerning molekulyar massasi teng	Elementar zvenolar soniga	Zveno molekulyar massasini zvenolar soniga ko'paytmasiga	Polimerdag'i molekumolekulalar soniga	*Makromolekula massasining uning soniga nisbatiga
Asosiy zanjiri bir necha xil zvenodan tashkil topgan polimerlar nomlanadi.	Gomozanjirli.	*Geterozanjirli	Gomopolimerlar	Sopolimerlar
Polimerlanish reaksiyalarini tezligini oshiradi, molekulyar massasini kamaytiradi	Temperaturani oshirish, initiator miqdorini kamaytirish	Temperaturani kamaytirish, initiator miqdorini kamaytirish	Temperaturani oshirish, initiator miqdorini oshirish	*Temperaturani kamaytirish, initiator miqdori ta'sir etmaydi
Polimerlarni molekulyar massasini oshiradi	Initiator miqdorini oshirish, temperaturani kamaytirish	Initiator miqdorini kamaytirish, temperaturani oshirish	Initiator miqdori ta'sir etmaydi, temperaturani oshirish	*Initiator miqdorini kamaytirish, temperaturani kamaytirish
Ikki va undan ortiq monomerlarni polimerlanishi ..... reaksiyasi deyiladi	Polimeranalogik o'zgarish	*Sopolimerlanish.	Polikondensatlani sh	Bosqichli polimerlanish
Polikondensatlansh reaksiyalarida to'rsimon	M1 = 1, M2 = 4.	*M1 = 2, M2 = 3.	M1 = 3, M2 = 2.	M1 = 3, M2 = 1.

polimer monomerlarni quyidagi funktsionalligida hosil bo'ladi				
Monomerlarni biri 2 funktsionallik ikkinchisi esa 3 funktsionallik bo'lganida polikondensatlanish reaksiyasini monomerlar konvertsiyasini qaysi sonida to'xtatish kerak.	n=1.	n=2.	n=1,5.	*n=0,66.
Polireaktsiyaning qaytarlik belgisiga qarab polikondensatsiya qo'yidagi turlarga bo'linadi	qaytar, qaytmas.	To'g'ri, teskari	*Muvozanatlinom uvozanatsiz	Polirekordinatsiyalash, disproportsiyalash
Poliakrilonitrilni tsikllanishi qaysi turdag'i reaksiyalar turkumiga kiradi	Choklash	Destruktsiyalanish	Fotoliz.	*Polimeranaloga o'zgarishlar
Polimerlarni ishtirokida borib, asosiy zanjirni uzilishi yoki o'rnbosarlarni ajralib chiqishi bilan ketadigan reaksiyalar nima deb ataladi	*Polimerizatsiya	Polikondensatsiya	Polimeranalogik o'zgarishlar	Destruktsiyalanish
Kimyoviy agentlar ishtirokida boradigan destruktsiyalanish nima deb ataladi	Kimyoviy.	*Termik.	Fotodestruktsiya	Radiatsion
Qaytariluvchan zveno konfiguratsiyasi nima bilan aniqlanadi 1. Zanjir bo'ylab monomer zvenosini orientatsiyalanishi bilan. 2. Polimer fizik xolati bilan. 3. O'rnbosarlarni fazoviy joylashishi bilan. 4. Zanjir konformatsiyasi bilan. 5. Tsis-trans izomerlanish bilan.	1,3,5	1,2,4	2,4,5	*3,4,5
Ma'lum vaqtda makromolekula atomlarini fazoviy joylashishi nima deb ataladi	*Konfiguratsiya	Konformatsiya	Egiluvchanlik	Nadmolekulyar tuzilish
Asosiy zanjir bog'larining atrofida makromolekula bo'laklarini aylanish imkoniyati bilan belgilanuvchi polimerning asosiy xossasi nima	Mustahkamlik	Deformatsiya.	Polidisperslik	*Egiluvchanlik
Fazoviy xolati boshqa	Kun segmenti	Elementar zveno	Monomer	*Makromoleku

bo'laklarga bog'liq bo'lмаган зanjir bo'lagi nima deb ataladi				la
Polimer zanjirining termodinamik egiluvchanligi qanday baholanadi? 1. Erivchanlik bo'yicha. 2. qayishqoqlik modulidan. 3. Suyuqlanish temperaturasida. 4. MM ga nisbatdan. 5. Kun segmentining uzunligini baholashdan	1,2	1,3	*1,4	1,5
Polimerlarni yuqori elastik xolati nima bilan xarakterlanadi	Deformatsiyalanis hga bo'lgan katta qarshilik	Bikrlik	*qaytmas deformatsiyalanis h	qayishqoq deformatsiyalan ish
Yuqori elastik deformatsiya qanday tabiatga ega? 1. Entalpik. 2. Issiqlik. 3. Entropiyaviy. 4. qaytar. 5. Kinetik	1,2	1,3	2,3	*3,4
Polimerlarni shishasimon holatga o'tishining sabablari nimada 1. qotish. 2. $T = T_{sh}$ da segmentlar xarakatchanligini kamayishi. 3. Kristallanish. 4. Molekulyar ta'sirlashishning kuchayishi. 5. Choklanish.	1,2	1,3	2,4	*3,5
Polimerlarni chiziqli makromolekulalarini to'rsimon holatga o'tishiga yordam beruvchi moddalar nomini ko'rsating	Monomerlar	qotiruchilar	Plastifikatilar	*To'ldiruvchilar
Qayta ishlash jarayonini temperaturani kamaytirish xisobiga engillashtirish va mo'rtligi kam, elastikligi yuqori buyumlar olish imkonini beruvchi moddalar nomini aytинг	Stabilizatorlar.	To'ldiruvchilar.	*Plastifikatorlar	Qotiruvchilar
Polimerlarga to'ldiruvchilar nima maqsadda qo'shiladilar	Fizik-mexanik xoṣsalarni o'zgartirishga	Polimerni qotirishga	Plastifikatsiyalash ga	*Polimer sarfini kamaytirishga

Polipropilen olinish sharoitini ko'rsating 1. Past bosimda. 2. Yuqori bosimda. 3. O'rtacha bosimda. 4. Stereospetsifik polimerlanish. 5. Kislород muhitida. 6. Erituvchi ishtirokida. 7. Polikondensatsiya.	1,2,3	1,3,6	1,3,7	*1,4,6
Propilenni erituvchi muhitida stereospetsifik polimerlab olingan polipropilen qanday geometrik izomeriyaga ega 1. Ataktik polipropilen (10- 15)% 2. Sindiotaktik polipropilen (85-90)% 3. Izotaktik polipropilen (85-90)% 4. Kristallik polipropilen (80-90)% 5. Amorf polipropilen, 100	1,2	*1,3	1,4	2,3
Polipropilenni asosiy kamchiliklarini kirsating. 1. Kimyoviy barqarorligi past. 2. Sovuqqa chidamligi kichik. 3. Mustahkamligi kichik. 4. Issiqlikka bardoshligi past. 5. Termoturg'unligi past.	4,5	3,4	2,5	*1,2
Olinish uslubiga ko'ra quyidagi polietilenlar mavjud 1. Yuqori bosimda olingan polietilen. 2. Suyuq fazada olingan polietilen. 3. Past bosimda olingan polietilen. 4. O'rta bosimda olingan polietilen. 5. Qattiq fazada olingan polietilen	1,3,4	2,3,5	1,2,3	*1,3,5
Olinish usullariga qarab polimerlar quyidagi turlarga bo'linadi ....	Organik, neorganik, elementoorganik.	Metalsaqllovchi, uglerodsaqllovchi, silikatli	*Sintetik, su'niy, tabiiy.	Tabiiy, su'niy, kristal
Asosiy zanjir tuzilishiga qarab makromolekulalar	Geterozanjirli, gomozanjirlitarm	Chiziqsimon, choklangan,	Karbozanjurli, gomozanjirligeter	*Chiziqsimon, tarmoqlangan,

bo'linadi	oqlangan	geterozanjirli	ozanjirli	choklangan.
Polimerlanish tezligining oshishiga (yuqori bosim PE) quyidagi faktor ta'sir qiladi	Xarorat ko'tarilishi, bosim pasayishi	Xarorat pasayishi, bosim ko'tarilishi	Xarorat va bosim ko'tarilishi	Xarorat va bosim pasayishi
Ingibitor deb ..... aytildi	Polimerlanish reaktsiyasini tezlatuvchi modda.	Polimerlanish reaktsiyasiga ta'sir etmaydigan modda.	*Polimerlanish reaktsiyasini to'xtatib qo'yuvchi modda	Depolimerlanish reaktsiyasini tezlatuvchi modda.
Kation polimerlanish katalizatorlarini ko'rsating....	Ishqorlar	Ishqoriy er metallari	*Lyuis kislotalari	Amidlar.
Reaktsion muxitdan ajralib chiqayotgan issiqlikni ketkazish nisbatan qiyin bo'lган polimerlash usulini ko'rsating	Eritmada polimerlash	*Massada polimerlash	Suspenzion polimerlash	Emulsion polimerlash
Zanjirning termodinamik egiluvchanligi ..... bilan belgilanadi	Kimyoviy bog'lar soni	Egiluvchanlik moduli	Erish temperaturasi	*Kun segmentining uzunligini baxolash.
Polimerlarning shishasimon xolatga o'tishi sababi nimada	Qattiq xolatga o'tishi	Kristallanishi	*Molekulalararo ta'sirlashishning kuchayishi	Choklanishi
Polimer tarkibiga to'ldiruvchi nima maqsadda qo'shiladi	*Fizik-kimyoviy xossalarni maqsadli o'zgartirish	Polimerni qotirish	Plastifikatsiyalash	Qayta ishlash jarayonini engillashtirish
Polipropilenning kanday asosiy kamchiliklarini bilasiz	*Sovuqqa chidamliligi past	Mustaxkamliligi past	Issiqbardoshligi past	Termik stabilligi past
Blok polimetilmekrilat qanday sharoitlarda ishlab chi qariladi	Initiator -3-5%; t = 60°C-120°C; t- 60-80 soat	Initiator 0,1- 1,0%; t = 70- 90°C; t = 50- 70 soat	Initiator 1,0- 2,0%; t = 45- 120°C; t = 12- 36 soat	*Initiator 1,0- 2,0%; t = 70- 90°C; t = 24- 48 soat
Qaysi bandda sanoatda olinadigan polivinilxlorid turlaridan birining nomi to'g'ri ko'rsatilgan	Past bosimli polivinilxlorid	Yuqori bosimli polivinilxlorid	*Suspenzion polivinilxlorid	Izotaktik polivinilxlorid
Burg'ilar soniga qarab ekstruderlar qanaqa turlarga bo'linadi	Keng va tor burg'ili	Uzun va kalta burg'ili	*Bir ko'p burg'ili	Oddiy va maxsus
Qaysi aralashtirgichlar tez harakatlanuvchi aralashtirgichlarga kiradi	Turbinali	Vintli	Shnekli	*Prapeller (parrakli) va trubinali
Eritmalardan bir yoki necha tarkibiy kismlarni maxsus selektiv suyuk ekstragentlar yordamida ajratib olish.....	polimerizatsiya	polikondensatsiya	*ekstraksiya	sopolimerizatsiya

usuli deyiladi				
Epoksid oligomerlari quyidagi qotirgichlar yordamida xarorat ta'sirida tikilgan holga o'tkaziladi	Mineral kislotalar	Ishqorlar	*Organik kislotalar va ularning angidridlari	Aminlar va poliaminlar
Furan polimerlari asosida ishlab chiqarilgan plastik massalar..... ta'siriga chidamli bo'ladi	Mexanik kuch, xarorat, agressiv muhit	Mexanik kuch, ishqalanish, xarorat	* Radiatsiya, xarorat, agressiv muxit	Mexanik kuch, ishqalanish, xarorat agressiv muhit
To'yinmagan poliefirlar to'yinmagan dikarbon kislotalari yoki ularni angidridlarini ..... bilan polikondensatlab olinadi	Diaminlar	* Glikollar	To'yinmagan uglevodorodlar	To'yingan uglevodorodlar
Asosiy zanjiri bir necha xil zvenodan tashkil topgan polimerlar nomlanadi	Gomozanjirli	Geterozanjirli	Gomopolimerlar	*Sopolimerlar.
Chiziqsimon polimerlarni choklangan xolga o'tkazuvchi moddalar ..... deyiladi	Monomer.	*Qotiruvchi	Plastifikator.	To'ldiruvchi
To'ldiruvchining polimer xossalariiga ta'sir qiluvchi asosiy omili bu .....	To'ldiruvchining plastifikatsiyalovchi ta'siri	To'ldiruvchi sirtining polimer bilan xo'llanmasligi	*Polimerning to'ldiruvchi sirti ilan o'zaro ta'sirlashuvi	Polimer ilan to'ldiruvchining o'zaro ta'sirlashuvi yo'qligi
Yuqori bosimda olingan polietilen boshqa turdag'i polietilendan ..... bilan farq qiladi	*Zichligi pastligi	Zichligi yuqoriligi	Kristallanish darajasi yuqoriligi	Mustaxkamligi yuqoriligi
Polipropilen olinadi.....	*Past bosim ostida	Yuqori bosim ostida	Kislorodli muxitda	Polikondensatsiya usulida
Polipropilen ..... usuli bilan qayta ishlanadi	Kimyoiy shakllash	*Bosim ostida quyish	Rotatsion shakllash	Vakuum-shakllash
Polivinilxloridning qanday tovar – maxsulot nomlarini bilasiz	*Plastikat	Ftoroplast	Akriloplast	Fenoplast.
Polimerning molekula og'irligi ..... ga teng	Elementar zvenolar soni	*Elementar zveno molekula og'irligining zvenolar soni ko'paytmasi	Polimer tarkibidagi makromolekulalar soni	Bir makromolekula og'irligi
Makromolekula zanjiri bir bo'lagining asosiy zanjir bog'lari atrofida aylanish xususiyati bu ..... deyiladi	Mustaxkamlik	Deformatsiya	Polidisperlik	*Egiluvchanlik
Elementar zveno bu.....	Kislota qoldig'i.	Segment.	Makromolekula	*Qaytariluvchi atomlar guruxi

## NAZORAT SAVOLLARI.

1. Mamlakatimiz iqtisodiyotida polimerlar kimyosi sanoatining o‘rni.
2. Polimer kompozitsion materiallar ishlab chiqarishni va ular asosida buyum olishni tezkorlik bilan rivojlanishni iqtisodiy omillari.
3. An’anaviy materiallarning polimer kompozitsion materiallar bilan almashtirish imkoniyatlari.
4. Xossalari oldindan belgilangan polimer kompozitsion materiallarni yaratish imkoniyatlari.
5. PKMlarni sanoatda, texnikada tutgan o‘rni.
6. PKMlarni an’anaviy birikmalardan afzallik va kamchiliklari.
7. PKMlarni klassifikatsiyalab bering. Sperling klassifikatsiyasi.
8. PKMlar asosi bo‘lgan yuqori molekulali birikmalar, ularni turlari.
9. PKMlar yaratishda polimerlarga qo‘yiladigan talablar.
10. Chiziqsimon va to‘rsimon polimerlar yaratish muammolari.
11. PKMlar yaratishda to‘ldiruvchilarining vazifasi. To‘ldiruvchilar turlarini.
12. PKMlar yaratishda to‘ldiruvchi miqdori va o‘lchamini xossalariiga ta’siri haqida so‘zlab bering.
13. PKMlar tarkibiga kiruvchi ingradientlar.
14. PKM yaratishning nazariyasi. YUMBlar adsorbsiyasi.
15. PKM yaratishning nazariyasi. YUMBlar qattiq sirtda adgeziyasi.
16. Polimerlar adgeziyasi haqida bayon qiling.
17. Polimer va to‘ldiruvchi orasidagi bog‘ni tabiatli adgeziyaga ta’sirini bayon qiling.
18. Makromolekula segmentlari sirtki qatlam strukturasi hosil bo‘lishida qanday o‘zgarishlarga uchraydi.
19. Massa ko‘chish adgezion va kogezion kuchlar tabiatiga qarab qanday yunalishida bo‘ladi.
20. Massa kuchish xodisasini ikki xil to‘ldiruvchi bilan to‘ldirilgan sistemalar uchun tushuntirib bering.
21. To‘ldiruvchi turiga va konsentratsiyasiga qarab PKM mustahkamlik xossalariini o‘zgarib borishini tushuntirib bering.
22. Nima uchun polimer to‘ldiruvchilar asosida olingan PKM xossalari mineral to‘ldiruvchilar asosida olingan PKM xossalardan farq qilishini tushuntiring.
23. Ikki xil polimer aralashmasi kontakt oblastlar sxemasini tushuntiring.
24. Polimer to‘ldiruvchi fazasini polimer matritsa asosida olingan PKMlarni xil zonadagi holatlarini tushuntiring. Polimerni to‘ldiruvchilar bilan kuchaytirish deganda nimani tushunasiz?
25. To‘ldiruvchilar bilan kuchaytirish mexanizmini tushuntirib bering.
26. Armirlangan to‘ldiruvchilar bilan to‘ldirilgan sistemalarni kuchaytirish mexanizmi qanday?
27. Polimer-polimer sistemalaridagi kuchaytirish mexanizmini so‘zlab bering.
28. Polimer qorishmaning qovushqoqligi qanday parametrlarga bog‘liq va qorishmaning reologik xossalariini o‘rganish qanday ahamiyatga ega?

## REFERAT MAVZULARI

No	Referat mavzusi
1.	Polimer kompozitsion material tarkibiga kiruvchi ingredientlar. Ularning polimer kompozitsion material xossalariiga ta'siri. Bog'lovchilar yaratish muammolari. To'ldiruvchilar turlari.
2.	Polimer kompozitsion materiallar shakllanishida adsorbsiyaning roli. YUMB qattiq sirdagi adsorbsiyasini QMB adsorbsiyasidan farqi, qattiq sirdagi, konsentrangan eritmadagi YUMB adsorbsiyasi.
3.	Yangi adgezivlar yaratishga termodynamik yondoshish. Adgezivni kogezion mustahkamligini oshirish.
4.	Polimer kompozitsion materiallarning mikrogeterogenligi. Polimer kompozitsion materiallarning ko‘p fazali sistema ekanligi mikrogeterogenlikni paydo bo‘lish omillari.
5.	Yuqori elastik holatdagi polimerlarni dispers to‘ldiruvchilar bilan kuchaytirish mexanizmi. Termo- va reaktoplastlarni dispers to‘ldiruvchilar bilan kuchaytirish mexanizmi
6.	To‘ldirilgan polimerlar eritmalarini va qorishmalarning reologik xossalari va struktura hosil bo‘lishi. To‘ldiruvchi miqdorning sistema qovushqoqligiga ta’siri
7.	Antifriksion va friksion polimer kompozitsion materiallarni ishlatalishi. Polimer kompozitsion material va xalq iste’mol predmetlari. Yangi polimer kompozitsion materiallar

## **FOYDALI MASLAHATLAR VA TAVSIYALAR**

### **Talabalar bilim doirasini kengaytirish uchun qo'yidagilarni bilishi lozim:**

1. Umumiy kimyo, organik kimyo va fizik kimyo fanlarining asosiy qonuniyatlari va reaksiyalarini.
2. YUMB ishlab chiqarishda qo'llaniladigan xom-ashyo va materiallar, hamda YUMB larni olish reaksiya turlari, reaksiya turlarini bir-biridan farqi, polimerlarga xos asosiy atamalar va ularni mazmunini.
3. Dunyodagi xozirgi kunda ishlab chiqarilayotgan yuqori molekulali birikmalarni miqdorini
4. O'zbekiston Respublikasida mustaqillikgacha bo'lgan davrdagi polimerlar ishlab chiqarish xolatini
5. O'zbekistonda polimerlar ishlab chiqarish uchun asosiy xom-ashyoning mavjudligi va miqdori.
6. O'zbekistonda xozirgi kunda ishlab chiqarilayotgan polimerlarni miqdori va turlari.
7. YAqin 3-4 yil ichida polimerlar ishlab chiqarishni yuksaltirish istiqbollari.
8. Polimerlar ishlab chiqarish bo'yicha barcha katta va kichik korxonalarning nomlari, joylashgan joyi va ishlab chiqarayotgan polimer turlarini.
9. O'zbekistonda polimerlardan ishlab chiqarilayotgan tayyor maxsulotlar xili va ushbu maxsulotlarni ishlab chiqarayotgan korxonalarni.

Polimerlar va polimer maxsulotlari bo'yicha O'zbekistonning eksport imkoniyatlarini bilish lozim

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### Asosiy adabiyotlar

№	Muallif, adabiyot nomi, turi, nashriyot, yili, hajmi	Kutubxonada mavjud nusxasi
1.	Abdumavlanova M.K. «Yuqori molekulali birikmalar asosida polimer kompozitsion materiallar yaratishning nazariy asoslari» fanidan ma'ruzalar matni. Toshkent Kime-texnologiya instituti. Toshkent.2001y., 127b.	10
2.	Lipatov Yu.S. Budushee polimernix kompozitsiy. Kiev «Naukova dumka», 1984g., 135s.	5
3.	Lipatov Yu.S. Fiziko-ximicheskie osnovy napolnennix polimerov. M., «Ximiya» 1991g.260s.	3
4.	Lipatov Yu.S. Fizicheskaya ximiya napolnennix polimerov. M., «Ximiya», 1977g., 305s.	2
5.	Lipatov Yu.S. Poverxnostnye yavleniya v polimerax. Kiev «Naukova dumka», 1984g., 135s.	2
6.	Berlin Yu.S.,Basin V.E. Osnovy adgezii polimerov. Kiev «Naukova dumka» 1973g., 64s.	8
7.	Lipatov Yu.S. Mejfaznye yavleniya v polimerax. Kiev «Naukova dumka», 1980g., 260s.	6

### Qo'shimcha adabiyotlar

№	Muallif, adabiyot nomi, turi, nashriyot, yili, hajmi	Kutubxonada mavjud nusxasi
1.	A.M.Toropseva, K.V.Belogorodskaya, V.M. Bondarenko. Laboratornyy praktikum po ximii i texnologii vysokomolekulyarnix soedineniy.M., «Ximii», 1972g., 227s.	3
2.	N.I. Avakumova, L.A. Budarina. Praktikum po ximii i fizike polimerov . M., «Ximiya», 1990g., 299s.	3
3.	DeryaginB.V., Krotova N.A. Adgeziya tverdryx tel. M., «Nauka»,1973,280s.	2
4.	<a href="http://www.mgup.mogilev.by/kafedra_htvs.htm">http://www.mgup.mogilev.by/kafedra_htvs.htm</a>	
5.	<a href="http://www.chem.msu.su/rus/chair/vms/welcome.html">http://www.chem.msu.su/rus/chair/vms/welcome.html</a> MGU	
6.	<a href="http://www.nirhtu.ru/index.php?option=com_content&amp;task=section&amp;id=16&amp;Itemid=22">http://www.nirhtu.ru/index.php?option=com_content&amp;task=section&amp;id=16&amp;Itemid=22</a> MXTI	

## GLOSSARY

Nº	Termin	Termin izoxi
1.	Polimer material	Asosi yuqori molekulali material bo‘lib, ishlatish soxasiga qarab, turli xil ingradientlar qo‘shilgan kompozitsiya
2.	Qotiruvchi qo‘sishimchalar	CHiziqsimon polimerlarni to‘rsimon xolatga o‘tkazish uchun qo‘llaniladigan qo‘sishimchalar
3.	Polimer adsorbsiyasi	Polimer materiallar olish jarayonida asos (bog‘lovchi) YUMB ning to‘ldiruvchi sifatida ishlatilishi
4.	Polimerlar adgeziyasi	Polimer material olish jarayonida asos (bog‘lovchi)larning to‘ldiruvchida yopishishi.
5.	apiretlar	PKM yaratishda to‘ldiruvchi sirtiga dastlabki ishlov berish uchun qo‘llaniladigan maxsus moddalar
6.	Selektiv adsorbsiya	Tanlangan adsorbsiya (PKM tarkibidan komponentlarni to‘ldiruvchi sirtidan adsorbsiyasi)
7.	Gibrid bog‘lovchilar	PKM yaratishda polime r material xususiyatlarini yaxshlash uchun qo‘llaniladigan polimer to‘ldiruvchi
8.	Kuchaytirish mexanizmi	PKM yaratishda aktiv, armirlangan polimer to‘ldiruvchilar qo‘llab, polimer material xossalari yaxshilash
9.	mikrogeterogenlik	PKM yaratishda kompozitsiya tarkibida mavjud bo‘lgan geterogen fazada mikroskopik darajada sirtqi va fazalararo qatlamda polimer xossalari uzgarishi
10.	Polimer-polimer sistemalar	PKM yaratishda to‘ldiruvchi sifatida ozgina miqdorda polimer yoki oligomerlarni qo‘llash